

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA’LIM VAZIRLIGI**

**Toshkent Moliya instituti**

**R.UMAROVA**

# **SOTSILOGIYA**

**O‘quv qo‘llanma**

Toshkent  
«IQTISOD – MOLIYA»  
2010

**Umarova R.** Sotsiologiya. O‘quv qo‘llanma. –T.:«IQTISOD-MOLIYA», 2010. -108 bet.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning Davlat dasturi va zamonaviy talablariga muvofiq «Sotsiologiya» fanining predmeti, obyekti, strukturasi, fan sifatida vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari o‘z aksini topgan; jamiyat butun bir dinamik tizim sifatida hamda jamiyat va shaxsning o‘zaro munosabat va aloqalari tahlil qilingan, siyosiy va iqtisodiy sohalar sotsiologiyasi, ta’lim-tarbiya hamda oila sotsiologiyasi, jamoatchilik fikri sotsiologiyasi, deviant va delinkvent xulqatvor, ijtimoiy texnologiyalar, shuningdek, empirik sotsiologik tadqiqot olib borish ko‘nikmalari yoritilgan.

O‘quv qo‘llanma Toshkent Moliya instituti qoshidagi Ilmiy-usulbiy Kengash yig‘ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (2010- yil 10-iyun, 11-sonli majlis bayonnomasi).

**Taqrizchilar:** – prof. Z.Davroniv;  
– dots. M.Qahhorova.

**ISBN 978-9943-13-168-2**

© «IQTISOD-MOLIYA», 2010

## KIRISH

O‘zbekistonning mustaqillikni qo‘lga kiritishi, jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy sohalarini tubdan isloh qilish respublikamiz oliv o‘quv yurtlarida «Sotsiologiya» fanini o‘rganishni taqozo etadi.

Sotsiologaya boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, jamiyatni bir butun tizim sifatida hamda ijtimoiy munosabatlarni va shaxs xulq-atvorini aniq shart-sharoit bilan bog‘liqlikda o‘rganuvchi yagona fandir. Sotsiologiya insonni ijtimoiy guruh vakili sifatida, ijtimoiy maqom va muayyan ijtimoiy rolni ifodalovchi sifatida o‘rganadi.

Shaxs yoki guruh oldida turgan muammolar u yoki bu darajada insoniy munosabatlar xarakteri, atrofdagilar bilan hamkorlikda yashay olish, qadriyatlarga va axloqiy me’yorlarga tayanish, ularni saqlab qolish, murosaga kirishish yoki murakkab nizoli vaziyatlarni hal qilish bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Inson oldida turgan muammolar qanchalik murakkab bo‘lsa, ularni hal qilishda shaxsning o‘zini anglab yetishi, o‘zi yashayotgan jamiyatni chuqur va atroflicha bilishi shunchalik katta ahamiyat kasb etadi.

Mutaxassislar o‘z sohalarini bilishlari bilan bir qatorda odamlarning qiziqishlari, manfaat va intilishlarini, ijtimoiy munosabatlar bilan yaqindan tanish bo‘lishi kerak. Chunki ular asosida ijtimoiy guruhlar, jamiyat va umuman, butun dunyo hamjamiyati shakllanadi. Sotsiologiyani bilish murakkab ijtimoiy tizimlarni, ijtimoiy institutlarni tahlil qilishga tajriba va bilim bilan qurollanib, hayotni o‘rganishga yordam beradi. Sotsiologik tafakkur orqali esa ijtimoiy hayotni ilmiy baholash va obyektiv axborot olish mumkin.

Sotsiologiya bizda fan sifatida, asosan, oxirgi 20-25 yillar ichida shaklandi, chunki uzoq vaqt davomida ijtimoiy bilim faqat siyosatchilar, madaniyat xodimlari, ta’lim-tarbiya sohasi xizmatchilariga kerak, boshqa soha xodimlariga sotsial bilim shart emas, deb hisoblangan. Bu esa shaxs rivojlanishi va butun jamiyat madaniyati taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan edi. Mutaxassislar qay bir sohada ishlamasinlar, o‘z faoliyatlarining ijtimoiy oqibatlarini e’tiborga olishlari kerak, bu esa sotsiologik tafakkurni tabab qiladi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingina sotsiologiya faniga obyektiv munosabat vujudga keldi. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarini o‘rganish, ijtimoiy munosabatlarni, jamiyat taraqqiyotini va unda shaxslar, ijtimoiy guruhlar hamda tashkilotlarning‘ xulq-atvorini tadqiq qilishga barcha sharoit yaratildi.

# **1-bob. SOTSILOGIYA FANINING PREDMETI, OBYEKTI, TARKIBI, TADQIQOT USULLARI VA USLUBIYATI. SOTSILOGIYA VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR**

## **1.1. Sotsiologiya fanining predmeti, obyekti, tarkibi, tuzilishi**

**Sotsiologiya** – lotincha «sotsiatos» – jamiyat va yunoncha «logos» – ta’limot, tushunchalarining birligidan tashkil topgan bo‘lib, jamiyatning dinamik rivojlanishi haqidagi, jamiyat tarkibiga kiruvchi alohida institutlar, tizimlar, guruhlar va ular orasidagi ijtimoiy munosabatlar to‘g‘risidagi fandir.

**Sotsiologiya** – insoniyatning bir necha yillik tarixiy taraqqiyoti davomida yaratilgan madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

XVIII asrda kishilik jamiyati, uning qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan sifatida tarix falsafasi shakllandi. Ijtimoiy hayotning murakkablashuvi va ilmiy bilimlarning tabaqalanishi sotsiologiyaning falsafadan ajralib, mustaqil fanga aylanishini muqarrar qilib qo‘ydi. XIX asrgacha sotsiologiya falsafaning tarkibiy qismi bo‘lib keldi. XVIII-XIX asr klassik falsafasi va adabiyotining ijtimoiy voqelikka noilmiy munosabati sotsiologiyaning fan sifatida shakllanishini taqozo etdi. XIX asr boshlaridan u falsafadan ajralib chiqish imkoniga ega bo‘ldi. Ushbu asrning 30-yillarida fransuz faylasufi Ogyust Kont «sotsiologiya» atamasini fanga kiritdi. U «Sotsiologiya» fanining asoschisi hisoblanadi. O.Kontning fikricha, sotsiologiya bir butun organizm hisoblangan jamiyat haqidagi barcha bilimlarni birlashtirish va dalillarni izchil o‘rganish orqali unga ilmiy asos berishi kerak.

Shuning uchun ham, sotsiologiya o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

- jamiyatni bir butun tizim sifatida o‘rganish;
- jamiyatni ilmiy vositalar yordamida o‘rganish;
- ijtimoiy munosabatlarni o‘rganish.

Demak, sotsiologiya jamiyat to‘g‘risidagi fan bo‘lib, ijtimoiy munosabatlar, ularning amal etish qonuniyatları, hamda istiqbollarini o‘rganadi. Ayni paytda, sotsiologiya jamiyatdagi me’yoriy va patologik holatlarni aniqlaydi, natijada insoniyatni noxush holatlar, qiyinchiliklardan qutulish yo‘llarini ko‘rsatadi. XIX asrda sotsiologiya sotsial gigiyena deb ham tushunilgan.

Respublikamizning mustaqillikka erishuvi, milliy istiqlol yo‘lidan izchil borayotganligimiz, rivojlanish tendensiyasida O‘zbekistonning o‘ziga xos va mos besh ustuvor tamoyilga asoslanib, harakat qilayotganligi, xususan:

- iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi va bunda iqtisodiyotning mafkurdan holi bo‘lishi;
- hozirgi vaziyatda davlat jamiyatning bosh islohotchisi rolini o‘ynashi;
- qonun hamma joyda hamma narsadan ustun turishi;
- mamlakatimizda istiqomat qiluvchi turli millatlar va ijtimoiy guruhlar manfaatlarini hisobga olib, insonparvarlik bilan yo‘g‘rilgan kuchli ijtimoiy siyosat o‘tkazish lozimligi;
- bozor iqtisodiyotiga sobitqadamlik bilan bosqichma-bosqich, tadrijiy rivojlanish tamoyiliga izchil rioya etish orqali o‘ta borish, bugungi kunda jamiyatimiz turli jabhalarini atroflicha o‘rganib borish ijtimoiy voqeilikdagi fikr rivoji va uni maqsadli boshqarish masalalarini kun tartibiga qo‘yadi.

Sotsiologiya fani jamiyatda quyidagi o‘rinni egallaydi:

1. Sotsiologik tafakkur jamiyatni yaxlit tizim sifatida o‘z qonuniyatlari yordamida faoliyat ko‘rsatgani va rivojlanishini o‘rganadi, ijtimoiy elementlarning umumiyligini sotsial tizimdan mustaqil holda harakat qilishini inkor etadi.
2. Real mavjud ijtimoiy munosabatlarni konkret o‘rganishni nazariy va amaliy jihatdan asoslaydi.
3. Voqelikni o‘rganishda amaliy usullarga tayanadi, ilmiy-amaliy asoslangan xulosalarni ilgari suradi.

Demak, sotsiologiya jamiyatni dalillarni tahlil va ilmiy umumlashmalar orqali emas, balki mavhum tarzda o‘rganuvchi falsafadan, shuningdek, ijtimoiy xulq-atvor va o‘zaro ta’sirning tipik guruhiy emas, balki individual namoyon bo‘lishida o‘rganuvchi psixologiyadan farq qiladi.

Bugungi kunda ikki xil – akademik sotsiologiya (jamiyat haqidagi umumnazariy tizim) va amaliy sotsiologiya (aniq ijtimoiy voqealari va dalillarni o‘rganish uchun ilmiy apparat) shakllandi. XX asrning ikkinchi yaridan mana shu ikki xil sotsiologiya uyg‘unlashib, birlashib, ayrim olinigan hodisa va jarayonlarning rivojlanishini aniq dalillarni nazariy umumlashtirish usuli yordamida bayon etish nazariyasini vujudga keldi.

AQShlik sotsiolog J.Smelzer o‘zining «Sotsiologiya» darsligida «Sotsiologiya – jamiyat to‘g‘risidaga fan» ekanligini ta’kidlaydi. O.Kont esa sotsiologiyani «jamiyat to‘g‘risidagi pozitiv fan», deb baholaydi. Fransuz mutafakkiri E.Dyurkgeym esa «Sotsiologiyaning predmeti – ijtimoiy faktlardan iborat» deb bilgan.

Nemis sotsiologi G.Zimmel ta’rificha, «Sotsiologiya xususiy ijtimoiy fanlarning bilish nazariyasidir». Nemis sotsiologi M.Veberning fikricha

«Sotsiologiya ijtimoiy xulq-atvor to‘g‘risidagi fandir». U ijtimoiy xulq-atvorni insoniy munosabatlardan iborat, deb bilgan. Insoniy xulq-atvor esa ijtimoiy mohiyatga ega.

Rus sotsiologi P.Sorokin esa ushbu fanning predmeti – «jamiyat yoki ijtimoiy hodisalardan iborat», deb hisoblaydi. V.Yadovning fikricha esa Sotsiologiya jamiyatning bir butun organizm ekanligini, ijtimoiy munosabatlarning bir butunligini o‘rganadi. Sotsiolog G.Osipov «Sotsiologiya» deb nomlangan o‘quv qo‘llanmasida «Sotsiologiya ijtimoiy tizimlarning faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishi to‘g‘risidagi, umumiy va o‘ziga xos ijtimoiy qonun hamda qonuniyatlarning shaxs, ijtimoiy birliklar, sinflar, xalqlar faoliyatida vujudga kelish va amal qilish shakllari to‘g‘risidagi fan», deb ta’riflagan.

Demak, sotsiologiya inson hayot faoliyati yoki ijtimoiy tashkilotlarning hamkorlikdagi shakllarini o‘rganuvchi va inson hamjamiyatining rivojlanishi hamda xulq-atvori to‘g‘risidagi fandir.

Xulosa qilib aytganda, sotsiologiyaning obyekti uning nimani o‘rganishi kerak, degan savolga javob bersa, predmeti o‘sha obyektning qay ji-hatlarini o‘rganadi, degan savolga javob beradi. Sotsiologiyaiing **obyektini** jamiyatni boshqaruvchi tafakkur qonuniyatlar, ratsional vositalari tashkil etadi.

Sotsiologiya ijtimoiy hayot jarayonlarini uch bosqichda o‘rganadi:

- 1) aniq-empirik;
- 2) maxsus;
- 3) umumiy.

Shunga muvofiq ravishda sotsiologiya empirik, maxsus va umumsotsiologik tadqiqot jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Sotsiologiyaning vazifasi jamiyat taraqqiyotini ta’minlaydigan eng qulay variantlarni, ijtimoiy madaniy modellarini topishdan iborat. Bular jamiyat va insonning o‘z-o‘zini takomillashtirishga qaratilgan qonuniyatlardir.

Sotsiologiyaning vazifasi, shuningdek, murakkab ijtimoiy dunyoni tashkil etuvchi o‘zaro birikib harakat qiluvchi tuzilma va mexanizmlar mohiyatini aniqlashdan hamda ularning rivojlanish tendensiyalarini belgilashdan iborat.

Sotsiologiyaning *tadqiqot predmeti* tarkibiy tuzilish jihatidan quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Umumiy sotsiologiya – turli sotsial tizimlarda uchrab turadigan ijtimoiy hayotga oid me’yorlarni, bu tizimlarning yashash tarzi va taraqqiyotining eng umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi.

2. Maxsus sotsiologiya – ijtimoiy faoliyatning alohida sohalarini ko‘p omilli tizim sifatida tadqiq etadi. Maxsus sotsiologiyaning bir qancha tarmoqlari bor: 1) industrial sotsiologiya; 2) shahar sotsiologiyasi; 3) demografik sotsiologiyasi va b.

3. Bevosita empirik sotsiologik tadqiqotlar – tadqiq qilinayotgan hodisalar, individlar bilan bevosita aloqa va ularning hayot faoliyatlaridagi faktlar to‘plami bo‘lib, so‘roq, kuzatuv, eksperiment va hujjatlarini o‘rganish usullarini tajriba yordamida bilishdir.

Sotsiologlar jamiyatni makro va mikro darajadan o‘rganadi.

**Mikrosotsiologiya** – sotsiologiyada nisbatan katta bo‘lмаган ijtimoiy tizimlardagi ijtimoiy hodisalar va jarayonlarni tahlil qilishga haratilgan, alohida olingan hodisalarning mikrodarajadagi (kichik) jarayonlar bilan aloqasini individlar, kishilar xulq-atvorini shaxslararo o‘zaro ta’sirda o‘rganadi.

**Makrosotsiologiya** – katta ijtimoiy guruhrilar va tizimlarni (masalan, jamiyat, sivilizatsiya va hokazo) jarayonlarni, harakatlarni va hodisalarni, shuningdek, guruhrilar faoliyatini uzoq muddat davomida o‘rganadi. Bunda asosiy e’tibor har qanday jamiyat mohiyatini tushunishga yordam beruvchi xulq-atvor modeliga qaratiladi. Ushbu model yoki tarkiblar oila, ta’lim, din, iqtisodiy va asosiy tuzum kabi ijtimoiy institutlarni tashkil etadi. Makrosotsiologiya jamiyatning turli qismlari orasidagi o‘zaro aloqa va ularning o‘zgarish dinamikasini o‘rganadi.

Sotsiologiya katta amaliy ahamiyatga ega. Amaliy sotsial islohotlar bir necha yo‘nalishda boradi. Ular, birinchidan, ijtimoiy vaziyatni to‘g‘ri tushunish, uni nazorat qilishga imkon beradi; ikkinchidan, sotsiologiya har qanday vaziyatda madaniy qadriyatlar orasidagi tafovutni baholashga sharoit yaratadi, bizning dunyoni madaniy qabul qilishimizni o‘stiradi; uchinchidan, biz o‘zimizning muayyan siyosiy dasturlar qabul qilish (qasddan, o‘ylab, o‘ylamasdan shoshma-shosharlik bilam) faoliyatimizga baho bera olamiz; to‘rtinchidan sotsiologiya insonning o‘z-o‘zini bilishiga, o‘rganishiga yordam beradi, individlar va guruhlarga o‘z yashash sharoitlarini o‘zgartirishga imkon yaratadi.

## **1.2. Sotsiologiyaning tadqiqot usullari va uslubiyati**

Ma’lumki, usul bilimga erishish, axborot olish va voqelikni tubdan o‘zgartirish vositasi, maqsadga erishish yo‘li, muayyan tarzda tartibga solingan faoliyat hisoblanadi. Usul bilish vositasi sifatida o‘rganilayotgan obyektni tafakkurda qayta hosil qiladi.

Ijtimoiy reallik haqida ma’lumot olish usuli oxir-oqibatda insonning

dunyoqarashi, fikri, baholari «yoshi», «daromadi», «oilaviy sharoiti», «kasbi» bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham, sotsiologik bilish tadqiqot «obyekti»ning subyektivligini, tadqiqotchining obyektni tahlil qilishdagi obyektivligini ham e’tiborga oladi. Sotsiologiyada obyektivlik va subyektivlikning o‘zaro bog‘liqligi o‘ziga xos xarakterga ega, ya’ni, bilish jamiyatni tahlil qilish darajasiga, turli soha xususiyatlarga, ichki va tashqi voqealar, kuzatilayotgan va kuzatilmayotgan jarayonlarga bog‘liq.

Uslubiyat muayyan fanda tadqiq, etiladigan tadqiqot usullarining majmuyidir. Sotsiologik bilishning har qanday darajasida tadqiqotning o‘z uslubiyati mavjud. **Empirik darajada** tadqiq etilayotgan sotsial voqelik to‘g‘risida aniq haqqoniy ma’lumot olish maqsadida mantiqan izchil bo‘lgan usullarni, uslubiy va tashkiliy-texnik ishlarni o‘zida ifoda etgan sotsiologik tadqiqotlar o‘tkaziladi.

**Nazariy darajada** sotsiologlar sotsial reallikni bir butunlik – yo jamiyatni tizim sifatida, yoki insonni ijtimoiy xatti-harakat subyekti sifatida tushunadilar.

**Nazariy usullar.** Sotsiologiyada struktur-funksional usul katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu usul nuqtayi nazaridan jamiyatga barqarorlikka ega bo‘lgan funksional tizim sifatida qaraladi. Bu barqarorlik qayta ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash hisobiga ta’minlanadi. Struktur funksional munosabat sotsial tizimlar-funksional faoliyatning umumiyligi, universal qonuniyatlarini o‘rnativishga imkon beradi. Har qanday ijtimoiy institut yoki tashkilot – davlat, partiya, kasaba uyushmasi kabilar tizim sifatida qaralishi mumkin.

Struktur funksional munosabat quyidagi xususiyatlarga ega:

- ijtimoiy strukturaning faoliyat ko‘rsatishi va qayta ishlab chiqarish bilan bog‘liq muammolar kishining diqqat markazida bo‘ladi;
- struktura har tomonlama integratsiyalashgan va uyg‘unlashgan tizim sifatida tushuniladi;
- ijtimoiy institutlar funksiyasi integratsiyaga munosabat yoki ijtimoiy strukturaning muvozanatiga ko‘ra belgilanadi;
- sotsial struktura dinamikasi «konsensus prinsipi» ijtimoiy muvozanating saqlanishi prinsipidan kelib chiqib izohlanadi.

**Qiyosiy usul** ijtimoiy xulq-atvor namoyon bo‘lishining umumiyligi qonuniyatlariga tayanadi, chunki turli xalqlarning ijtimoiy hayot, madaniyat, siyosiy tizimida umumiyligi tomonlar ko‘p. Qiyosiy usul bir turdagisi ijtimoiy voqelik, ya’ni ijtimoiy struktura, davlat tuzilishi, oila shakli, hokimiyat, an‘analar va boshqalarni solishtirib, taqqoslab ko‘radi. Qiyosiy usulni qo‘l-

lash tadqiqot doirasini kengaytiradi, boshqa mamlakat va xalqlar tajribasidan foydalanishga imkon beradi.

Sotsiologik tadqiqot usullari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- 1) gipotezani ilgari surish va tekshirish;
- 2) axborotni tahlil qilish;
- 3) sotsiologik so‘rov;
- 4) sotsiologik kuzatish va eksperiment.

**Gipotezani ilgari surish va tekshirish.** Sotsiologik tadqiqotda gipoteza bu ijtimoiy obyektlar strukturasi, shu obyektni tashkil etgan elementlar va aloqalar xarakteri, ular faoliyati hamda rivojlanishining mexanizmi to‘g‘risida asosli ilmiy taxmindir.

Ilmiy gipoteza tadqiqot obyektini oldindan tahlil qilish natijasidagina shakllanadi.

Gipotezaning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riliгини belgilash jarayoni sotsiologik tadqiqot paytida uni tekshirish va empirik asoslash jarayoni hisoblanadi. Gipotezani bunday tekshirish natijasida nazariyalar yo tasdiqlanadi, yoki inkor qilinadi.

**Axborotlarni tahlil qilish.** Sotsiologga kerak bo‘lgan axborot avvalari biror joyda tartibsiz yoki bir tizimga solingan shaklda hujjat tarzida qayd etilgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun tadqiqotchilar hujjatlarni tahlil etishning quyidagi usullaridan foydalanadilar:

- 1) hujjatlarning sifat tahlili («Muammoli» qidiruv, tematik umumlashev);
- 2) hujjatlarning miqdoriy tahlili (kontent-analiz).

Tadqiqotchi o‘z manfaatlari va qo‘yilgan vazifaning yo‘nalishiga bog‘liq ravishda rasmiy axborotni – hujjatlar, dalillar, rasmiy statistika va boshqalarni tahlil qiladi, keyin ekspertlar, respondentlarning subyektiv baho hamda fikrlarini o‘rganib, ularni to‘ldiradi.

**Sotsiologik so‘rov.** Dastlabki axborot olishning eng keng tarqalgan usuli so‘rov hisoblanadi. Uning yordamida barcha sotsiologik ma’lumotlarning 90% i olinadi. So‘rov har doim bevosita ishtirokchiga murojaatni taqozo etadi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuzatish qiyin bo‘lgan jarayonga qaratiladi. Shuning uchun ham, so‘rov ma’lum bir sharoitda, vaziyatga begona ko‘zdan chetda bo‘ladigan ijtimoiy, jamoa va shaxsiy munosabatlarni o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

So‘rov o‘tkazish aniq ma’lumot beradi. Tanlov asosida so‘rov o‘tkazish tejamli bo‘lsa ham ma’lumotlar nisbatan noaniqroq bo‘ladi Agar barcha aholi yoki uning o‘rganilayotgan bir qismi asosiy va umumiylaj-

muyi deb olinsa, tanlov asosida so‘rov o‘tkaziladiganlar uning aniq, kich-raytirilgan nusxasidir. Bunda xato yoki farq bir necha foizdan oshmaydi.

Demak, tanlab olingen majmuyi asosiy tadqiqot obyektining aniq nusxasi bo‘lishi kerak. Originaldan chetga og‘ish reprezentativlik xatosi deyladi. Reprezentativlik xatosi juda katta bo‘lmasligi lozim, aks holda, sotsiolog tadqiqot natijalarini e’lon qilmasligi kerak bo‘ladi. Reprezentatsiya qilish tanlab olingen (guruh, element) lar yordamida asosiy va umumiyyatini aniq aks ettirishi talab etiladi. Matematik statistika sotsiologlarni bu borada eng zamonaviy usullar bilan qurollantirdi. Bu yerda muhim shuki, sotsiolog kim asosiy majmuuning tipik namoyandasini hisoblanishini aniqlash va barcha odamlar tanlov guruhiga tushish imkoniga ega bo‘lishiga erishishi lozim. Kim so‘rov qilinishini tasodif va matematika hal qiladi.

Tanlov asosida tadqiqot o‘tkazish sotsiologiyaning anketa so‘rovi, intervyyu, kuzatish, eksperiment, hujjatlar tahlili kabi usullarining asosini tashkil etadi.

Sotsiologik so‘rovning quyidagi ko‘rinishlari mavjud:

- anketa to‘ldirish;
- intervyyu.

Anketa to‘ldirishda so‘roq qilinuvchi savolnomani to‘ldiradi. Bu usul o‘z shakliga ko‘ra individual yoki guruhli bo‘lishi mumkin.

**Sotsiologik kuzatish va eksperiment.** Tadqiqot obyektini kuzatish hujjatli ma'lumotlarni yig‘ish shaklidagina emas, maxsus vizual marosim (protsedura) shaklida ham bo‘lishi mumkin. U ijtimoiy faktni amalga oshirish paytida malakali qayd etish imkoniyatini beradi, jarayonning o‘ziga xos nozik tomonlarini e’tiborga oladi. Bevosita kuzatish kuzatuvchining obyekt bilan aloqa qilish darajasiga ko‘ra farqlanadi.

O‘rganilayotgan vaziyatning kuzatuvchisi roliga qarab, 4 turini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- 1) kuzatuvchining vaziyatda to‘la ishtirok etishi;
- 2) vaziyat ishtirokchisi kuzatuvchi sifatida namoyon bo‘ladi;
- 3) kuzatuvchi ishtirokchi sifatida faoliyat ko‘rsatadi;
- 4) kuzatuvchi jarayonda ishtirok etmaydi.

Vaziyatda to‘la ishtirok etish kuzatuvchini guruhnинг to‘la a’zosi sifatida bo‘lishini taqozo etadi. Bunda kuzatuvchining rolini guruh a’zolari bilmaydi. Misol sifatida G.Vamberining O‘rtta Osiyoga sayohati, U.Uaytning italyan immigrantlari hayotini o‘rganish uchun 3 yil ular bilan yashagani kabi dalillarni keltirishimiz mumkin. Ushbu usul

qator xususiyatlarga ega: tadqiqotning birinchi bosqichida muammo qo‘yiladi, tadqiqot gipotezasi ilgari suriladi, natijalar yakunlanadi. Tatqiqot obyekti hayotiga kirib borish natijasida kuzatuvchi subyektivizmga berilishi mumkin, oqibatda voqealarga baho berishda simpatiya yoki antipatiya ham ma’lum rol o‘ynaydi.

Ochiqdan-ochiq kuzatish yashirinchada kuzatishdan ko‘ra qator afzalliklarga ega: kuzatuvchi tadqiqot vaziyatiga osonlik bilan kiradi; kuzatilayotgan jamoa kuzatuvchiga tez moslashadi, ijobjiy munosabat paydo bo‘lganda unga ma’lumot yig‘ishda yordam ham beradi.

Eksperiment ijtimoiy bilishda o‘ziga xos holda amalga oshiriladi, chunki inson, uning ruhiyati ustida, shuningdek, jamiyat hayotida keng miqyosda eksperiment bo‘lishi mumkin emas. Shunday bo‘lsa-da, mehnat sotsiologiyasi doirasida u tez-tez uchrab turadi, bunda faktlar, o‘zgarishlar qiyoslanadi.

### **1.3. Sotsiologiya va ijtimoiy-gumanitar fanlar**

Ijtimoiy hayot masalalarini o‘rganish doirasi kengayib borar ekan, sotsiologiya fanining o‘rganish obyekti ham kengayib, chuqurlashib bormoqda. Sotsiologyaning keyingi yillarda «Fanlar sotsiologiyasi», «Madaniyat sotsiologiyasi», «Boshqaruv sotsiologiyasi» kabi sohalari shakllandi. Bozor munosabatlari tarkib topa borishi bilan sotsiologyaning iqtisodiyot, falsafa, huquq fanlari, etika, psixologiya, pedagojika, tarix, ekologiya kabi fanlar bilan aloqadorligi ortib bormoqda.

Mamlakatimizda sotsiologiya fanining taraqqiy etishida milliy istiqlol g‘oyasining mazmun-mohiyati muhim dastur vazifasini o‘taydi. Milliy istiqlol g‘oyasi sotsiolotaya fanining rivojlanishida mamlakatimiz Konstitutsiyasi milliy va umuminsoniy qadriyatları, demokratik tamoyillarga tayanadi, xalqimizning yuksak ma’naviyati, o‘lmas merosi, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta’minalashga xizmat qilishga harakat qiladi.

Shuningdek, milliy istiqlol g‘oyasi sotsiologiya fanining umuminsoniy va milliy tamoyillar doirasida tili va dinidan qat’iy nazar, har bir fuqaro qalbida ona Vatanga muhabbat, mustaqillik g‘oyalariga sadoqat va o‘zaro hurmat tuyg‘ularini qaror toptirish yo‘nalishida ilmiy izlanishlar olib borishni muqaddas vazifalar sifatida kun tartibiga qo‘ydi.

Sotsiologyaning iqtisodiyot fanlari bilan aloqadorligi moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash, iste’mol jarayonlarini o‘rganishda ko‘rinadi. Iqtisodiyot sotsiologiyasi iqtisodiy ta’sirni ijtimoiy ta’sir

shakli sifatida o‘rganadi. Iqtisodiyot sotsiologiyasi iqtisodiyot fanlari bilan bog‘liq bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonida bo‘ladigan munosabatlarni o‘rganadi. Iqtisodiy nazariyaning ilmiy g‘oyalari iqtisodiy sotsiologiya uchun uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Sotsiologiya fani falsafa bilan ham uzviy bog‘liq. Falsafaning qonun va kategoriyalari bevosita umumsotsiologik nazariya va konsepsiyalarni o‘z ichiga oladi hamda sotsiologik nazariyalar uchun nazariy va metodologik asos bo‘ladi. Umumsotsiologik va maxsus sotsiologik nazariyalarning rivojlanishi, o‘z navbatida, muayyan davrdagi ijtimoiy fikrlarni shakllantiradi, unga nazariy va amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi. Sotsiologik tadqiqotlar empirik ma’lumotlar yordamida ijtimoiy taraqqiyotni chuqur tahlil qilishga yordam beradi.

Psixologiya ham sotsiologiya kabi inson faoliyatini o‘rganadi, faqat psixologiya ayrim individ faoliyatiga e’tibor beradi. Sotsial psixologiya esa ham sotsiologiya, ham psixologyaning bir qismi sifatida individning guruhdagi faoliyatini o‘rganadi. Uning markaziy tushunchasi bo‘lgan «Men» inson guruhining ijtimoiylashgan shaxsini anglatadi.

Siyosiy fan insonning o‘z-o‘zini qanday boshqarishini tadqiq etadi. Urasmiy siyosiy tashkilotlar va unda shakllanadigan siyosiy xatti-harakatlar, shuningdek, hokimiyat falsafasi, jamiyatning ijtimoiy strukturasini o‘rganadi. Sotsiologiya siyosatshunoslik uchun jamiyatda mavjud bo‘lgan guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarga doir ko‘plab ma’lumotlarni to‘playdi.

Sotsiologiya va tarix fanlari jamiyat hayotini tadqiq etishga izchil yondashadi. Tarixchi faqat ishonarli ma’lumotlarni tanlar ekan, u o‘tmish xulq-atvor va noyob voqealar bilan ish ko‘radi. Tarixiy faktlarni to‘plashda tarixchi sotsiologiya usullaridan ham keng foydalanadi

Shunday qilib, xususiy va umumiyy sotsiologik fanlardan iborat bo‘lgan zamонавиyy sotsiologiya barcha ijtimoiy fanlar bilan bog‘liq sotsiologiya ijtimoiy gumanitar fanlar iyerarxiyasida eng yuqori bosqichni egallaydi. Falsafa va tarix bilan birgalikda, u ijtimoiy fanlar tizimining umumuslubiy negizini shakllantiradi.

## Tayanch so‘z va iboralar

**Sotsiologiya** – yaxlit tizim sifatidagi jamiyat, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy guruhlar, jamiyat tuzilmalari hamda ijtimoiy munosabatlarni o‘rganuvchi fan;

**Jamiyat** – insonlarning o‘zaro harakati uslubi va bir-biriga har tomonlama bog‘liqligini ifodalovchi birlashmalar yig‘indisi;

**Ijtimoiy guruh** – individlar majmuyi;

**Ijtimoiy jarayon** – ijtimoiy o‘zgarishlar, inson xatti-harakati holating majmuyi;

**Ijtimoiy munosabatlar** – individlar, ijtimoiy guruhhlararo vujudga keladigan munosabatlar;

**Sotsiologik usul** – jamiyat va ijtimoiy munosabatlarni o‘rganish vositasi

### **Savollar va topshiriqlar**

- 1.Sotsiologiya atamasining ta’rifi, obyekti va predmetini bilasizmi?
- 2.Sotsiologiya fanining asosiy yo‘nalishlarini aytib bering.
- 3.Sotsiologiya fanining tadqiqot usullari va uslubi nima?
- 4.Sotsiologiya fanining umumiy tasnifi qanday?
- 5.Sotsiologiya fanining tarkibi nimadan iborat?
- 6.Sotsiologiyaning ijtimoiy-gumanitar fanlar tarkibidagi o‘rni haqida gapirib bering.

## **2-bob. SOTSILOGIYANING VUJUDGA KELISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI**

### **2.1. Sotsiologiya fanining vujudga kelishi va uning nazariy-amaliy manbalari**

Sotsiologiya mustaqil fan sifatida XVIII asrdagina G‘arbiy Yevropada paydo bo‘lgan bo‘lsa ham uning ildizlari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Odamzod har doim o‘z xatti-harakatining sabablari bilan qiziqqan, ularni yuzaga chiqaruvchi omillarni o‘rgangan. Shuning uchun ham, eng qadimgi falsafiy tizimlar ijtimoiy hayotni va tarixiy taraqqiyot tendensiyalarini o‘ziga xos holda tushuntiradigan biron-bir ijtimoiy falsafani o‘z ichiga oladi.

Lekin, ming yillar davomida bu urinishlar tafakkurning avloddan avlodga o‘tib kelayotgan va diniy tushunchalarga tayangan an’anaviy usullariga asoslanadi. Inson xatti-harakati hamda kishilik jamiyatini muttasil ravishda bir tizimga solib o‘rganish asosan keyingi 200-300 yillar ichidagi yutuqlardan biridir.

«Sotsiologiya» atamasini fanda birinchi bo‘lib fransuz faylasufi Ogyust Kont 1839-yilda qo‘lladi. Uning fikricha, sotsiologiya bir butun organizm deb hisoblangan jamiyat haqidagi bilimlarni birlashtirishi va ularni dalillarni o‘rganish orqali ilmiy asoslashi lozim. Sotsiologyaning fan sifatida rivojlanishini, albatta, sotsiologiya so‘zining kashf etilishi bilan bog‘lash to‘g‘ri emas. Aniqrog‘i, sotsiologyaning mustaqil fan sifatida vujudga kelishi Yevropada «jamiyat» so‘zining keng miqyosda qo‘llanilishi, uning nazariy asoslarining ishlab chiqilishi bilan bog‘liq. XVIII asrda avtonom fan sifatida tarix falsafasi, jamiyat taraqqiyoti qonunlarini va xarakterlanuvchi kuchlarini o‘rganishga bag‘ishlangan edi.

Sotsiologiya o‘z oldiga ikki asosiy vazifani qo‘yadi:

- jamiyatni bir butun tizim sifatida o‘rganish;
- jamiyatni pozitiv (ilmiy-vositaviy) usullar yordamida o‘rganish.

Sotsiologiya fani jamiyatni dalillar tahlili va ilmiy umumlashmalar orqali emas, balki mavhum muhokama qiluvchi falsafadan farq qiladi.

Shuningdek, ijtimoiy xulq-atvor va o‘zaro munosabatlarning tipik guruhiy namoyon bo‘lishi bilan emas, individlar xulq-atvorini o‘rganuvchi psixologiyadan ham farqlanadi.

Ijtimoiy hayotning murakkablashuvi va ilmiy bilimning tabaqlanishi sotsiologyaning falsafadan ajralib, mustaqil fanga aylanishini muqarrar qilib qo‘yadi. Sotsiologiya ijtimoiy munosabatlarni nazariy tahlil qilishni ijtimoiy (sotsial) dalillarni empirik tadqiq qilish bilan qo‘sib olib boruvchi

mustaqil fanga aylandi. XVIII asrda vujudga kelgan turli ijtimoiy qarashlar ijtimoiy hayot tarkibini, shu bilan ijtimoiy hodisalarning, guruh va individning o‘zaro aloqadorligini nazariy tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Sotsiologiya XVIII asrda ma’rifatparvarlik g‘oyalari asosida, shu bilan birga fransuz revolutsiyasiga javob tariqasida vujudga keldi. U muayyan vaqt va jamiyatning mahsuli bo‘lib, keyinchalik ijtimoiy voqelikka o‘zi ham ta’sir ko‘rsata boshladi. Sotsiologiya o‘z davridagi ma’naviy va siyosiy oqimlar bilan bog‘liq bo‘lsa ham, ijtimoiy fikr faqatgina sotsiologiyada ifodalanib qolmagan. Ko‘plab mutafakkirlarning o‘zlarini sotsiolog deb hisoblamaganliklari bundan dalolat beradi.

XIX asrga kelib, sotsiologiya so‘zini ijtimoiy tartib haqidagi masalani intellektual asoslash muammosi bilan boglaganlar. Sotsiologiya fani ijtimoiy tartib haqidagi savolga javob tariqasida vujudga keldi Ijtimoiy hayot haqida yangi maxsus fan paydo bo‘lgan bo‘lsa, o‘zini «sotsiologiya» deb hisoblagan, ayni paytda, ijtimoiy muammolarni turli tomondan o‘rganayotgan qator sohalar mavjud edi. Hozirgi paytda sotsiologiya muammolari doirasi kengaydi, yo‘nalish yoki paradigma deb nom olgan ko‘plab muqobil munosabatlар vujudga keldi.

XXasrning 20-yillaridan jahon sotsiologiyasining markazi G‘arbiy Yevropadan AQShga ko‘chdi va faoliyati rasmiy tus oldi. AQShda sotsiologiya fani oliy o‘quv yurtlarida o‘rganila boshlandi. 1892-yilda Chikago universitetida jahonda birinchi Sotsiologiya kafedrasi va fakulteti ish boshladi. 1901-yildan boshlab oliy o‘quv yurtlarida sotsiologiya fan sifatida o‘qitildi. AQShdagi sotsiologiyaning taraqqiyoti yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga o‘tish jarayonini tezlashtirdi.

Sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishini quyidagi shart-sharoitlar bilan bog‘lash mumkin:

1) o‘z ratsionalligiga ega bo‘lgan, Shuning uchun ham, siyosiy-institutsional tartibi mavjud bo‘lgan davlatga bo‘ysunavermaydigan, ko‘pincha unga qarama-qarshi turuvchi va mustaqil hisoblangan tabiiy-ijtimoiy tartib g‘oyasi bilan;

2) bozor iqtisodiyotining rivojlanishi bilan;

3) narsalar va hodisalarni ular rivojlanishida, ularni belgilovchi aniq tarixiy shart-sharoit bilan aloqadorligida bilish g‘oyasi bilan;

4) fan va ilmiy progress zamonaviy konsepsiyasining ishlab chiqilishi bilan.

Shunday qilib, sotsiologiya fani atigi bir asr muqaddam falsafadan ajralib, mustaqil fan sifatida taraqqiy etgan bo‘lsa-da, ularning aloqasi uzviydir. Falsafa sotsiologiyaning nazariy-uslubiy asosini tashkil etadi.

## **2.2. Qadim Turon va Movarounnahrdagi ijtimoiy-sotsiologik qarashlar**

Ma'lumki, sotsiologiya fani rasman G'arbiy Yevropada yuzaga kelgan bo'lsa-da, uning ildizlari sharqqa borib taqaladi. Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi mazmunini xalqimizning tarixiy, ma'naviy qadriyatlari sanalmish Qur'oni Karim, Hadisi sharif sharqning ulug' allomalari Farobiy, Ibn Sino, Hazrati Bahouddin Naqshbandiy, At-Termizi, Imom Al-Buxoriy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy va boshqa ulug' mutafakkirlar asarlariда ilgari surilgan fikrlar tashkil etadi.

Sharq xalqlarining hayotga bo'lgan ijtimoiy qarashlari mohiyat e'tiboriga ko'ra g'arb sotsiologlarining ijtimoiy yondashuvlaridan farq qiladi. Qadimgi sharq kishisi uchun o'zlikni anglash, ma'naviy komillikka erishish, ozodlik tushunchasi moddiy borliqdan voz kechish, tashqi dunyo tashvishlarini inkor etish, o'zlikda sokinlik topishga intilish harakatlaridan iboratdir.

Qadim Sharq falsafasi, uning teologik asoslari qadimgi Movarounnahr hududida yashovchi xalqlarning ijtimoiy jarayonlarga munosabatlari va fikrlash tarziga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatgan. Xususan, o'zbek xalqi va uning boy ma'naviyatining shakllanishida islom dinining kirib kelishi va uning xalq tomonidan qabul qilinishi o'ziga xos hodisa bo'ldi. O'zbek xalqi ham Islom diniga o'z milliy xususiyatlari urf-odatlari, turmush tarzi, an'analari bilan kirib keldi. Bu esa qabul qilingan islom teologiyasi nazarriyasiga tegishli aniqliklar va tadrijiy o'zgartirishlar kiritilishini taqozo eta boshladi.

Movarounnahr jamoatchilik fikri tarixini o'rganishda *Abu Mansur al-Moturudiyning o'rni* beqiyosdir. Uning asarlariga nafaqat dinshunoslik, balki jamiyat, jamoa, ijtimoiy jarayonlar va xususan, shaxs haqidagi ta'limot sifatida yondashish, ularni Movarounnahr xalqlari hayoti tarzi mentalitetiga muvofiq keluvchi, g'oyaviy, e'tiqodiy yakdillikka undovchi yaxlit ilmiy sotsiologik konsepsiya sifatida baholash va har tomonlama o'rganish maqsadga muvofiq.

Al-Moturidiy qarashlari oqilona me'yor, inson sha'ni, mavqeyiga mos keluvchi nazariyadir. Inson shaxsi va mavqeyi masalasi, uni turli ijtimoiy-siyosiy, kerak bo'lsa, diniy tazyiqlardan himoya qiluvchi Al-Moturidiyning murosaviy muvozanat konsepsiyasini, islomni anglash jarayonlaridagi ijobiy jihatlar yig'indisiga emas, balki Movarounnahrdagi real ijtimoiy-siyosiy muhit, xalq turmush tarzi, mentaliteti, boy madaniy tarixiy

tajribasi bilan boyitilgan insoniy yondashuvlar sintezi, deb baholash maqsadga muvofiqdir. Al-Moturidiy jamaoa va jamiyatning voqelik mohiyatini ramzlarda talqin etishga diqqatini qaratadi.

Movarounnahrda tabiat va jamiyatni sotsiologik aiglash va o‘rganish ulug‘ mutafakkir *Abu Nasr Forobi*y tomonidan kengaytirildi. U o‘zining «Fozil odamlar shahri» asarida insondagi insoniylik mohiyati o‘zlikni anglashdan boshlanishi, fozil shaxs voqeа va hodisalarning mohiyatini idrok eta bilishini, mohiyatga intilish haqni tanish ekanligini, insonga berilgan ruh aqlni rivojlantirishga, unga quvvat bag‘ishlashga mas’ul ilohiy kuch ekanligini, aql esa inson tomonidan narsalarni mohiyatan tanlab farqlashga ko‘mak berishini asoslab berdi.

Forobiy olamni anglashda vorisiylik omilining juda katta kuchga ega ekanligini alohida qayd etadi. Uning fikricha, inson barcha haqiqatlarni anglashga, tabiat va jamiyatning barcha siru asrорlarini tushunib, idrok eta olishga qodir emas. Shu boisdan u o‘zidan oldingi ajdodlari tomonidan bילדирган fikrlarni o‘zlashtirish, ilm-ma’rifat bobida yetuk donishmandlar fikriga ergashishi lozimligini alohida ta’kidlaydi. Forobiy jamiyatning boobro‘ shaxslari, olimlari, oqil kishilari ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchlaridir, deb hisoblaydi. Forobiy o‘sha paydayoq ijtimoiy fikrning ahamiyati katta ekanligini chuqur anglab, zamonaviy sotsiologiyada ko‘p qo‘llanuvchi ekspertlar, ya’ni o‘z davrining yetuk donishmandlari fikriga tayanib, ish tutish zarurligiga urg‘u beradi.

Ulug‘ bobokalonimiz *Abu Rayhon Beruniy* ham sotsiologiya nazariyasini rivojlantirish ishiga ulkan hissa qo‘shdi. Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» deb nomlangan qomusiy kitobini insoniyat tarixining o‘tgan 5 ming yilligi voqealari tahlili va sinteziga bag‘ishlangan mumtoz etnosotsiologik asar, deb baholash mumkin. Ushbu kitobda ulug‘ mutafakkir asar yozilishi jarayonida olib borgan sotsiologik tadqiqotlari, qo‘llagan usullari xususida so‘z yuritib, shunday yozgan:

«Mazkur asarni yozish asnosida o‘zimga ishonch hosil qildimki, aqliy narsalardan dalil keltirish, kuzatilgan narsalarga qiyos qilish yo‘li bilan haqiqiy ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin emas. Bunga faqat «kitob ahllari» va turli din arboblariga, shu (e’tiqodlarga amal qiluvchi har xil maslak va ishonch egalariga ergashish, ularning tushunchalarini asos tutish bilan belgilanadi. So‘ngra ularning isbot uchun keltirgan so‘z va e’tiqodlarini bir-biriga solishtirish bilan bilinadi». <sup>1</sup>

Abu Rayhon Beruniy dunyoning sotsiologik manzarasi evolutsion ja-

<sup>1</sup> Beruniy A.R. Tanlangan asarlar. Tom 1, 1968, 406-bet.

rayon natijasida tarkib topganligini alohida qayd etadi.

Ayni chog‘da, Beruniy olamni ijtimoiy taraqqiyotga olib keluvchi kuch ziddiyatlar emas, balki turli ijtimoiy darajadagi murosa va konsensus ekanligini uqtiradi. «Qarama-qarshiligi ravshan, ayon bo‘lgan narsaga qanday ishonib bo‘ladi»,<sup>2</sup> deb qarama-qarshiliklardan holi bo‘lgan jarayonlarda o‘zgarish ehtiyojini kuchayishiga ishora qiladi.

Beruniy sotsiologiyadagi ijtimoiy tabaqalanish haqida ham fikr yuritib, shunday deydi: «Tillarning turlicha bo‘lishiga sabab-odamlarning guruh-larga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli xohishlarni ifodalash uchun zarur bo‘lgan so‘zlarga ehtiyoj tug‘ilishidir. Uzoq zamonlar o‘tishi bilan haligi iboralar ko‘payib, yodda saqlanishi va takrorlanishi natijasida tarkib topib, tartibga tushgan».

Ulug‘ mutafakkir Abu Ali Ibn Sinoning ijtimoiy qarashlari o‘zining ilmiy teranligi, voqelikka hushyor baho berish xususiyati bilan ajralib turadi. Ibn Sino olamning barqaror amal qilishi jamiyat va tabiatning o‘z-o‘zini idora qilish, mustaqil boshqarish xususiyatining ishga tushishi va harakatlanishi bilan izohlanadi, deb hisoblaydi. Hamma narsaning yuz be-rishida taqdiri azalning roli, ilohiy hukmning mutlaqlashuvi g‘oyasiga qarshi chiqib, Ibn Sino dunyo kamoloti uchun jamiyat a’zolarining erkin faoliyatiga ham katta ehtiyoj borligini asoslab beradi.

Yusuf Xos Hojibning XI asrda yaratilgan «Qutadg‘u bilig» asari ham ijtimoiy qarashlarga boy. Bu kitob axloq-odob ta’lim va tarbiya hamda ma’naviy kamolotning yo‘l-yo‘riqlarini, usullarini, chora-tadbirlarini mu-jassamlashtirib, o‘zida jam qilgan buyuk qomusiy asardir.

Yusuf Xos Hojib jamiyat va tabiat borasidagi barcha bahslarni ta’lim atrofida olib borar ekan, o‘z davri, mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzum, ma’naviy-moddiy hayot jarayonlari xususida mufassal ma’lumotlar beradi. U o‘sha davrning turli ijtimoiy tabaqalari, toifalari va guruhlari, ularning turmush tarzi, rasm-rusumlari, qonun-qoidalari, hunar va kasb-korlari, jamiyatda tutgan mavqelari, davlat tuzumining qanday asoslarda quril-ganligi, har bir tabaqanining dunyoqarashi xususida atroficha sotsiologik asoslangan ma’lumotlarni o‘rtaga tashlaydi.

Yusuf Xos Hojib jamiyatning tom ma’nodagi kamoloti faqat ta’lim vositasida amalga oshadi, deb hisoblaydi. Dunyodagi barcha boyliklar mu-vaqqatdir, o‘tkinchidir, bilim boyligi qancha sarf etilsa, shuncha ko‘pa-yaveradi, deydi.

---

<sup>2</sup> Shu yerda, 44-bet.

### **2.3. XIX asr G‘arbiy Yevropadagi sotsiologik ta’limotlar tarixi**

Sotsiologiya fanining asoschisi fransuz Ogyust Kont (1798-1857) hisoblanadi. Kont sotsiologiyasi burjuazianing ma’naviy va siyosiy hukmronligi davrida vujudga keldi U o‘zida sanoat va fanning yuksalishini ifodalaydi, aql yordamida ijtimoiy nizolarni hal qilishga intiladi. Kont o‘z tadqiqotlari predmeti – jamiyatni ijtimoiy munosabatlarda tartib va taraqqiyot sohasida revolutsiyadan keyingi vaziyat bilan bog‘lagan. O‘sha davrda jamoatchilik antagonizm va ziddiyat deb hisoblagan tanglikni Kont bar-taraf etib, o‘z sotsiologiyasi bilan ikki qutbni — tartib va taraqqiyotni birlashtirmoqchi bo‘ladi. Tartib bo‘lmasa taraqqiyot anarxiyaga aylanadi. Pozitiv (ijobi) siyosatda tartib va progress bir tamoyilning ikki tomonidir.

Sotsiologiya, Kontning fikricha, ijtimoiy statistika (jamiyatda turg‘un bo‘lgan tuzilmalar) va ijtimoiy dinamika (ijtimoiy o‘zgaruvchanlik jarayoni) dan iborat.

Kontning izohicha, falsafa va sotsiologiyani pozitiv deb atashning sababi, ular fan ma’lumotlariga emas, balki ilmiy kuzatuvlarga asoslanadi. Pozitivizmda eng asosiy talab keraksiz tushunchalardan voz kechish hamda tabiiy-ilmiy qarashlarni isbotlovchi «pozitiv» (ijobi) ijtimoiy nazarivani yaratishdir.

Kont tabiatni bilish tarixini 3 bosqichga bo‘ldi: bu bosqichlardan har biri dunyoqarashning muayyan tipiga: teologik-harbiy hukmronlik; 2) metafizik-feodal hukmronlik; 3) pozitiv-sanoatsivilizatsiyasi turiga mos keladi. Birinchi, teologik pallada inson aqli hodisalarni, ilohiy kuchlarning ta’siri bilan izohlashga uringan. Kontning fikricha, metafizik dunyoqarash teologik dunyoqarashning o‘zgargan shaklidir. Metafizik dunyoqarashga ko‘ra barcha hodisalarning asosini abstrakt metafizik mohiyatlar tashkil etadi. Teologik va metafizik dunyoqarash o‘rniga «pozitiv metod» keladi va u absolut bilimlardan (materializm va obyektiv idealizm) voz kechishni talab qiladi.

Bu bosqichlar ketma-ketlikda keladi, shuning uchun ijtimoiy guruqlar orasidagi tengsizlik taraqqiyotning muayyan darajalari bilan bog‘liq bo‘ladi. Kont o‘zining uch hadli sxemasidan fanlarni turkumlash, tarixni bir tizimga solish uchun foydalanadi. Uning sotsiologik ta’limotining asosiy g‘oyasi – revolutsion yo‘l bilan o‘zgartirishni befoyda deb hisoblashdan iborat. Uning fikricha, kapitalizm insoniyat tarixining evolutsiyasini tugallaydi. Kont oliy xudoga sig‘inishni targ‘ib qilishni ijtimoiy uyg‘unlikni barqaror etish vositasi deb hisoblaydi.

Kontning xizmatlari shundaki, u sotsiologiya fani dasturlari va usullarini

ilmiy izlanishlar vositasi sifatida aniqlay oladi. Uning fikriga ko‘ra, sotsiologiyaning predmeti – bu ijtimoiy hodisalarning mohiyatidir. Jamiyat to‘g‘risidagi fanlar tabiiy fanlar metodologiyasiga tayanishi kerak: olimlar kuzatuv, qiyoslash, tarixiy, genetik usullarni qo‘llay bilishi lozim. Ushbu usullar ichida tarixiy va qiyosiy usullar keng tarqalgan. Kuzatuv va eksperiment usullaridan esa XX asrga kelib qo‘llanila boshlandi.

Kontning ta’kidlashicha, jamiyatdagi ijtimoiy muvofiqlik – bu shaxslar va ijtimoiy qatlamlar manfaatlarining bir-biriga mosligidir. Kontning jamiyatni yaxlit organizm sifatida tushunishi, mehnatning ijtimoiy adolat asosida taqsimlanishi, ijtimoiy barqarorlik shartlari va omillari, turli guruh va qatlamlar manfaatlarini moslashtirishda davlat va shaxslarning o‘rnini to‘g‘risidagi fikrlari bugungi kunga ham muhimdir.<sup>1</sup>

*Gerbert Spenser* (1820-1903) – ingliz sotsiologi, liberal individua-lizm namoyandasi. Uning «Asosiy manbalar» (1862), «Sotsiologiyaning yaratilishi» (1876-1896), «Sotsiologiya tadqiqot predmeti sifatida», «Etikaning yaratilishi» (1870-1873) asarlari sotsiologiya tarixida muhim o‘rin tutadi.

Spenser Kont izidan borib, sotsiologiya faniga o‘zgarib turuvchanlik va «bir maromdagisi» evolutsionizm g‘oyasini kiritdi. Evolutsiya – bu oddiy narsa va kuchlarning oddiy ko‘payish yoki kamayishga olib keluvchi, haqiqiy raqamli, sakrash va tanaffuslar ketma-ketligidan mahrum bo‘lgan jarayondir. Spenserning ta’kidlashicha, istalgan tizimning amal qilish tarzi, ijtimoiy organizmning me’yoriy holati muvozanatidan iborat.

U istalgan obyektning evolutsiyasi aloqasizlikdan aloqadorlikka, bir toifalikdan har xil toifalikkacha, noaniqlikdan aniqlikkacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Muvozanatning buzilishi asnosida yangi evolutsion jarayonga o‘tuvchi inqiroz boshlanadi. Hamma voqeja va hodisalar mana shu inqiroz va taraqqiyot sikli orqali yuz beradi deya ta’kidlaydi.<sup>2</sup>

Spenserning fikriga ko‘ra, sotsiologiyaning vazifasi – bu alohida shaxslarning xohish va intilishlari, ularning individual jihatlari va subyektiv fikr-o‘ylariga qaramasdan, amalga oshuvchi evolutsion jarayonlarning umumiy qonuniyatlarini ochib beruvchi ijtimoiy mavjudliklar, omillarni o‘rganishdan iboratdir.

Spenser XIX asr sotsiologlari ichida birinchi bo‘lib ijtimoiy tizim, ijtimoiy institut, ijtimoiy nazorat atamalarini qo‘lladi.

Spenser ijtimoiy taraqqiyot ta’siri ostida ijtimoiy institutlarni bir necha

<sup>1</sup> Qarang: Комаров М.С Введение в социологию. –М.: Наука, 1994 – 36-стр

<sup>2</sup> История социологии. –М.: Вис.шк, 1998, 48-стр

turga bo‘ladi:

- oila evolutsiyasi bosqichlarini ishlab chiquvchi, oilaviy munosabatlar o‘zgarishini tadqiq etuvchi institutlar;
- urf-odat, an’ana, axloq orqali insonlarning kundalik harakatini boshqarishga yo‘naltirilgan institutlar;
- jamiyat hamjihatligi va e’tiqod birligiga ta’sir etuvchi diniy institutlar;
- mehnat taqsimlanishi asosida kelib chiquvchi kasb-hunar institutlari.

Spenserning evolutsiya konsepsiysi uning sotsiologik qarashlariga, ya’ni jamiyatning organik nazariyasi deb ataluvchi qarashlariga asos bo‘lgan. Bu nazariyaning xususiyati ijtimoiy hayotni biologik iboralar asosida tahlil qilishga urinishdan iborat edi.

Fransuz sotsiologi *Emil Dyurkgeym* (1858-1917) ham sotsiologiya fanining rivojiga katta hissa qo‘shdi. Kontning davomchisi, Sorbonna universiteti professori Dyurkgeymning fikricha, sotsiologiya jamiyatni alohi-da ruhiy reallik sifatida o‘rganishi lozim, chunki bu reallik qonunlari individual psixika qonunlaridan farq qiladi. Har qanday jamiyat umumqimmatga ega bo‘lgan kollektiv tasavvurlarga asoslanadi. Olim ijtimoiy omillar, ya’ni kollektiv tasavvurlar (axloq, huquq, din, hissiyot, odat va b.) bilan ish ko‘radi, bu tasavvurlarni ijtimoiy muhit inson ongiga jo qiladi. Dyurkgeym ijtimoiy taraqqiyotni uch omilga: aholi zichligi, aloqa yo‘llarini rivojlantirish, kollektiv ongga bog‘lab izohlaydi. Har qanday jamiyatni ijtimoiy hamjihatlik bilan xarakterlaydi. Ibtidoiy jamiyatda hamjihatlik qon-qardoshlikka asoslanadi, hozirgi dunyoda esa hamjihatlik «uzviy» bo‘lib, mehnat taqsimotiga asoslanadi, deb hisoblaydi.

Dyurkgeym dinni ijtimoiy hayotning muhim momenti, deb biladi. Odamlar yashab turar ekan, din ham jamiyatning taraqqiyot bosqichlariga muvofiq ravishda o‘z shaklini o‘zgartirib boradi, deb hisoblaydi.

Dyurkgeymning qarashlari asosini «sotsiologizm» g‘oyasi tashkil etadi. Fransuz sotsiologi odamlararo ishonchning muhimligini ta’kidlab, kishilar yagona umumiyligi g‘oya atrofida birlashishlari lozimligini e’tirof etadi.

Dyurkgeym sotsiologiyasi qator asosiy vazifalarni o‘zida ifodalaydi, ular bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Dyurkgeym sotsiologiyani empirik va qonun chiqaruvchi fan, deb biladi; sotsiologiyaning ilmiy xarakteri uning usullaridan kelib chiqadi. Ijtimoiy dalillarga jamiyat umumiyligi aloqasining mahsuli deb qaraladi.

Italiyalik *Vilfredo Pareto* (1848-1923) o‘zining «Umumiyligi sotsiologiya tartibi» asari bilan sotsiologiyaga katta hissa qo‘shdi. U haqiqiylik, ishonchlilik va ilmiy-empirik asoslanganlikni ta’minlay oladigan sotsiolo-

gik bilimlar tuzilishi jarayonlarini ishlab chiqishga intildi. Ijtimoiy fanlarning barchasi pozitivizm g'oyalariga tayanadi, shuningdek, sotsiologiyani huquq, iqtisodiyot, din tarixi va boshqa ijtimoiy fanlarning sintezi deb hisobladi.

Pareto tomonidan ishlab chiqilgan pozitiv yondashuv konsepsiysi o'zining mohiyatiga ko'ra uslubiyat xususiyatiga ega bo'lib, bitta maqsadga, ya'ni ijtimoiy-nazariy tadqiqotlarni mafkuraviy mohiyatdan ozod qilishga qaratilgan edi. Paretoning sotsiologik tizimida elitalar nazariyasi muhim o'rinni tutadi. Jamiyatning sotsiologik tuzilishini u ikki guruhga bo'ladi: o'qimishli odamlardan iborat elita hamda hissiyotlar va ikkilanishlarda yashovchi, boshqariladigan omma – quyi qatlama.

Paretoning fikricha, siyosiy jarayon elitaning hokimiyat tepeasiga keliishi bilan bog'liq, ulardan bittasi jamiyatni boshqarish imkoniyatlarini yo'qotsa, uning o'rnini boshqasi egallaydi. Elitaning o'rinni almashish tartiboti istalgan jamiyatdagi universal qonuniyatlardan hisoblanadi. Siyosiy elitaning yashash qobiliyati kichik qatlamlarning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy imkoniyatlarga, ijtimoiy boshqarish huquqini beruvchi siyosiy tuzumga jamiyatning nechog'li ochiqligiga bog'liq.<sup>1</sup>

G'arb sotsiologlaridan biri bo'lgan Ludvig Gumplovich (1838-1909) sotsiologiyani muayyan bir tizimga solishga intildi. U Spenser asoslagan biologik tushunchalarga qarshi chiqdi. Uning fikricha, sotsiologiyada biologik tushunchalar hech qanday ahamiyatga ega emas, ular faqat qiyoslash uchungina xizmat qilishi mumkin, ijtimoiy voqelikni tahlil qilib bera olmaydi.

Gumplovich «Irqchilik kurashi» (1883) va «Sotsiologiya asoslari» (1885) asarlarida sotsiologiyani tarix falsafasining davomchisi, deb hisobladi. U polineziyani asosiy tabiiy ijtimoiy qonun deb, ya'ni avval ko'plab etnik guruhlar bo'lgan, keyinchalik ular yirikroq jamoalarga birlashdi, deb ta'kidladi.

Gumplovichning fikricha, ijtimoiy qonunlar asosiga insoniyatni qo'yib bo'lmaydi, insoniyatning rivojlanishini evolutsiya qonuni bilan tushuntirish mumkin emas, chunki bu holda real jarayonlar e'tibordan chetda qolishi mumkin. Evolutsiya qonunini hamma narsaga qo'llash mumkin, lekin u hech narsani tushuntirmaydi.

Shuningdek, u ijtimoiy evolutsiyani ijtimoiy manfaatlarning yo'naliishi jarayoni sifatida «ijtimoiy psixologik» talqin etishga qarshi chiqdi.

Ijtimoiy qonunlarni guruhlar munosabati va kishilar hamjamiyatining bir-biri bilan munosabatiga tegishli deb hisoblaydi. Jamiyat uning uchun «davlatda shakllangan ijtimoiy guruhlar, doiralar, sinflar va qatlamlarning

<sup>1</sup> Qarang: Komarov M.S Vvedenie v sotsiologiyu. –M.: Nauka, 1994 – 36-str.

o‘zaro munosabatidagi turli-tumanlikdir».

Gumplovichning fikricha, induksiya sotsiologiya usuli hisoblanadi, u sotsiologiyani qonunlarni bilishga qaratilgan empirik fan deb hisoblaydi. Uning empirik asosi – tarixiy yoki etnologik faktlardir. Ijtimoiy qonunlarsiz hech qanday sotsiologiya bo‘lishi mumkin emas.

Gumplovichning «Irqchilik kurashi» asarida «irq» so‘zining qo‘llanilishi anglashmovchilikni keltirib chiqardi. Chunki u irq deganda etnik-biologik tasnifni emas, balki etnik, diniy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy birlik asosida vujudga keladigan guruhlar xarakterini tushunadi.

#### **2.4. XX asrda AQSHda sotsiologik qarashlar ta’limoti va rivoji**

Sotsiologiyaning AQShdagi rivojlanishiga Charlz Xorton Kuli (1864-1929) katta hissa qo‘shdi. Kuli ramziy interaksionizm (jamiatning mohiyatini shaxslararo o‘zaro ta’sirda, deb hisoblash)ning asoschisi hisoblanadi. «Inson tabiatini va ijtimoiy tartibi» (1902.), «Ijtimoiy progress» (1918) kabi asarlarida o‘z qarashlarini ifodaladi. U ijtimoiy evolutsiyani organik ijtimoiy jarayon deb hisobladi, bunda atrof-muhitga samarali moslashuv funksional xususiy tizimlarda jamiatning ichki tartibini muntazam differensiatsiya qilgan holda yuzaga keladi. Kuli Spenserning iqtisodiy liberalizmda ifodalangan individualizmini inkor qildi.

Kuli Amerika jamiatidagi ijtimoiy tengsizlikni tahlil qilib, uni 2 ga ajratdi:

- 1) tabaqa – bunda ijtimoiy maqom meros bo‘lib qoladi;
- 2) sinf – ijtimoiy maqom daromad olishdagi raqobat natijasida yuzaga keladi.

U kasb-hunar, daromad va turmushni ushbu tabaqalanishning mezoni deb bildi.

Kuli inson tabiatini o‘ziga xos holda tushundi. Inson tabiatini u ayrim olingan insonning kommunikatsiyasi natijasida vujudga keladi, deb hisobladi.

Inson shaxsga aylanib, boshqa kishilar bilan bo‘ladigan interaksiya jarayonida o‘z «men»ini rivojlantiradi. Shuning uchun u avtonom, ratsional individni inkor qildi.

Individ va jamiat Kuli uchun bir-birini to‘ldiradi, lekin bir-biridan ustun emas. Har bir individ o‘z holicha yagonadir. Buni Amerika sotsiologiyasining ruhiy-axloqiy asoslaridan kelib chiqib tushuntirish mumkin. Dyurkgeym fikriga ko‘ra, ijtimoiylik individning ajralgan kollektiv ongi sifatida emas, balki individlarning bir-biriga qaratilgan xatti-harakati, interaksiysi sifatida mavjud bo‘ladi. Inson tabiatini ayni bir paytda ham individual, ham ijtimoiydir. Ushbu konsepsiya zamirida Amerika sotsiologiyasi

uchun xos bo‘lgan mikro va makroistiqbolning birlashuvi imkoni yotadi. Chunki «Men»ning ijtimoiy genezisi individuallik bilan bir qatorda individning faolligini taqozo qiladi, guruhning maqsad va manfaatlarini ilgari suradi.

Kuli «Birlamchi guruhlar» nazariyasini ishlab chiqdi, uning ijtimoiylashuvi, jamiyat evolutsiyasi va interaksiyaning ramziy xususiyatlarini aniqladi.

«Birlamchi guruhlar» – ixtisoslashuvsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri munosabatlar asosida vujudga keladigan kichik guruhlar bo‘lib, ular – oila, bir o‘yindagi bolalar guruhi, qo‘snilar. «Birlamchi guruhlar» ijtimoiy genezis jarayonida asosiy rol o‘ynaydi. Hozirgi paytda «Ikkilamchi guruhlar» birlamchi guruhning ahamiyatini kamaytirmoqda.

**«Ikkilamchi guruhlar»** – kishilarning yirik guruhlari bo‘lib, shaxsiy bo‘lman munosabatlarga asoslanadi. Har bir individ bunday institutlarda butun jamoa bilan emas, balki uning bir qismi bilan ishtirok etadi. Agar «birlamchi guruh» interaksiyasi kishilarning emotsional shaxsiy aloqalari asosida to‘satdan paydo bo‘lsa, «ikkilamchi guruhlar» avvaldan belgilangan ishchan munosabatlar orqali shakllanadi. Kulining ta’kidlashicha, «ikkilamchi guruhlar» birlamchi guruhlarga xavf soladi.

Mikrosotsiologiyaning yana bir namoyandasasi *Jorj Gerbert Mid* (1863-1931) bo‘lib, uning fikricha voqelik, tabiat, fizik predmetlarni ong, shaxs kabi ijtimoiy tashkil etilgan yoki inter subyektivdir. Mid tabiat bir-biridan mustaqil predmetlardan tashkil topmagani kabi jamiyat ham ko‘plab mustaqil individlardan tashkil topmaydi, deydi. Uningcha, kishilik jamiyat evolutsiyasi asosan, birgalashib ishslash hamda shaxslarning o‘zaro va predmetlar bilan bo‘ladigan aloqasi orqali belgilanadi. Ushbu evolutsiya jarayonida kishilarning intellekti hozirgi darajagacha rivojlandi. Bu jarayon hozir ham davom etib bormoqda. Har bir individ unda ishtirok etadi, faqat interaksiya va boshqalar bilan aloqada «Men»ini taraqqiy toptiradi. Ong tafakkur va tasavvur amaliyotidagina vujudga keladi, o‘zgaradi. Bu amaliyot esa individlar bir-biri, guruhlar jamiyat bilan interaksiyada shakllanadi. Shu bilan birga, u ichki tajribaga ham e’tibor beradi va uni ijtimoiy asoslangan xatti-harakat, deb hisoblaydi. Shuning uchun ham, Mid o‘zini ijtimoiy bixevoirist deb hisoblaydi. Uning fikricha, har qanday psixologiya ijtimoiy psixologiya bo‘ladi, chunki odamlarning ongi va ruhiyati ijtimoiy axloq va xatti-harakatdan ajralmasdir.

Ruh, nutq, tafakkur, intellekt – ijtimoiy hodisalar bo‘lib, «mulohazalar dunyosi», kommunikatsiyalar jarayoni ularning umumiy manbayi hisoblanadi. Uning vositasi imo-ishoradir. Tafakkur Mid uchun individning o‘z-o‘zi bilan signifikatif ramzlar yordamidagi ichki kommunikatsiyasidir. Mid

interaksiyani barcha ishtirokchilarning boshqa odamlarning xatti-harakat-larga tayyorgarligini, ularning imo-ishoralariga o‘zlarining munosabati, deb hisoblaydi.

**Sotsiometriya** amaliy mikrosotsiologiya bo‘lib, J.Moreno (1892-1974) uning rivojiga katta hissa qo‘shdi.

**Sotsiometriya** – kichik guruhlarda shaxslararo munosabat tarkibini o‘rganishdir Amaliy sotsiologiya, ya’ni sotsiologiyani rivojlantirganlardan biri J.Morenodir (1892-1974) Sotsiometriya empirik sotsiologiyaning oddiy usullari yordamida kichik guruhlarda psixologik o‘zaro munosabatlarni o‘rganadi. U mikrosotsiologiyadagi alohida yo‘nalish sifatida S.J.Moreno maktabidan iborat. AQShda sotsiometriyaning maxsus markazi-Moreno instituti mavjud bo‘lib, u «Sotsiometriya» jurnalini nashr etadi. Moreno va uning muxlislari sotsiometriyaga kichik guruhlarni shunday qayta guruhlash yo‘li bilan ijtimoiy uyg‘unlikka erishish vositasi, deb qaraydilar, buning natijasida go‘yo mazkur kichik guruhlarda birlashgan kishilarning istaklari va his-tuyg‘ulari birligi barqaror bo‘lar emish.

Moreno o‘z qarashlarini psixoterapiyadan keltirib chiqaradi. Uning fikricha, psixoterapiya usullari uch revolutsiyani vujudga keltiradi: *gipnoz* (Mesler qo‘llaganidek), *psichoanaliz* (Freyd bo‘yicha) va *psixodrama* (Moreno ishlab chiqqan, teatr o‘yinlarining ta’siri). Terapiyaning ushbu shakl sotsiodramani vujudga keltiradi.

Morenoning fikricha, jamiyatda uch o‘lchov mavjud:

- 1) tashqi jamiyat, ya’ni barcha bilishi mumkin bo‘lgan makroskopik guruhlar;
- 2) sotsiometrik matritsa, ya’ni sotsiometrik usullar bilan aniqlanadigan mikroskopik strukturalar;
- 3) jamiyat va sotsiologik matritsani u ijtimoiy voqelikdan farq qiladi, deb hisobladi.

*Tolkott Parsons* (1902-1979) AQSH sotsiologi, funksional maktabning asoschisi. Sotsiologiyada «umumiylar nazariya»ni qidirib topish Parsons nomi bilan bog‘liq, uning «Sotsial amaliyot strukturasi» (1936), «Sof va amaliy sotsiologik nazariya ocherklari» (1949), «Sotsial sistema» (1951) va boshqa asarlarida bayon etgan «**sotsial amaliyot nazariyasi**» shunday nazariyalardan biridir. U struktur-funksional tahlil usulidan foydalanib, ijtimoiy tizim modelini tuzishga intildi, individlarning o‘zaro ta’siri amaliyoti bu tizimning boshlang‘ich nuqtasi hisoblanadi. Parsonsning fikricha, abstrakt individlarning amaliyotidagi moslikni aniqlashga va ularga jamiyat tomonidan buyurilgan rollarning bajarilishiga yordam beradigan va umumqabul qilgan xatti-harakat me’yorlarini, standartlarini o‘zlashtirishdan, ularni faoliyatning ichki motiviga aylantirishdan iborat. Parsonsda

g‘oyaviy omillar (avvalo, ijtimoiy ongning me’yoriy-qimmatli strukturasi) kishilarning xatti-harakatini ham belgilovchi omil bo‘lib yuzaga chiqadi. Parsons muvozanatga ijtimoiy tizim normal holatining eng muhim belgisi, deb qarab, jamiyatni janjallar va keskin o‘zgarishlardan saqlashi lozim bo‘lgan bu holatni tartibga solish jarayonlariga, ularni ijtimoiy nazorat qilib turish vositalariga (siyosiy va huquqiy organlarning faoliyati, kishilarning yurish-turishiga tevarak-atrofdagilarning munosabati) katta e’tibor beradi. U evolutsionizm g‘oyalaridan foydalanib, ijtimoiy tizimlar tasviriga ularning o‘zgarishlari tahlilini kiritishga urindi. Jamiyatda sodir bo‘layotgan jarayonlarga konservativ munosabatda bo‘ldi. O‘zgarishlar deganda u bir tizimning boshqa tizim shakliga kirishini emas, balki tizimning moslashuvchanligini kuchaytiruvchi ichki tabaqalanishni tushundi.

Strukturaviy funksional tahlil – tizimli obyektlarni, avvalo, ijtimoiy tizimlarni tadqiq qilish usuli Ijtimoiy hayot turli shakllarining strukturaviy funksional tahlili ijtimoiy tizimlarda strukturalarni tashkil etuvchi tizimlarni va ularning bir-biriga nisbatan rolini ajratib ko‘rsatish asosida quriladi. Parsons va Merton o‘z asarlarida umumiy antropologiya doirasida alohida uslubiy yo‘nalish sifatida shakllangan ilk funksionalizm g‘oyerlarini rivojlantirdi. Parsons struktur kategoriylar (qimmatlar tizimi, ijtimoiy me’yorlar, umumiylarning turlari va ularda qatnashuvchilarning roli) bilan funksional kategoriylar (o‘z-o‘zini saqlash, integratsiya, maqsadga erishish va adaptatsiya) o‘rtasidagi tafovutni tahlilga asos qilib qo‘yadi. U jamiyatga idealistik munosabatda bo‘lib, ijtimoiy strukturani mustahkamlaydigan qimmatlar va me’yorlar tizimini ijtimoiy munosabatlarining asosiy-tartibga soluvchi omili deb qaraydi.

Strukturaviy funksionalizm ijtimoiy tengsizlikni asoslash uchun o‘ziga xos konsepsiyanı ilgari suradi. Ijtimoiy struktura ijtimoiy tuzumning evolutsion rivojlanishidagi gorizontal va vertikal differensiatsiya jarayonining natijasidir.

XX asrning 40-yillaridan boshlab «fanda sistemali harakat» boshlandi va u sistemaning umumiy nazariyasini yaratish uchun turli fan vakillarini o‘zaro birlashtirdi. Bu harakat sotsiologiyani ham chetlab o‘tmadi va unda sistemali prinsip ishlab chiqila boshlandi. Lekin sistemali yo‘nalish g‘oyasi jamiyatni sistemali asosda tadqiq qilish ilgariroq amalga oshirilgan edi.

Sistemali va funksional yondashishlar g‘oyasini amerikalik olim Parsons o‘zining sotsial-harakat nazariyasida ishlab chiqdi. U sistema tushunchasiga ijtimoiy yaxlitlikning turli darajasidagi harakatning natijasi sifatida qaradi. U qanday qilib yakka harakatlar bir-birlari bilan bog‘langan va bu aloqalarni qanday konseptual shaklda namoyon qilish mumkin, degan sa-

volga shunday javob beradi: «Shaxs, madaniyat va jamiyatning sistemali sifatlari institutsionallash jarayonida namoyon bo‘ladi. Ana shu institut-sionalizatsiya o‘zaro harakatning uyushgan modelining ko‘rinishi bo‘lib, u sotsial strukturani tashkil etadi. Tizim sotsial harakatning integratsiya me-xanizmlari faoliyat ko‘rsatishi tufayli mavjud bo‘ladi».<sup>1</sup>

Funksional usulni takomillashtirgan olim Robert Mertondir (1910). U «Sotsial nazariya va sotsial struktura» (1949) asarida funksionalizmning (struktur-funksional analiz) asosiy qoidalarini bir tizimga solishga urindi. Merton funksiyalar (kishilarning xatti-harakati, uning ijtimoiy yaxlitlik uchun qulay bo‘lgan obyektiv oqibatlari) bilan disfunksiyalar (xatti-harakatning umumqabul qilgan qoidalari, standartlaridan har xil yo‘l bilan chetga chiqish, tizimning birligi va yaxlitligini buzadigan nizolar va sh.k.) o‘rtasida tafovut joriy qiladi. Merton kishilar faoliyatining beg‘araz oqibatlarini (pinxon funksiyalar) aniqlashni sotsiologik analizning muhim vazifasi deb hisoblaydi.

«Chetga chiquvchi xatti-harakatni mensimaslik yoki unga faqat «nomatlub» narsa deb baho berish, Mertonning fikricha, shunga olib keladiki, ijtimoiy hayotning o‘zgarishlari, dinamikasi sotsiologning nazaridan tushib qoladi. Merton ham «chetga chiqishlar»ni ko‘pincha axloqiy psixologik, ruhiy-qadriyat yo‘snidagi hodisalar jumlasiga kiritadi, ularni ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardan ajratib qo‘yadi. Merton funksionalizmga uslubiy tomoniga katta e’tibor berib, sosiologiyadagi siyqa empirizmni tanqid qiladi va empirik tadqiqotlarni nazariya bilan qo‘shish tarafdori sifatida maydonga chiqadi. Biroq nazariya deganda u, asosan «o‘rta daraja» nazariyalarni ko‘zda tutadi. «O‘rta daraja» nazariyalar empirik ishchi gipotezalari bilan umumiyl qamrab oluvchi nazariyalar orasidan o‘rin olgan. «O‘rta daraja» nazariyalarining asosiy tushunchalari-oxirgi guruhlar, anomiya va byurokratiyadir.

### Savol va topshiriqlar

1. Sotsiologiya fanining boshqa ijtimoiy fanlardan farqi nimada?
2. Sotsiologiya fanining nazariy-amaliy manbalari nimalardan iborat?
3. Qadimgi Turondagi ijtimoiy qarashlar haqida gapirib bering.
4. Sotsiologiyaning fan sifatida shakllanishidagi shart-sharoitlar qanday edi?
5. Sharqdagi ijtimoiy-sotsiologik qarashlarning G‘arbiy Yevropadagi sotsiologik qarashlardan farqi nima?
6. O.Kont sotsiologiyasi haqida gapirib bering.
7. Spenserning sotsiologik ta’limoti qanday?

<sup>1</sup> Qarang: Волков Ю.Г. и д.р. Социология. Курс лекций. “Феникс”, Ростов-на-Дону, 1999.

8. E.Dyurkgeym va L. Gumplovichning sotsiologiya fani rivojiga qo'shgan hissalari nimalardan iborat?
9. Ch.X. Kuli interaksionizmi haqida nimalarni bilasiz?
10. T.Parsons ta'limotini aytib bering.

### **Tayanch so'z va iboralar**

**Pozitivizm** – empirik fanlarni haqiqiy bilimning birdan-bir manbayi deb bilish;

**Struktura** – funksional tahlil-ijtimoiy tizimda tuzilmalarni tashkil etuvchi tizimlar va ularning funksiyasini ajratib ko'rsatuvchi usul;

**omma** – ko'pchilikning tasodifan bir joyda bir vaqtida to'planishi;

**elita** – ijtimoiy tuzilmaning boshqaruv, madaniyat fanni rivojlantiruvchi oliy, imtiyozli qatlami;

**ijtimoiy institutlar** – kishilar faoliyatini tashkil etishning mustahkam shakli;

**so'fiylik** – yagona Olloohni tan olishni va unga intilishni targ'ib qiluvchi, VIII-IX asrlarda Arab xalifaligida tarqalgan oqim;

**zardushtiylik** – Xorazmda eramizdan avvalgi VII asrda vujudga kelgan, yakka xudolilikka asoslangan din;

**mitraizm** – Eronda eramizdan avval I asrda paydo bo'lgan, xudo Mitraga sajda qilish bilan bog'liq bo'lgan din;

**sotsiometriya** – mikrosotsiologiyaning kichik guruhlarda shaxslararo munosabat tarkibini o'rganshi;

**«birlamchi guruh»** – kichik ijtimoiy guruhlar (oila, qo'shnilar, bir o'yindagi bolalar);

**«ikkilamchi guruh»** – kishilarning yirik guruhlari.

## **3-bob. JAMIYAT DINAMIK TIZIM SIFATIDA. IJTIMOIY STRATIFIKATSIYA**

### **3.1. Jamiyat va tizim tushunchasi. Jamiyat va taraqqiyot tog‘risidagi rivojlanish nazariyalari**

Zamonaviy sotsiologiyaning diqqat markazida jamiyat tushunchasi turadi. U mamlakatning ijtimoiy tashkil etilishini xarakterlaydi. Sotsiolog N. Smelzer jamiyat haqida shunday deydi: «Muayyan geografik chegara, umumiylar qonunchilik tizimi va muayyan milliy (ijtimoiy-madaniy) tenglikka ega bo‘lgan kishilar birlashmasi jamiyat hisoblanadi».

Sotsiologiyada jamiyat an’anaviy va zamonaviy jamiyatga ajratib o‘rganiladi.

An’anaviy jamiyat quyidagi xususiyatlarga ega:

- 1) mehnat tabiiy taqsimlanadi va ixtisoslashadi (asosan, yosh va jins belgilariga ko‘ra);
- 2) shaxslararo munosabat bevosita individlar orqali namoyon bo‘ladi;
- 3) o‘zaro aloqalar norasmiy ravishda tartibga solinadi (din va axloq qonunlari yordamida);
- 4) jamiyat a’zolari qarindoshchilik aloqalari bilan bog‘liq bo‘ladi;
- 5) hamjamiyat oddiy boshqaruvi tizimiga ega (hokimiyatning meros bo‘lib qolishi, oqsoqollar boshqaruvi).

Ko‘rinib turibdiki, an’anaviy jamiyatda insonning yaratuvchilik qobiliyati ancha cheklangan edi. Chunki an’anaviy jamiyatda mehnatning tabiiy taqsimlanishi va ixtisoslashuvi, shaxslararo munosabatlarning tabaqalashuvi, ijtimoiy aloqalar va munosabatlarni norasmiy muvofiqlashtirish, jamiyat a’zolarining bir-biriga tobelik, urug‘chilik va qon-qarindoshlik munosabatlari bilan bog‘liqligi, boshqaruvdagagi primitiv tizimlar imti-yozsiz jamiyat a’zolarining faolligini cheklab qo‘ygan bo‘lib, bu holat shaxsning ijodiy faoliyat ko‘rsatish va fikr yuritishini rivojlantirishga yo‘l bermas, o‘zaro munosabatlarning esa biqiq bo‘lishini taqozo etardi.

An’anaviy jamiyat kabi zamonaviy jamiyat ham bir qator xususiyatlarga egadir:

- 1) o‘zaro ta’sir rasmiy xarakterga ega (kishilarning xulq-atvori va intislchlari ijtimoiy maqom va individlarning ijtimoiy funksiyalari bilan belgilanadi);

- 2) mehnat taqsimoti chuqur amalga oshadi (ta’lim va ish tajribasi bilan

bog‘liq kasb-malaka asosida);

3) munosabatlar rasmiy tizimda tartibga solinadi (qonun, tartib, bitimlar asosida);

4) ijtimoiy boshqaruv murakkab tizimga ega (boshqaruv instituti, boshqarishning maxsus organlari);

5) din boshqaruv tizimidan ajralgan;

6) ko‘plab ijtimoiy institutlar mavjud.

Demak, hozirgi paytda jamiyat kishilararo munosabatlarning rasmiy-lashuviga olib keluvchi ijtimoiy aloqalar tizimining murakkablashuvi bilan xarakterlanuvchi ijtimoiy tashkilotning zamonaviy shaklidir. Umuman olganda, shaxslararo munosabat va his-tuyg‘ularning bog‘lanishi jamiyatni ifodalaydi.

O‘zbek jamiyati zamonaviy jamiyat bo‘lsa ham, unda ko‘plab an’anal lar saqlangan. Ma’lumki, o‘zbek xalqi azaldan jamoa bo‘lib, uyushib ya-shashga odatlangan, to‘yda ham, azada ham yonma-yon turib hamisha bir-biriga ko‘maklashgan. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to‘g‘-risida g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, millatidan qat’iy nazar, odamlarga xayri-xohlik, o‘zgalarga yordam tuyg‘usi o‘zbek xalqiga xosdir. Shuning uchun ham, I.A. Karimov 1992-yil 2-iyulda O‘zbekiston Oliy Kengashining X sessiyasida «Istiqlol yo‘llari va muammolari» mavzusida nutq so‘zlar ekan, «...biz ijtimoiy taraqqiyot va yangilanish borasida o‘z yo‘limiz bor, deb e’lon qildik... Bozor iqtisodiyotiga o‘tar ekanmiz, milliy-tarixiy turmush tarzimizni, xalqimiz urf-odatlarini, an’analarimizni, kishilarning fikrlash tarzini hisobga olamiz!»<sup>1</sup> – deydi va tub islohotlarni amalgaloshirish borasida dastlabki tamoyilni belgilab berdi.

Jamiyat tushunchasiga atroflicha yondashuv «jamoia» va «hamjamiyat» (ijtimoiy guruh) tushunchalariga to‘xtalishni taqozo etadi.

O‘zbekiston, albatta, zamonaviy jamiyat. Shu bilan birga, bizda an’anaviy jamiyatning ko‘plab elementlari mavjud.

Jamoia – bu an’anaviy jamiyatdir. Jamoa va jamiyat o‘rtasidagi aloqalar asosida 3 gipoteza yotadi:

■ evolutsion o‘sib o‘tish (jamoia rivojlanib, murakkablashib, jamiyatga aylanadi);

■ integratsiyaviy qo‘shiluv (turli darajada bo‘lgan tizimlarning o‘zaro ta’sirida arxaik ijtimoiy tashkilot zamonaviylashib boradi);

■ parallel birga mavjud bo‘lish (turli-tuman jamoalar integratsiya-lash-maydi, balki o‘z xususiyatlarini saqlagan holda zamonaviy jami-

<sup>1</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston: o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. T.1. –T.: O‘zbekiston. - 40-bet.

yat tarkibida alohida-alohida bo‘ladi).

Demak, **jamoa** urug‘chilik aloqalari asosida vujudga kelgan va ijtimoiy munosabatlarning bevosita turi bilan xarakterlanuvchi ijtimoiy tashkilotning dastlabki shaklidir.

«Jamiyat» tushunchasi (E.Shilzga ko‘ra)ni agar u quyidagi talab-larga javob bersa, kishilar birlashmasiga nisbatan qo‘llash mumkin:

- 1) birlashma katta bir tizim (jamiyat)ning bir qismi bo‘lmasa;
- 2) nikoh ushbu birlashma namoyandalari orasida tuzilsa;
- 3) birlashma bolalar tug‘ilishi bilan to‘ldirib borilsa;
- 4) shaxsiy hisoblangan hududga egalik qilinganda;
- 5) o‘z nomi va tarixiga ega bo‘lish;
- 6) o‘z boshqaruv tizimiga ega bo‘lish;

7) birlashma qadriyatlarning umumiy tizimi (urf-odat, an’ana me’-yorlar, qonun-qoidalar) – madaniyat asosida tashkil topadi.

Sotsiologiya jamiyatni tizim sifatida uning strukturasi, funksiyalari va tizimi elementlarini o‘rganadi. Jamiyatga nisbatan tizimli munosabatning mohiyatini aniqlash uchun, avvalo, tizim nima ekanligiga to‘xtalishimiz kerak.

**Tizim** – o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq va funksional munosabatlar hamda aloqalarda bo‘lgan elementlarning bir butun majmuyidir.

Ijtimoiy bilim – o‘z ichiga ayrim individlar, guruhlar, tashkilotlar, institutlar, hamjamiyatlarning ijtimoiy aloqa va munosabatlari birlashgan, tartibga solingan bir butunlikdir.

Tizimlarning umumiy nazariyasida (L. fon. Bertalanfiga ko‘ra) jamiyat murakkab, bir butun tashkil etilgan tizim sifatida talqin qilinadi.

Sotsiologiyada, odatta, ijtimoiy tizim 4 nuqtayi nazarda o‘rganiladi:

- 1) individlarning o‘zaro ta’siri;
- 2) guruhlarning o‘zaro ta’siri;
- 3) ijtimoiy maqomlar iyerarxiyasi;
- 4) individlar xulq-atvorini belgilaydigan ijtimoiy me’yor va qadriyatlarning majmuyi.

**Ijtimoiy tizim dinamikasi.** Tizimning tinch holatini bayon qilish u haqda to‘la ma’lumot bermaydi. Tizim dinamikasi unga yo‘nalish, xususiyatlarining o‘zgarish sur’ati, shuningdek, o‘rganishni taqozo qiladi. To‘g‘ri chiziqli va to‘g‘ri chiziqli rivojlanish manbayi hamda harakatlantiruvchi kuchlari tizimli dinamikaning tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Demak, ijtimoiy tizim dinamikasi tushunchasi ijtimoiy voqelikni o‘rganishdagi turli munosabatlarni ifodalaydi. Ijtimoiy tizim dinamikasi voqelik

o‘zgarishidagi jarayonlarni, ularning bog‘liqligi, yo‘nalishi va oqibatlarini o‘rganadi. Uning doirasida bu o‘zgarishlarga ta’sir qiluvchi omillar, ijtimoiy munosabatlarga individlarning moslashish qonuniyatlari kiradi.

Tabiatshunoslikda dinamik tizim deganda, tizimning holatini aniqlash mumkin bo‘lgan har qanday obyekt yoki jarayon tushuniladi.

Dinamik tizimlar 2 xil bo‘ladi:

– **to‘g‘ri chiziqli dinamik tizim** xatti-harakati bir joyda turadigan narsa atrofida (masalan, mayoqning tebranishi) bo‘ladi, u vaqtga bog‘liq emas;

– **to‘g‘ri chiziqli bo‘lмаган тизим** barqaror va beqaror statsionar holatga ega. Barqaror statsionar holat tizimning o‘ziga xos, beqaror statsionar holat tizimdagi o‘zgarishlarni ko‘rsatadi.

To‘g‘ri chiziqli bo‘lмаган тизим tushunchasi ko‘p variantlilikni, taraqqiyotni va orqaga qaytmaslikni o‘z ichiga oladi.

Jamiyat rivojining asosiy manbayi kishilarning xatti-harakatida mujassamlangan energiyadir. U jamiyatning institutsional va madaniy tizimida o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Bu o‘zgarishlar ichki o‘z-o‘zini tartibga solish va nazorat qilish mexanizmi yordamida amalga oshiriladi.

Murakkab tizimlarda evolutsiya va involutsiya, integratsiya va dezintegratsiya namoyon bo‘ladi. Masalan, qadimgisivilizatsiyalar asrlar davomida gullab-yashnadi va halokatga uchradi. A.Toynti so‘nggi 3000 yil ichida bo‘lgan 21 sivilizatsiyani o‘rganib, o‘rtacha progressiv taraqqiyot o‘rtacha regressiv taraqqiyotga o‘tishini ko‘rsatadi. Sivilizatsiyalar, ularning rivojlanishi, inqirozi to‘xtovsiz va to‘planib boradigan tarzda namoyon bo‘ladi.

### 3.2. Jamiyatning turlari

Barcha jamiyatlar turli nuqtayi nazarlardan kelib chiqib, bir necha turlarga bo‘linadi. Masalan, marksistik an’ana bo‘yicha jamiyat ishlab chiqarish usuliga qarab turlarga bo‘linadi, ya’ni ibtidoiy jamoa tuzumi, quldorlik, feodal, kapitalistik va kommunistik tuzumlar.

Jamiyatni tasniflash undagi hukmron dinlar (masalan, islom jamiyat), yoki tiliga ko‘ra (ingлиз tilida yoki fransuz tilida so‘zlashuvchi jamiyat) amalga oshirilishi mumkin.

1970-yil G.Lenski va J.Lenskilar jamiyatni yashash uchun zarur vosita olish usuliga ko‘ra tasnif qildi:

a) **ovchilik va yig‘ish bilan shug‘ullanuvchi jamiyat.** Bunday jamiyatlar (asosan, Afrika qabilalari, Avstraliya aborigenlari)da ijtimoiy hayot

qarindoshchilik aloqalariga asoslanadi. Ularda siyosiy struktura deyarli yo‘q, jamoaga oqsoqol, yo‘lboshchi bosh bo‘ladi. Mehnat qurollari tosh bolta, pichoqlar.

b) **bog‘bonchilik bilan shug‘ullanuvchi jamiyatlar** dastlab, yaqin sharqda vujudga keldi, keyin Xitoydan Yevropagacha yoyildi. Mehnat qurollari – omoch, oddiy buyumlar. Siyosiy struktura ikki, ba’zan to‘rt ijtimoiy qatlamdan iborat. Urug‘chilik aloqalari ijtimoiy strukturaning asosini tashkil etadi. Urug‘ jamoasi o‘ziga xos qoida asosida nikoh munosabatlari tartibga soladi;

v) **agrар jamiyatlar** dastavval Misrda tashkil topdi, ular omoch va hayvonlardan ishchi kuchi sifatida foydalanishni yo‘lga qo‘ydilar. Ularning ishlab chiqarishdagi mahsulorligi ham yuqori bo‘lgan. Agrar jamiyatda qo‘shimcha mahsulotning to‘planishi natijasida davlat vujudga keldi, ma’muriy apparat va armiya tashkil topdi. Yozuv kashf qilindi, pul tizimi shakllandi, savdo kengaydi. Nisbatan murakkab siyosiy tashkilotlar tarkib topdi, urug‘ aloqalari jamiyat ijtimoiy strukturasining assosi bo‘lmay qoldi. Shunday bo‘lsa-da, urug‘chilik munosabatlari siyosiy hayotda muhim rol o‘ynadi: fuqarolik va harbiy amallar otadan meros bo‘lib qolardi;

g) **sanoat (industrial) jamiyatları.** XVIII asr oxirlaridagina Buyuk Britaniyada industrializatsiyaning vujudga kelishi natijasida barpo bo‘ldi. Eng zamonaviy sanoat jamiyatları Shimoliy Amerika, Yevropa, Sharqiy Osiyoda tashkil topdi. Texnologiyaning takomillashuvchi, energiyaning yangi manbalaridan foydalanish sanoat jamiyatları rivojlanishida asosiy rol o‘ynadi. Sanoat ishlab chiqarishi ushbu jarayonni boshqarish uchun zarur bo‘lgan ilmiy bilimlarning qo‘llanilishi bilan bog‘liq; inson va hayvonning ish kuchi o‘rniga issiqlik energiyasidan (avval tosh ko‘mirni yoqish orqali), keyinchalik elektr va atom energiyasidan foydalaniladi;

d) **postindustrial jamiyat.** Amerikalik sotsiolog D.Bell tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya bo‘lib, unga ko‘ra nazariy bilimlar sanoat va ishlab chiqarishning bir joyga to‘planib qolishida asosiy rol o‘ynaydi. Bunday jamiyatda kapitalistlar hukmronligi yo‘qolib, uning o‘rnini yuqori bilimga ega bo‘lgan malakali huquqiy elita egallaydi. Xususiylik jamiyatning asosiy mezoni sifatida o‘zining ma’nosini yo‘qotqdi, uning o‘rnini ta’lim va bilimning yuksak darajasi egallaydi. Industrial jamiyatda asosiy nizo mehnat va kapital orasida bo‘lsa, postindustrial jamiyatda asosiy nizo bilim va chuqr bilimga ega emaslik o‘rtasida boradi. Chet mamlakatlarga tayyor mahsulotga qaraganda yangi ishlab chiqarish texnoloshyalari ko‘proq eksport qilinadi.

XX asrga kelib eng takomillashgan va zamonaviy kishilik birliklari fuqarolik jamiyati deb atala boshlandi.

Shu o'rinda fuqarolik jamiyati to'g'risidagi g'oyalar tarixiga to'xtash maqsadga muvofiq. Fuqarolar jamiyati to'g'risidagi g'oyalar diyorimizda ilk bor eramizdan oldingi VII asrlarda siyosiy voqelik maqsadini himmat va johillik kabi qarama-qarshi kuchlarning kurashi orqali hal etgan zardushtiylikdir. Himmat johillikka qarshi faol kurashishini inson hayotining mazmuni tarzida siyosiy omilga aylantirildi. O'sha zamonlardayoq jamiyatga bir oila tarzida qarash, ijtimoiy munosabatlarni boshqaruvchi siyosiy omil — axloq qoidalari negizida hal etish ma'naviy qadriyat hisoblanar edi.

“Fuqarolar jamiyati” degan iborani Tomas Gobbs (1588-1679) ishlatgan. Jon Lokk (1632-1704) esa fuqarolar jamiyatining davlatdan imtiyozli ekanligini ta'kidlagan. Lui de Monteskye (1689-1755) fuqarolik jamiyati zo'rlik va hukmronlikdan qutulish garovi ekanligini ochib berdi. Immanuil Kant (1724-1804) fuqarolar jamiyatida har bir kishining erkinligi boshqalar erkinligiga monand kelishi bilan ifodalanganini uqtirib, quyidagi prinsiplarni ilgari suradi: 1) inson sifatida jamiyat a'zolari erkinligi; 2) fuqaro sifatida ularning tengligi; 3) fuqaro sifatida har bir jamiyat a'zolarining mustaqilligi. Gegel (1770-1831) fuqarolar jamiyatini davlat ichida emas, davlat qatorida talqin etadi.

Fuqarolik jamiyati shaxs uchun keng imkoniyatlar yaratib, unda har bir shaxs boshqalar bilan birlashishi yoki ular bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsata olishi mumkin. Fuqarolik jamiyati shu tarzda inson ulug'vorligini yuskaklikka ko'taradi Fuqarolik jamiyatining barqarorligini ta'minlovchi shart-sharoitlar ham borki, ularsiz bu jamiyatning institutlari rivojlanmaydi. Bular jumlasiga jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlarning turlicha manfaatlarini ifoda etuvchi rivojlangan ijtimoiy strukturalar mavjud bo'lishi lozimligi kiradi Qolaversa, jamiyat a'zolarining to'la mustaqilligi bilan faoliyat ko'rsata olish qobiliyati, ularning eng rivojlangan darajadagi, intellektual, ruhiy jihatlardan yuksalishi sodir bo'lishi ham taqozo qilinadi. Ko'rinib turibdiki, demokratik jamiyatning asosini o'z-o'zini boshqarish va jamiyat tashkilotlari o'zaro munosabatlarining majmuasi tashkil qilinadi.

Fuqarolik jamiyatida davlat va hukumatning, nodavlat va jamoat tashkilotlarining o'z vazifalari ham bo'ladiki, ular bir-birini to'ldirib, yuksak rivojlangan demokratik jamiyatning yashovchanligini ta'minlaydi. Davlatning ham, nodavlat tashkilotlarining ham o'z harakat doirasini o'zlari uchun belgilangan faoliyati u yoki bu tomonga ozgina o'zgarganda ham

bunday ijtimoiy-siyosiy muvozanatlar buzilib, demokratik me'yordan chekinish yohud chetga chiqib ketishi ro'y berishi mumkinligini asrimizning so'nggi davrdagi rivojlanish amaliyoti ko'rsatdi.

Mustaqillikning dastlabki yillardanoq O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini faol izladi, bu izlanish yillari Ona-Vatanni erkin, kuchli va ravnaq topayotgan diyorga aylantirishga intilish davri bo'ldi. Jahan hamjamiyatida munosib o'rin egallash uchun, davlatlararo ko'pqirrali aloqalarning eng maqbul yo'llari izlandi. Bularning barchasi jamiyatni yangilashning O'zbekistonga xos yo'lini ko'rsatib berdi. Bu yo'l ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga jahon tajribasini, shuningdek, xalqimiz turmush tarzini, urf-odatlarini, an'analarini, tarixiy qadriyatlarini har tomonlama hisobga olishga qaratilgan, konstitutsion asosga ega bo'lgan respublika aholisining manfaatlariga to'la mos tushadigan taraqqiyot yo'lidir.

Aynan shunday rivojlanish o'zbekistonliklarning munosib turmush kechirishlari uchun kafolat bo'ladi, milliy an'analar va madaniyatning yusalsishini, ma'naviy-a'hloqiy qadriyatlarning tiklanishini ta'minlaydi.

"Pirovard maqsadimiz, – deydi I.A. Karimov. – ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir"<sup>1</sup>. Shunday qilib, tanlagan yo'limiz ajdodlarimiz tarixiy tajribasini, mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatini va xalqimizning aql-zakovatini hisobga olib, o'z yo'limizdan aniq maqsad sari qat'iyat bilan ilgari surgan besh tamoyil asos qilib olingan.

### **3.3. Ijtimoiy stratifikatsiya tushunchasi va uning turlari**

Ijtimoiy tengsizlikni tushuntirish uchun sotsiologiyada ijtimoiy stratifikatsiya atamasi ishlataladi. Stratifikatsiya so'zi geologiya sohasidan olingan bo'lib, «qatlam» ma'nosini anglatadi. Ushbu atamani fanga amerikalik sotsiolog Pitirim Sorokin kiritgan.

Ijtimoiy stratifikatsiya ijtimoiy qatlamni tartibga solishni va muayyan bir mezon (hokimiyat, boylik, kasbiy, sulolaviy va h.) ga ko'ra tabaqaflash, tasniflashni anglatadi.

Jamiyat tarkibida sinflar, ijtimoiy guruhlarning bo'lishi, turli xil tabaqlar tuzish, millat va toifalarga ajratish hamda shu orqali boshqarish tajribasi insoniyat tarixidan ma'lum. Qadim Turonda aholi urug'-qabilaviy kelib chiqishi, kasbiy mansubligi, diniy e'tiqodiy qarashlari, sulolaviy kelib chiqishiga qarab tasnif etilgan. Bu esa har bir ijtimoiy guruhning ijti-

<sup>1</sup> Karimov I. A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. –T.: O'zbekiston, 1995, - 9-bet

moiy-siyosiy o‘rni va rolini obyektiv belgilashga, ulardan samarali foydalishga va siyosiy boshqarishga imkon bergan.

Jamiyatning rivojlanishi bilan birga uni o‘rganish tamoyillari ham o‘zgarib boradi. Sobiq sovet tuzumi davrida ijtimoiy taraqqiyotning boisi sinfiy kurashda deb hisoblanganligi sababli jamiyatdagi muammolarga umumiy nuqtayi nazardan yondashilgan. Ijtimoiy guruhlardan tabiiy amal qilish holati bo‘lgan muammo va ziddiyatlarning sinflararo ziddiyatlarga ko‘chishi, ziddiyatlarning ijtimoiylashuvi, sinflararo, davlatlararo urushlarga olib kelgan. Bunday yondashuv kishilarning voqelikning o‘zgarish mohiyatini bilishga imkon bermasdan, ijtimoiy mulkka nisbatan yulg‘ichlik, boqimandalik kayfiyatini tarkib toptirdi.

Stratifikatsiya kishilar orasidagi ma’lum ijtimoiy tafovut iyerarxik ko‘ri-nishda bo‘lishini bildiradi. Ma’lumki, odamlar bir-biridan ko‘p jihatlari bilan farq qiladilar, lekin bu tafovutlarning hammasi ham jamiyat a’zolari o‘rtasida tengsizlikni keltirib chiqarmaydi. Tengsizlik eng umumiy ko‘ri-nishda moddiy va ma’naviy resurslardan bir xilda foydalana ololmaslikni ko‘rsatadi.

Ijtimoiy stratifikatsiya masalasini tahlil qilishni ayrim olingan bir shaxsni boshqa kishilar davrasidagi o‘rnini o‘rganmasdan boshlash kerak. Har qanday odam jamiyatda ko‘plab mavqelarga ega bo‘lishi mumkin. Misol tariqasida talabani olib ko‘ramiz: talaba, yosh yigit, o‘g‘il, sportchi. Bu mavqelarning har biri odamning o‘zi uchun qandaydir bir ahamiyatga ega. Atrofdagilar ham ularni aniq individga nisbatan turlicha baholashlari mumkin. Yaxshi sportchini ijtimoiy jihatdan atrofdagilar xuddi shu mavqeyiga ko‘ra baholaydilar. Uning talaba va kimningdir o‘g‘li ekanligi va boshqalar, atrofdagilar uchun ahamiyatli emas.

Stratifikatsiya nazariyasida doimo tenglik – tengsizlik muammosi muhokama etiladi. Tenglik tushunchasini quyidagicha tasnif etish mumkin:

- 1) shaxslar tengligi;
- 2) imkoniyatlar tengligi;
- 3) yashash uchun sharoitlar tengligi;
- 4) natijalar tengligi.

Shunga muvofiq ravishda tengsizlikni: a)shaxslar tengsizligi; b) imkoniyatlar tengsizligi; v) yashash sharoitlari tengsizligi; g) natijalar tengsizligi ko‘rinishida tasniflaymiz. Amaliyotda sotsiologlar daromadlar va farovonlikning taqsimlanishiga, ta’limning davomiyligi va sifatidagi tafovutga, hokimiyat strukturasida siyosiy hayotda ishtirok etishga, mulk egasi bo‘lishiga katta e’tibor beradilar.

Har qanday taraqqiyot tabiiy ravishda, bir tomondan, shaxsning individuallashuv jarayonlarini, o‘zlikka uyg‘unlashuv holatlarini kuchaytirib, shaxslarning yakka tarzda alohida faoliyat bilan mashg‘ullik darajalarini oshirsa, ikkinchi tomondan, jamiyat a’zolarining mulk, kasb, irq, millat, jins, hudud, mayl, maqsadlar, didlar asosida tabaqalanish jarayonlariga kuchli turtki beradi. Shu boisdan ham stratalar ko‘pligi jamiyatning o‘z-o‘zini ichki boshqaruvi mahsuli va sivilizatsiya jarayonlarining tabiiy ifodasidir.

Ijtimoiy o‘zgaruvchanlik quyidagicha turlanadi:

1. Reproduktiv.
2. Statusli – xizmat pillapoyalaridan yuksalish, hayot darajalarining farovonlashuvi.
3. Hududiy – qishloqdan shaharga, davlatdan davlatga ko‘chishlar.
4. Ma’naviy qadriyatlar, fikrlar, tushunchalar, g‘oyalar, his tuyg‘ularning o‘zgarishi.
5. Jamiyatning siyosiy-ijtimoiy idora etilishi mohiyatiga ko‘ra.
6. Ilmiy-texnik o‘zgarishlar. Ustuvor taraqqiyot mezoni sifatida yuksak texnologiyalar, informatsion boshqaruv sohalarining tobora mustahkamroq o‘rin tuta boshlashi.

Stratalarni o‘rganishi xalqimiz tarkibidagi rang-baranglikni aniqlash imkonini beradi. Xalqimiz o‘z stratalarini himoya qilib kelgan. Bu himoya nafaqat qavmlar, shakllangan kasb va ijtimoiy guruuhlar mavqeyini muhofaza etish tarzida, balki axloqiy yondashuvlar tizimini, turmush tarzi yaxlitligini, xalq urf-odat va an‘analarini saqlash uchun kurash lavhalarida ham namoyon bo‘lib kelgan. Masalan, o‘zbek xalqi butun yaxlitligicha erkaklar va ayollar stratasiga bo‘linadi. O‘zbek ayollari o‘zbek erkaklaridan bir makon va bir zamonda istiqomat qilishlaridan qat’iy nazar, turmush tarzi, faoliyat yo‘nalishlari, estetik qarashlari va urf-odatlarga ko‘ra ma’lum darajada ajralib turadilarlar.

O‘zbek xalqi stratalarining tarkibi va tizimi tahlili etno-regional xususiyatlarni ham hisobga oladi. Ma’lumki, o‘zbek xalqi tarixan shakllangan 92 urug‘-etnoelement mahsulidir. Bu etno — tasnif tarkibidagi har bir urug, xoh u mang‘it bo‘lsin, xoh u barlos bo‘lsin, yoki qo‘ng‘iroq, yovmit bo‘lsin, alohida stratifikatsion tadqiqot talab etuvchi etnik birliklardir. Mazkur urug‘larning ijtimoiy-tarixiy o‘rni tahlil etilganda, uning‘ nafaqat o‘zbek xalqi etnogenezisini o‘rganishdagi ahamiyati oydinlashadi, balki uning umumturkiy makroetnosida tutgan tarixiy o‘rni va ijtimoiy mavqeyi yuzaga chiqadi.

O‘zbekistonda keng tarmoqli yaxlit stratifikatsion tadqiqot ishlarini amalga oshirish zaruriyati va dolzarbligi bugungi kunda o‘zbek xalqi milliy o‘zligini to‘g‘ri idrok etish, milliy mentalitet imkoniyatlaridan samaraliroq foydalanishga yo‘l ochadi. O‘zbekistonda ijtimoiy jarayonlar tarkibi va tizimini xarakterlovchi stratifikatsion tizimlar turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Ular quyidagilar:

- ijtimoiy-kasbiy tasnifga ko‘ra;
- qavm-sulolaviy asoslarga ko‘ra;
- madaniy-estetik darajalarga ko‘ra;
- yosh davrlariga ko‘ra;
- jinsiy tasnifga ko‘ra;
- etno-hududiy turlar;
- diniy-konfessional turlar;
- e’tiqodiy farqlarga ko‘ra;
- urug‘-qabilaviy;
- muayyan manfaatlar doirasida uyushgan korporativ;
- huquqbuzarlikka moyillikka ko‘ra;
- madaniy-ramziy intilishlarga, qiziqishlarga ko‘ra.

O‘zbekistondagi ijtimoiy stratifikatsiya jarayonlarni o‘rganishda konkret sotsiologik tadqiqot metodlari, xususiyat, anketa, intervyu, test, hujjatlarni o‘rgansh usullariga real holatlar taqozosi asosida yondashiladi va ular orqali olingan birlamchi ma’lumotlar kontent-analiz usulida qayta ishlanadi Shuningdek, tadqiqot davomida ilmiy-amaliy ekspeditsiyalar uyush-tirish, hududlarning obro‘li kishilaridan iborat ekspertlar guruhi fikrlarini to‘plash, Davlat statistika qo‘mitasi manbalaridan foydalanish ham ko‘zda tutiladi.

Jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalarni o‘rganishning asosiy tamoyillari mavjud bo‘lib, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- tadqiqotda ijtimoiy stratalarga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish, ularning ijtimoiy tarkib va tuzumdagagi o‘rni va mavqeyini hurmat qilish;
- stratalar ijtimoiy statikasi va dinamikasi jarayonlarini ilmiy baholashda tizimiylar va yaxlit yondashish;
- O‘zbekistondagi ijtimoiy stratalarning milliy mentaliteti, hududiy xususiyatlarini alohida e’tiborga olish;
- ijtimoiy stratalar tarkib topishiga sezilarli ta’sir o‘tkazuvchi siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy, diniy-konfessional, mafkuraviy omillarni o‘rganish;
- ijtimoiy stratalar tasnifini tuzishda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanish.

Jamiyatdagi ijtimoiy stratalar mohiyatini o‘rganish, pirovard natijada “turli qarash va fikrga ega bo‘lgan ijtimoiy qatlamlar, siyosiy kuch va harakatlarning o‘ziga xos orzu-intilishlarini uyg‘unlashtiruvchi goya — Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddas maqsadga aylanishiga”<sup>1</sup> nazariy jihatdan ko‘mak beradi.

## Tayanch so‘z va iboralar

**Jamiyat** – insonlarning o‘zaro ta’siri va bog‘liqligini ifodalovchi birlashmalar yig‘indisi;

**jamoa** – muayyan hududga, umumiy ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy birlikka ega bo‘lgan insonlar majmuasi;

**boshqaruv** – tashkilot maxsus organining eng kam vosita sarflab yuqori natijaga erishish bo‘yicha tashkil etilgan faoliyat;

**ijtimoiy tizim** – individ guruh, tashkilotlarning ijtimoiy aloqa va munosabatlarda birlashgan bir butunligi;

**ijtimoiy stratifikatsiya** – jamiyatdagi hokimiyat, kasbiy, sulolaviy, moddiy mezonlarga ko‘ra tabaqlash;

**an’analar** – uzoq vaqt davomida avloddan-avlodga o‘tadigan ijtimoiy va madaniy meros.

## Savol va topshiriqlar

1. Jamiyat va ijtimoiy dinamik tizim deganda nimalar tushuniladi?
2. Jamiyat va taraqqiyot haqidagi rivojlanish nazariyalari nimalardan iborat?
3. An’naviy va zamonaviy jamiyatning xususiyatlari.
4. Jamiyatning turlarini ayting.
5. Ijtimoiy stratifikatsiya tushunchasi haqida nimalarni bilasiz?.
6. Ijtimoiy stratifikatsiya turlarinisanab bering.
7. Stratalarni o‘rganishning ahamiyati nimada?
8. O‘zbek xalq stratalarining tarkibini ayting.
9. Jamiyatda ijtimoiy tabaqlarni o‘rganganish tamoyillari deganda nimalar ko‘zda tutiladi?

---

<sup>1</sup> Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - 34-35-betlar.

## **4-bob. INDIVIDLAR VA GURUHLARARO IJTIMOIY MUNOSABATLAR HAMDA ALOQALAR**

### **4.1. Ijtimoiy aloqalar va munosabatlar**

Shaxsning jamiyatdagi o‘rni va mohiyati sotsiologiya fanining muhim va bahstalab sohalaridan biri bo‘lib keldi. Inson mohiyatini dastlab o‘rgan-gan olimlar Xitoydagi Konfutsiy va uning izdoshlari edi. Miloddan avvalgi 298-238-yillarda yashagan olim Sen-Tszi shunday deb yozgan edi: “Tug‘-ma xususiyatlar – bu samoviy munosabatlar hosili bo‘lib, ularga ta’lim yoki ularni odamning o‘zi yaratishi vositasida erishib bo‘lmaydi. Inson yovuz tabiatga ega. Insondagi ezgulik manfaatlar uchun orttirilgan fazilatdir. Hozirgi inson tug‘ilishidan boshlab foyda olishga intiladi. Bu shunga olib keladiki, kishilar o‘zaro raqobatlashadilar va bir-birlariga yon bermaydilar. Shuning uchun ham, tarbiya yo‘li bilan inson tabiatini o‘zgartirish, yaratilgan qoidalar asosida ta’lim berib, ularniadolatlilikka va mas’-uliyatlilikka o‘rgatish lozim”.<sup>1</sup>

Insonning muhim xususiyatlaridan biri – uning ijtimoiy mavjudot ekanlidir. Inson o‘zining ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida o‘zi kabi insonlar bilan birlashishga intiladi. Insonning ijtimoiylashuvi sun’iy xarakter kasb etib, u shaxs sifatida boshqa insonlar o‘rtasidagina shakllana oladi. Agar u insoniy munosabatlardan holi bo‘lsa, o‘zidagi yovuzlik yoki hayvoniy tabiatidan xalos bo‘la olmaydi. Insondagi bu tabiiy xususiyatni Abu Nasr Forobi quyidagicha ifodalaydi: “Har bir inson o‘z tabiatini bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, u bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga krita olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi... Shu sababli yashash uchun zarur bo‘lgan, kishilarni bir-birlariga etkazib beruvchi va o‘zaro yordamlashuvi orqaligina odam o‘z tabiatini bo‘yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a’zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko‘paydi va arning aholi yashaydi qismiga o‘rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi.<sup>2</sup>

Shu bilan birga, inson fikrllovchi mavjudotdir. U ko‘rgan va eshitgallarini yodda saqlaydi, o‘z fikrlari, tasavvurlash qobiliyati vositasida bilimlarni, ma’lumot va axborotlarni tahlil qiladi, umumlashtiradi, ularni trans-

<sup>1</sup> Антология мировой философии. В 4-х т. Москва, 1969 Т. 1, с.230-231.

<sup>2</sup> O’sha asar. 186-bet.

formatsiyalaydi, boshqalarga uzatadi, bilim va tajribalarni takomillash-tiradi, o‘z maqsadlari, orzulari va istaklarini tasavvur qila oladi. Insondagi bu xususiyatlarni Ibn Sino shunday talqin etadi: «Inson umumiylar qarash-larga nuqtayi nazar bildirish va alohida narsalar to‘g‘risida fikrlash qobili-yatiga ega u foydali yoki zararli ishni qilish va qilmaslik, go‘zallik va xu-nuklikni farqlash, yaxshi va yomonni ajratish qobiliyatlariga ega. Ular qi-yoslash va tafakkurlash vositasida shakllanadi... Shunday qilib, inson ruhi-ning birinchi kuchi aqliy mushohadaga taalluqli bo‘lib, u aqliy tafakkur deb ataladi. Ikkinchchi kuch esa tajribaga taalluqli va tajribaviy fikrlash, deb ataladi. Ular haqiqat yoki yolg‘onni, shuningdek, xususiy narsalarga nis-batan yaxshi va yomonni aniqlash uchun xizmat qiladi.<sup>1</sup>

Hozirgi davr sotsiologiyasi “inson” deganda Yerda yashayotgan mav-judot turlaridan biri tushuniladi. Inson alohida olingan tur (*Homo sapiens*) vakilini ifodalovchi umumiylar tushunchadir. Inson, umuman, inson zotining yig‘iq obrazi sifatida bioijtimoiy mavjudot bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida ham tabiatga, ham ijtimoiy hayotga mansubdir. Gegel ta’biri bilan ayt-ganda, “insonning o‘zida bevosita mavjudligi qandaydir tabiiydir, bu uning o‘z tushunchasiga binoan tashqidir; faqat o‘ziga tegishli tana va ruhini takomillashtirish vositasida, mohiyatan o‘zini o‘zi anglashi sababli ham u o‘zini erkin tutadi, u o‘ziga o‘zi egalik qilishga kirishadi va ham o‘ziga, ham boshqalarga nisbatan bo‘lgan munosabatlarda o‘ziga o‘zi egalik qiladi. Bu o‘ziga o‘zi egalik qilishga kirishish, shuningdek, bu holatni vo-qelik deb bilish shuni ko‘rsatadiki, inson o‘z tushunchasiga binoan (imko-niyat, qobiliyat, moyillik), endi o‘zini o‘ziniki deb biliishi, o‘zini xuddi predmetdek hisoblashi – oddiy o‘zini o‘zi anglashdan farq qilib, u haqi-qatda narsa (buyum) shaklida namoyon bo‘la olish qobiliyatiga erishadi”<sup>2</sup>.

Ijtimoiy aloqa va munosabatlar shaxsning ijtimoiylashuvi masalasini o‘rganishni taqozo etadi.

Ijtimoiy muhit ta’sirida shaxs shakllanib borar ekan, shu jarayonni tavsiyflash uchun “ijtimoiylashuv” tushunchasi ishlataladi. Dastlab bu tu-shuncha fonda XIX asrning oxirida paydo bo‘ldi. **“Ijtimoiylashuv”** degan-da shaxsning o‘z hayoti mobaynida o‘zi mansub bo‘lgan jamiyatining ijti-moiy me’yorlari va madaniy qadriyatlarini o‘zlashtirish jarayoni tushu-niladi. “Ijtimoiylashuv” tushunchasi “shaxsni tarbiyalash”, “shaxsni shakl-lantirish” tushunchalari bilan bog‘liq, biroq u kengroq bo‘lib, insonga qara-tilgan barcha ta’sirlarni qamrab oladi.

<sup>1</sup> Ибн Сино (Авиценна). Избранные философские произведения. Москва, 1980, с. 472-473.

<sup>2</sup> Гегель Г.В. Философия права. Москва, “Мысль”, 1990, с.113

Ijtimoiylashuv jarayonidagi ijtimoiy munosabatlarni tahlil qilish ruhiy va mantiqiy aspektga ega. Har qanday ijtimoiy o‘zaro ta’sirni shu ikki nuqtayi nazardan o‘rganish mumkin bo‘lgani uchun, tahlil qilishni ijtimoiy o‘zaro munosabatlarning eng umumiylarini va fundamental shakllaridan boshlab, undan maxsus – iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o‘zaro ta’sirning boshqa shakllariga o‘tish maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy o‘zaro ta’sirni sotsiologik nuqtayi nazardan tadqiq etishning ikki asosiy darajasi mavjud: mikrodaraja va makrodaraja. Kishilarning bir-biri bilan o‘zaro ta’siri, kichik guruhlararo o‘zaro aloqalar va interaksiya **mikrodarajada** o‘rganiladi.

Ijtimoiy aloqalarning **makrodarajasi** o‘z ichiga yirik ijtimoiy strukturalarni, jamiyatning asosiy institutlari din, oila, iqtisodiyotni oladi.

Odamlarning bir-biri bilan bog‘liq bo‘lishi natijasida ijtimoiy hayot vujudga keladi.

**Ijtimoiy aloqa** – odamlarning ijtimoiy ta’siri orqali amalga oshiriladigan bog‘liqligi bo‘lib, u odamning boshqalardan xuddi shunday munosabatni kutishiga asoslanadi. Ijtimoiy aloqa quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- aloqa subyektlari (ikkita yoki minglab bo‘lishi mumkin);
- aloqa predmeti (nima sababdan aloqa amalga oshirilayapti);
- o‘zaro munosabatlarni tartibga solish mexanizmi. Ijtimoiy aloqa quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

a) ijtimoiy kontakt (odamlar orasidagi aloqa yuzaki, tez o‘tib ketadigan, obyektni boshqasi bilan almashtirish mumkin);

b) ijtimoiy o‘zaro ta’sir (kishilarning bir-biriga qaratilgan doimiy, muntazam ijtimoiy ta’siri bo‘lib, bunda bir tomon ikkinchisidan javob reaksiyasini kutadi). Ijtimoiy o‘zaro ta’sir ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy umumiylilik ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

**Ijtimoiy munosabatlar** – hamkorlarning barqaror o‘zaro ta’siridir.

Shaxslararo o‘zaro ta’sirni mikrodarajada, avval, ikki kishi orasida, keyin guruhi ichida ko‘rib chiqamiz.

P.Sorokin ta’kidlaganidek, ruhiy va ijtimoiy o‘zaro ta’sir quyidagi hollarda amalga oshadi:

- ruhiyat va sezgi organlari mavjudligida (odamning kechinmasi va fikrini bilish uchun uning yuz va ko‘z ifodasini ko‘rish, ovozi va gapini eshitish kerak);
- o‘zaro ta’sir qiluvchi odamlar bir xil ruhiy kechinmaga ega bo‘lganda ruhiy ijtimoiy o‘zaro ta’sir amalga oshadi.

Ikki va undan ortiq odamning kontakti turli shakllarda bo‘lishi

mumkin:

- 1) oddiy birgalikda ishtirok etish;
- 2) axborot almashuv;
- 3) hamkorlikdagi faoliyat;
- 4) teng faollik (ijtimoiy ta'sir, hamkorlik, raqobat, nizo va hokazo).

Bern ta'kidlaganidek, “Bir guruhda bo‘lgan odamlar beixtiyor birlari bilan so‘zlashadilar, yoki bir-birlarining borligidan xabardorliklarini bildiradilar. Bu esa o‘zaro munosabatni vujudga keltiradi”.

O‘zaro ta’sir natijasida bir odamning biron bir muammoga nisbatan bergen qayta javobi boshqa odamning javobiga yaqin bo‘lsa, kishilarning xulq-atvori ham o‘xhash bo‘la boradi va u ijtimoiy ta’sirni anglatadi.

Ijtimoiy ta’sir muammosi bilan bog‘liq konformlik va ishontirish yoki suggestiyani ajratib ko‘rsatamiz.

**Konformlik** – bu guruhning ta’siriga berilish, boshqa shaxslar ta’sirida o‘z xatti-harakatini o‘zgartirish, atrofdagilar bilan nizoga kirishmaslik uchun ongli ravishda ularga yon bosish.

**Ishontirish yoki suggestiya** — shaxsning boshqa odamlar yoki guruh ta’siriga beixtiyor berilishi bo‘lib, bunda odam o‘z qarashlari yoki fikrining o‘zgarganini sezmay ham qoladi.

Ijtimoiy birdamlik tushunchasi ijtimoiy munosabatlar tizimida muhim o‘rin tutadi. Chunki birdamlik – bu ko‘pgina ma’naviy omillar majmuasidan tashkil topgan sotsiologik kategoriya bo‘lib, u ijtimoiy hayotda faoliyat ko‘rsatayotgan insonlarning ijtimoiy taraqqiyot masalalarini hal qilishlaridagi hamkorligining ko‘rinishidir. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, sotsiologiya faniga ijtimoiy jipslashuvni bildiradigan tushuncha sifatida bu ibora birinchi bo‘lib O.Kont kiritgan edi. Bu muammoga ko‘pgina mutafakkirlar o‘z e’tiborlarini qaratganlar. Ayniqsa, E.Dyurkgeym, G.Spenserlar bu muammoni chuqur tahlil qilganlar. Lekin ular o‘z tadqiqotlarini turli xil yo‘nalishlarda olib bordilar. E.Dyurkgeymning fikricha, ijtimoiy birdamlik bu axloqiy tamoyil va oliy universal qadriyat bo‘lib, u jamiyatning har bir a’zosi tomonidan tan olinadi. O.Kont va G.Spenserlarning tadqiqotlarida ijtimoiy hamjihatlikning asosini iqtisodiy manfaatlar tashkil qilishi markaziy o‘rin egallaydi. G.Spenser o‘zining birdamlik ta’limotida majburiy va ko‘ngilli hamjihatlikni ko‘rsatadi. Uning fikricha, kishilik jamiyatni o‘zining rivojlanish yo‘lida ikki davrga – harbiy va sanoat davrlariga bo‘linadi. Harbiy turdagи jamiyat iyerarxik tartibi va

kuchli markazlashgan nazorati bilan xarakterlanadi. Sanoat turidagi jamiyat esa osoyishta ijtimoiy hamkorlikning erkin shakllarini ifoda etadi. Muammoni ikkita jihatga ajratib tahlil qilishni E.Dyurkgeymning ilmiy faoliyatida ham ko‘rish mumkin. Yuqorida e’tirof etilganidek, u o‘z ta’limotida hamjihatlikning mexanik va organik turlarini ajratadi.

Sotsiologiyada begonalashuv muammosi muhim masalalardan hisoblanadi. Zamonaviy jamiyat hayotida begonalashuvning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) iqtisodiy; 2) siyosiy; 3) madaniy; 4) ijtimoiy; 5) psixologik. Ushbu begonalashuv turlari o‘zlarining ma’lum bir shakllariga egadirlar. Masalan, iqtisodiy begonalashuv uchta shaklga ega:

- a) faoliyatdan begonalashuv;
- b) faoliyat boshqaruvidan begonalashuv;
- v) faoliyat natijalaridan begonalashuv.

Siyosiy begonalashuv siyosiy hokimiyatdan begonalashishdir; madaniy begonalashuv madaniyatdan va ma’naviyatdan begonalashish bo‘lsa, ijtimoiy begonalashuv muloqotdan, insonlarning bir-biridan uzoqlashishi; psixologik begonalashuv odamning o‘z-o‘zidan begonalashishidan iborat bo‘ladi.

Begonalashuv jarayoni va tanazzul bir-biriga bog‘liq hodisalardir Agar jamiyatda ishlab chiqarish sur’atlari keskin pasaysa, xo‘jalik aloqalari uzilsa, pulning qadri tushib ketib, narxlar tez sur’atda oshib ketsa, boshqaruv tuzilmalari izdan chiqsa va siyosiy tangliklar vujudga kelsa, bir jamiyatning hamma sohalari tanazzulga uchragan, degan fikrga kelishimiz mumkin.

## **4.2. Shaxslararo o‘zaro ta’sir nazariyasi. Nizolar**

Shaxslararo o‘zaro ta’sirning bir qancha nazariyalari mavjud:

- almashuv nazariyasi (J.Xomans, P.Blau);
- ramziy interaksionizm nazariyasi (Dj. Mid, T. Blumer);
- taassurotlarni boshqarish nazariyasi (E. Gofman);
- psichoanalitik nazariya (E. Freyd) va boshqalar.

**Almashuv nazariyasi** ijtimoiy xulq-atvorni bir-biri bilan moddiy va nomoddiy uzlusiz ruhiy bixevoirizmga asoslangan almashuv jarayonida bo‘lgan kishilarning o‘zaro ta’siri deb biladi. Bixevoirizmga binoan insonning xatti-harakati quyidagi asosiy qonunga bo‘ysunadi: shaxsning ijtimoiy faoliyati qanchalik ko‘p taqdirlansa, u shu faoliyatni shunchalik ko‘p amalga oshirishga harakat qiladi. Agar shaxs boshqa bir shaxs bilan bo‘ladigan o‘zaro ta’sirdan o‘ziga ijobjiy natija kutsa, u kontakt (aloqa)ni davom

ettiradi, kutilgan natijaga erishmasa, aloqani to‘xtatadi. Kontakt muayyan sarf-xarajatlar bilan kechadi. Agar odam aloqadan xarajatdan ko‘ra ko‘proq ijobiy natijaga erishsa, munosabatlar barqaror bo‘ladi (M.Doych).

**Qadriyat vaziyati** shaxs uchun ma’lum bir natijaga erishish qanchalik qimmatli bo‘lsa, natijaga erishishga shunchalik ko‘p intilishini ko‘rsatadi.

“**To‘yish – ochlik**” vaziyati insonning o‘tmishda qanchalik ko‘p taqdirlansa, uning yana taqdirlanishi shunchalik kam qiymatga ega bo‘lishini ko‘rsatadi.

“**Agressiya va qo‘llab-quvvatlash**” vaziyatiga ko‘ra inson o‘zi kutgan mukofotni olmasa yoki jazolansa (kutilmaganda), u agressivligini namoyon qiladi, bunday xatti-harakat natijasi shu shaxs uchun qimmatlidir. Shunday qilib, ijtimoiy aloqa quyidagilar asosida o‘rnataladi va qo‘llab-quvvatlanadi:

1) agar ijtimoiy aloqa shaxsiy maqsadga muvofiqlikka mos bo‘lsa va sarflangan harakat taqdirlanishdan ortiq bo‘lmasa;

2) o‘zaro bitimga kelish mumkin bo‘lsa hamda to‘lov mezoni va ijtimoiy o‘zaro ta’sir barcha ishtirokchilarining taqdirlanishi birligi ta’milanganda. Tomonlardan birining manfaatlari tazyiq ostiga olinganda, u bu aloqalarni qaytadan ko‘rib chiqishga intiladi, ularni yangidan tartibga solishga harakat qiladi, natijada nizolar uchun asos paydo bo‘ladi.

Ushbu vaziyatlar kishilarniig o‘zaro ta’siri o‘zaro foydali va simmetrik bo‘lganagi xatti-harakatini tushuntirish uchun qo‘l keladi, lekin bu nazaraya orqali hokimiyat, zo‘rlik, ijtimoiy tengsizlikni tushuntirish qiyin.

Nosimmetrik munosabatlarni tushuntirish uchun Xomans **eng kam manfaat tamoyilini** ilgari suradi. Unga ko‘ra, eng kam manfaatdor bo‘lgan shaxs vaziyatning boshqa ishtirokchilariga almashuv (aloqa) shartlarini bajarishga majburlashi mumkin.

Natijada hukmronlik vujudga keladi. Chunki bir kishi aloqada boshqalarni ko‘proq taqdirlash imkoniga ega. Xomans bunday munosabatlarni aloqaning nosimmetrik ko‘rinishi deydi.

Nizolar – ijtimoiy faoliyatning keng tarqalgan shaklidir. Nizolar asosida odamlarning bir-biri bilan kelisha olmasligi, ziddiyatlar, shuningdek, talab, manfaat, maqsadlari turlicha bo‘lgan kurashuvchi tomonlarning mavjudligi yotadi. Bunda bir tomonning maqsadlari boshqalarning o‘z maqsadiga erishishiga xalaqit beradi, ya’ni raqobat nizoli vaziyatning tarkibiy qismini tashkil qiladi.

Nizolarni yuzaga keltiruvchi kuchlar – bu alohida shaxs emas, balki ko‘pchilikni birlashtirgan ijtimoiy guruhlardir. Hokimiyatini amalga oshi-

rish bilan bog‘liq ijtimoiy guruhlarning manfaatlari o‘rtasidagi angla-shilmovchiliklar shu ma’noda siyosiy tusga ega bo‘lishi ham mumkin. Bu kabi yirik guruhlar birlamchi (bevosita ishtirokchilari), ikkilamchi (keyinchalik aralashuvi) va uchlamchi (bartaraf etish tarafдорлари) bo‘lishlari mumkin. Ijtimoiy nizolar yuzaga chiqishidan oldin ko‘pincha yashirin tarzda kechadigan nizo vaziyati bo‘lib, u biror-bir tashqi voqeа, ta’sir orqali ochiq tusga kirishi mumkin. Ba’zan qonunning buzilishi shu narsaga sabab bo‘ladi.

Umuman olganda, ijtimoiy nizolar turli shakllarda kechadi. Masalan, manfaatlar nizolari jamiyatdagi mavjud milliy daromadni taqsimlash, soliqning hajmi, ijtimoiy ta’midot kabi muammolar yuzasidan kelib chiqadi. Qadriyatlar nizolari esa, jamiyatning turli tabaqalari o‘rtasida, ba’zan avlodlar o‘rtasida kelib chiqadigan ko‘ngilsizliklardir. O‘z-o‘zini belgilash nizolari shaxs o‘zini yashab turgan jamiyatni va davlati bilan emas, balki biror-bir alohida, ajrim holdagi (etnik, diniy va h.k.) bilan ko‘proq tarzda mujassamlashtirishidan kelib chiqishi mumkin. Masalan, mamlakatimizda faoliyati oshkor bo‘lib qolgan ba’zi bir diniy ekstremistik to‘da a’zolari o‘zlarini O‘zbekiston davlati, o‘zbek jamiyatni bilan emas, qandaydir “xalifalik”, “amirlik” bilan mujassamlashtirib yurishgan ekan. El-yurt qadrini bilmagan bunday kimsalar endi sharmisor bo‘lib, tavba-tazarru qilishmoqda.

Siyosiy nizolar shunisi bilan farq qiladiki, ular ayrim olingen guruhlar, toifalar o‘rtasidagi emas, balki siyosiy hokimiyat subyektlari o‘rtasida vujudga keluvchi anglashilmovchiliklardir. Ular aslida siyosiy munosabat-larning shunday holatiki, bunda turli tomonlar va kuchlar hokimiyat uchun nokonstitutsiyaviy asosda kurash olib boradilar. Shu o‘rinda demokratiya me’yorlari siyosiy nizolarning oldini olishda katta ahamiyatga ega.

Nizolar quyidagi turlarga bo‘linadi: **kognitiv** (kishilarning nuqtayi nizari kurashi) **shaxslararo, shaxslar va guruhlararo ijtimoiy** nizo (turli ijtimoiy hamjamiatlar – sinflar, millatlar, davlatlar, ijtimoiy institutlar to‘qashuvi) ga o‘sib o’tishi mumkin.

Nizolar realistik va norealistik bo‘lishi mumkin. **Realistik** nizolar aniq natijalarga erishishga qaratilgan bo‘lib, ular ishtirokchilarning ba’zi bir noto‘g‘ri talablari yoki muayyan imtiyozlarning nohaq taqsimlanishi va resurslarning cheklanishi (hokimiyat, boylik, hudud) bilan vujudga keladi.

**Norealistik** nizolar to‘planib qolgan salbiy emotsiya, xafagarchilik, dushmanlikning ifodalanishidir, bunda kuchli nizoli o‘zaro ta’sir natijaga erishish vositasi emas, balki yolg‘iz maqsad bo‘lib qoladi.

Nizolar quyidagi guruhgaga ham ajraladi:

- destruktiv nizo samarali o‘zaro ta’sirni izdan chiqarib, ikki tomonga zarar keltiradi;

- konstruktiv nizo ziddiyatlarni aniqlash, ularni hal qilish, ilgari harakat qilish, rivojlanishga turtki bo‘ladi.

A.Kozerning fikricha, nizo faqat ijobiy yoki faqat salbiy oqibatga ega bo‘lmaydi, balki bir paytning o‘zida ham salbiy, ham ijobiy oqibatga ega bo‘lishi mumkin. Nizo ijtimoiy o‘zaro ta’sir shakli sifatida ijtimoiy strukturani shakllantirish, standartlashtirish va qo‘llab-quvvatlash vositasi hisoblanadi.

Arastu, Gobbs, Gegel, Veber, Darendorf kabi mutafakkir va siyosat-chilarning ko‘plab asarlarida nizolar me’yordan chetga og‘ish emas, balki ijtimoiy munosabatlar me’yori, jamiyatning normal holati deb ta’riflanadi.

Nizolar nazariyasi nizoni ijtimoiy rivojlanish manbayi, ijtimoiy dunyoni o‘zaro kurashayotgan jang maydoni deb qaraydi.

Hokimiyat egalari uni saqlab qolishga, boshqalar esa vaziyatni o‘zgartirishga intiladi. Darendorfning fikricha, rollar tarkibi ayni bir paytning o‘zida ham hamkor, ham nizoli manfaatlarni keltirib chiqaradi.

Sotsiolog Jon Reks ijtimoiy tartib taqsimoti ustidan nazorat o‘rnatuvchi ayrim guruhlarning shaxsiy hokimiyatini himoya qilishning ongli natijasi, degan xulosaga keladi.

Har qanday ijtimoiy tizim resurslarni cheklash bilan to‘qnashadi va ularni taqsimlash mexanizmiga ega bo‘ladi:

- iqtisodiy taqsimot;
- hokimiyat munosabatlari iqtisodiy taqsimot tizimidagi har qanday tartibsizlikning oldini oladi;
- qadriyatlar hokimiyat taqsimotining qonuniyligini himoya qiladi;
- diniy e’tiqod va marosimlar qadriyatlarga qat’iy bo‘ysunish mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Integratsiya va ijtimoiy tartib taqsimot jarayonining natijasi hisoblanadi.

### **4.3. Ijtimoiy guruhlardagi o‘zaro ta’sir turlari va ularning xususiyatlari**

Ijtimoiy o‘zaro ta’sirning umumiyligi shakllaridan biri ijtimoiy guruhlardir. Unlarda har bir odamning xatti-harakati va ijtimoiy maqomi shu guruhdagi boshqa a’zolarning faoliyati va mavjudligi bilan bog‘liq bo‘ladi.

O‘zaro ta’sirda tomonlarning bir-biri bilan bog‘liqligi teng bo‘lishi yoki bir tomon ikkinchisiga kuchli ta’sirda bo‘lishi mumkin. Bunda bir tomonlama yoki ikki tomonlama interaksiyani ajratib ko‘rsatamiz. Interaksiya inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab olishi (total interaksiya) yoki ma’lum bir faoliyat tarmog‘ida bo‘lishi mumkin.

Interaksiyaning intensivligi o‘zaro ta’sirga kirishgan odamlarning fa-

olligi va ruhiy tajribasining nisbatini bildiradi.

O‘zaro ta’sirning intensivligi hayotiy faoliyatning o‘zaro munosabat-larga qay darajada bog‘liqligini ko‘rsatadi: u maksimal va minimal katta liklar orasida bo‘lishi mumkin. Interaksiya sohalari qanchalik ekstensiv yoki intensiv bo‘lsa, o‘zaro ta’sirga kirishuvchi tomonlarning hayoti, xattiharakati, ruhiyati shunchalik qaram bo‘ladi.

Bir odamning boshqa bir odamga ta’siri har qanday interaksiyanı vujudga keltiradi. Mana shu ta’sir mavjud bo‘lar ekan, interaksiya davom etadi. Bir tomonning mavjudligi haqidagi fikr boshqa odamga ta’sir qilmay qo‘ygandagina, interaksiya to‘xtaydi.

O‘zaro ta’sirlar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- tashkil etilgan interaksiya;
- tashkil etilmagan interaksiya.

Tomonlarning munosabati, faoliyati muayyan huquq, majburiyat va funksiya strukturasini vujudga keltirsa va ma’lum bir qadriyatlar tizimiga tayansa, *interaksiya tashkil etilgan* hisoblanadi.

Munosabat va qadriyatlar uyushmagan bo‘lsa, huquq va majburiyatlar, ijtimoiy mavqelar aniqlanmasa, interaksiya tashkil etilmagan hisoblanadi. P.Sorokin ijtimoiy o‘zaro ta’sirning quyidagi tiplarini ajratib ko‘rsatadi:

- interaksiyaning tashkil etilgan antagonistik tizimi mavjud bo‘lib, u majburlashga asoslanadi;
- interaksiyaning tashkil etilgan birdamlik tizimi esa ixtiyoriy a’zolikka asoslanadi;
- tashkil etilgan-aratash, *hamkor antagonistik tizim*, qisman, majburlash, qisman shakllangan qadriyatlar va munosabatlarni ixtiyoriy qo‘llab-quvvatlash bilan boshqariladi.

Ko‘plab tashkil etilgan ijtimoiy interaktiv tizimlar oiladan tortib davlatgacha **tashkil etilgan aralash turga** kiradi. Mavjud tashkil etilgan guruhlarda o‘zaro munosabatlarning 3 turini ko‘rsatish mumkin:

- 1) oilaviy; 2) kelishilgan; 3) majburiy.

Birlashtiruvchi qadriyatlarda quyidagi guruhlarni ko‘rsatish mumkin:

- “bir tomonlama” guruhlari (biosotsial guruhlari – irqiy, jinsiy, yosh, sotsiomadaniy guruhlari: avlod, til guruhlari, diniy guruhlari, kasbiy va siyosiy, ilmiy uyushmalar) tuzilishi asosiy qadriyatlar qatoriga asoslanadi;
- “ko‘p tomonlama” guruhlari bir qancha qadriyatlar qatorining birlashuviga asoslanadi: oila, jamoa, millat, ijtimoiy sinf.

Guruhlar faoliyati quyidagi dinamik jarayonlar asosida amalga oshadi:

- guruh a’zolariga ta’sir o’tkazish, majburlash;

- ijtimoiy rollarning shakllanishi, rollarning taqsimlanishi;
- jamiyat a’zolari faolligining o’zgarishi (*fatsilitatsiya* – kishilar davrasida odam energiyasining oshishi (sportda) ingibitsiya – kishilar davrasida odam faoliyatining pasayishi);
- guruh a’zolarining fikri, bahosi xatti-harakati me’yorlarining o’zgarishi: “*guruhiy me’yorlashuv*” fenomeni me’yor – o’rtacha guruhiy standartning shakllanishi; “*guruhiy qutblarga ajralish, ekstremizatsiya*” – guruhdagi umumiy fikrning barcha guruhiy fikrlarga, jumladan, guruhning fikri individning fikridan qaltis bo’lsa, shu qaltis fikrga yaqinlashuvi; “*avtoritetga bo’ysunish*” fenomeni “*mas’uliyat belgisi*” fenomeni bilan birgalikda mas’uliyatni o’zidan boshqa barcha kishilarga, rahbarga yuklash.

Ijtimoiy fatsilitatsiya shuni ko’rsatadiki, boshqalarning huzurida odamning dominantlik reaksiyasi oshadi, natijada u oddiy va o’ziga yaxshi tanish bo’lgan harakatni samaraliroq bajaradi. Masalan, sportchilar musobaqada, kurashda ko’proq natijaga erishadi. Murakkab vazifalarda esa kishilarning huzurida noto‘g’ri reaksiya natijasida samara pasayadi, ya’ni *ingibitsiya* vujudga keladi. Masalan, imtihonda bilganini aytib berolmaslik yoki sahnada matnni esdan chiqarib qo‘yish hollari uchraydi.

N.Kostrell fikricha, odamlar qanday baho berar ekan, degan tushuncha ta’sirida hayajonlanish fatsilitatsiya va ingibitsiyani vujudga keltiradi. Musobaqa ijtimoiy o’zaro ta’sirning bir ko’rinishi sifatida ijtimoiy fatsilitatsiya, ya’ni boshqalar bilan o’zini solishtirganda natjalarning yaxshilashiga misol bo’ladi. Lekin har bir odamning shaxsiy harakat qilishi individual baholanganda ijtimoiy fatsilitatsiya namoyon bo’ladi. Agar odamlar umumiy maqsad uchun o’z sa’y-harakatlarini birlashtirsalar va bunda har bir odam hamkorlikdagi natija uchun javobgar bo’lmasa, ish natijasi individual baholanmasa, odamlar astoydil ishlamasliklari mumkin, ya’ni *ijtimoiy dangasalik* namoyon bo’ladi. Oqibatda, guruhning jamoadagi ish qobiliyati guruh a’zolari umumiy ish qobiliyatining yarmidan ham oshmaydi. Faoliyat guruh vaziyatining baholanishidan qo’rqish tuyg’usini kamaytirish, «boshqalar orqasiga berkinish»ga imkon berishi guruh a’zolari faolligini susaytiradi. Agar guruhda vazifa murakkab, jozibali, maroqli, shuningdek, guruh a’zolari o’zaro do’st bo’lsa va har bir shaxsning hissasi e’tiborga olinsa, odam o’zining hissasini foydali, tengsiz deb biladi.

Ijtimoiy fatsilitatsiya masalasi muayyan guruh odamni ta’sirlantirishi ni, ijtimoiy dangasalik esa guruhda mas’uliyatning pasayishini ko’rsatadi. Mas’uliyatning pasayishi va ta’sirlanish birlashsa me’yoriy vazminlik, o’z-o’zini tuta bilish susayadi, Shuning uchun ham, guruhda odam bir o’zi qolganda qilmaydigan ishni, hatto jinoyatni ham amalga oshirishi mumkin:

deindividualizatsiya fenomeni – anonimlikni ta'minlaydigan va alohida har bir odamga diqqatni qaratmaydigan vaziyat vujudga kelganda o'z-o'zini anglab yetish hamda shaxsiy mas'uliyat hissining yo'qolishi shakllanadi.

#### **4.4. Ijtimoiy harakatlar**

Tashkil etilmagan guruhlarda, olomon ichida odamlarning faoliyati ja-miyatning shakllangan tartibiga zid turadi. Kishilarning jamoadagi xulq-atvorining elementar shakllari nisbatan stixiyali bo'lib, noaniq vaziyatda va xavf-xatarda bu xatti-harakatni oldindan aytib bo'lmaydi. Jamoa xatti-harakati tabiatini aylanma reaksiya yordamida tushunish mumkin. Ijtimoiy o'zaro ta'sirning bu shaklida kishilar bir-birlarining kayfiyati, his-haya-jonini ifodalaydi.

Ijtimoiy notinchlik – ko'plab kishilarning ichki keskinligi, tarangligi bo'lib, u faoliyatning tartibsizligi va muvofiqlashtirilmaganligida ifodalanadi. U aylanma reaksiyaga jalb etilib, boshqalarga ham ta'sir ko'rsatadi.

Odamlarning bir-biriga nisbatan ta'sirchanligi oshganda, shuningdek, shakllangan turmush tarzi buzilgan paytlarda va kishilar birgalikda uni boshidan o'tkazganda ijtimoiy notinchlik paydo bo'ladi. U inqilobiy besaranjomlik, noroziliklar, diniy hayajonlar, mehnat nizolari paytida ko'p uchraydi.

Ijtimoiy notinchlik quyidagi xususiyatlarga ega:

- xulq-atvorning tartibsiz xarakteri. U kishilar tanglik va og'ir ahvolda qolib, faoliyat ko'rsatishlariga kuchli ehtiyoj vujudga kelganda, lekin aniq bir maqsadlari bo'limganda, namoyon bo'ladi;
- kuchli tashvish, xavotir, vahima, qo'rquv, ishonchsizlik, aggressivlik tuyg'ulari;
- ta'sirchanlik, biron narsaga ishonish, ruhiy beqarorlik va yo'lbochilar fikriga berilish.

Jamoada hayajonlanish, qo'zg'alish keng tarqalganda ijtimoiy infeksiya (yuqumlilik) oshadi, ya'ni biron-bir kayfiyat, xatti-harakat (chayqov-chilik, moliyaviy vasvasa, vatanparvarlik jazavasi) vujudga keladi.

Sotsiologiyada elementar jamoa guruhlarining to'rt turini ajratib ko'rsatish mumkin (G.Blumerga ko'ra):

- harakatdagi olomon (agressiv olomon);
- ekspessiv olomon (masalan, diniy sektalarda raqsga tushayotgan, jazavadagi olomon);
- omma (ommaviy xatti-harakatda ishtirok etadigan, lekin hech qanday ijtimoiy tashkilotga ega bo'ligan, bir-birini tanimaydigan kishilar);
- jamoatchilik (biron-bir muammo bo'yicha turli fikrga ega bo'lgan

kishilar guruhi).

Bu ijtimoiy guruhlar tashqi ta'sir natijasida emas, balki ichki bir sabab vositasida vujudga keladi. Ularning faoliyati mavjud madaniy me'yorlar orqali belgilanmaydi.

Umuman olganda, jamiyat quyidagi buyruq, farmoyishlar yordamida faoliyat ko'rsatadi:

- olomon aloqa o'rnatish orqali harakat qiladi (odamlarning bir-biriga nisbatan ta'sirchanligi yuqori bo'ladi, kayfiyatga ongli bo'lмаган holda javob beradi, birgalikda faoliyatga ichki bir turtki yordamida kirishadi);

- ommadagi individual tanlash, qarashlarning mos kelishi orqali jamoatchilik o'ziga xos birlikni tashkil qiladi va muayyan umumiy qarorning bajarilishi yoki jamoatchilik fikrining tashkil topishi uchun harakat qiladi.

Jamoatchilik fikri jamoa mahsuli bo'lib, uni o'zida ifodalaydi.

Jamoatchilik fikrining shakllanishi bir necha yo'llar bilan amalga oshadi, masalan:

- manfaatdor guruhlar manfaatdor bo'lмаган guruhlarga nisbatan boshqalar fikrini bahs-munozaralar orqali shakllantiradi;

- odamlarni muayyan nuqtayi nazarni qabul qildirishga qaratilgan tashviqotlar orqali ham jamoatchilik fikri shakllanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan jamoa guruhlari ijtimoiy o'zgarishlardan dalolat beradi. Ular yangi jamoa xulq-atvori, yangi ijtimoiy hayot shakllarining rivojlanishi, yangi ijtimoiy tartiblarning rivojlanishda muhim rol o'yaydi. Ijtimoiy harakat dastlab boshlangan paytda yaxshi tashkil etilmagan bo'ladi. U rivojlanishi bilan tashkilotga, an'analar, mustahkamlangan rahbarlik, ijtimoiy tartib va qadriyatlarga ega bo'la boradi. Ijtimoiy harakat quyidagi mexanizmlar yordamida rivojlanib, tashkil etilishi mumkin:

- odamlarning bir-biri bilan birdamligi va hamkorligi tuyg'usining tashkil etilish jarayoni, muayyan ijtimoiy harakat tarafdorlari orasida o'zaro xayrixohlikning shakllanishi kelishilgan xatti-harakatni paydo qiladi;

- guruhlar ichida va guruhlararo munosabatlarning rivojlanishi, harakat a'zolarining o'z faoliyati haqqoniyligiga ishonishi ularni o'z maqsadlari atrofida birlashtiradi, dushmanning borligini tan olish harakat birdamligini ta'minlaydi;

- tantanali marosim va urf-odatlardan foydalanish: ommaviy miting, parad, yubiley tantanalari, shiorlar, qo'shiqlar, she'rlar, bayroqlar va hokazolar ijtimoiy harakatni rivojlantirib mustahkamlaydi, shu marosimlarning har bir ishtirokchisi o'z-o'ziga baho beradi, natijada u o'zini muhim bir shaxs deb hisoblaydi;

- harakatga barqarorlik va muayyanlik beradigan guruh axloqining shakllanishi: harakat maqsadining haqqoniyligi va odilligiga hamda maqsadga erishishga ishonish;
- harakat maqsadi va vazifalari shakllanadigan ta’limotlar to‘plami – guruh mafkurasining rivojlanishi.

Ijtimoiy harakatning muvaffaqiyatli rivojlanishi yuqorida ko‘rsatilgan mexanizmga, ijtimoiy oqibat esa ijtimoiy harakat xarakteriga (inqilobiy yoki islohot harakati) bog‘liq.

### **Tayanch so‘z va iboralar**

**Ijtimoiylashuv** – shaxsning ijtimoiy me’yorlar va madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayoni;

**ijtimoiy aloqa** – odamlarning ijtimoiy ta’sir orqali amalga oshiriladigan bog‘liqligi;

**ijtimoiy munosabatlar** – hamkor shaxslarning barqaror o‘zaro ta’siri;

**konformlik** – guruhning ta’siriga ongli ravishda berilish;

**suggestiya** – atrofdagi kishilar ta’siriga qanday berilganini sezmay qolish;

**nizo** – shaxslar, ijtimoiy guruhi, va ijtimoiy tashkilotlar talab, manfaat hamda maqsadlarining mos kelmasligi;

**motivatsiya** – shaxsiy yoki guruhiy ehtiyojlarni amalga oshirishdagi harakatlantiruvchi istak;

**ipteraksiya** – kishilarning guruh va jamiyatdagi o‘zaro ta’siri;

**maqom** (status) – individning guruh yoki jamiyatdagi ijtimoiy o‘rni.

### **Savollar va topshiriqlar**

1. “Ijtimoiylashuv” tushunchasi nimani anglatadi?
2. Ijtimoiy aloqaning mohiyati nimada?
3. Ijtimoiy munosabatlarning mohiyatini ayting.
4. Konformlik va suggestiya deganda nimani tushunasiz?
5. Shaxslararo o‘zaro ta’sir qanday yuz beradi?
6. Xomansning “eng kam manfaat” tamoyili nimadan iborat?
7. Nizolar qanday yuzaga keladi?
8. Nizolarning destruktiv va konstruktiv turlari qanday kelib chiqadi?
9. Ijtimoiy guruh jamiyatda qanday vazifani bajaradi?
10. O‘zaro ta’sir turlari va uning shakllarini ayting.
11. Ijtimoiy notinchlikning namoyon bo‘lishi nimalarda ko‘rinadi?

## **5-bob. SOHALAR SOTTSIOLOGIYASI. SIYOSIY VA IQTISODIY SOHALAR SOTTSIOLOGIYASI**

### **5.1. Siyosiy sotsiologiya. Hokimiyat, hukmronlik va avtoritet**

**Siyosiy sotsiologiya** – sotsiologik nazariyaning bir qismi bo‘lib, jamiyat va davlat ijtimoiy tuzum va siyosiy institutlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganuvchi fan. Siyosiy sotsiologiya siyosiy fanlardan farq qiladi va bu farq o‘rganish predmetida ifodalanadi. Siyosatshunoslik jamiyatning siyosiy hayotini, ya’ni davlat hokimiyati, uni egallah va undan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan siyosiy tizimdagи munosabatlarni o‘rganadi.

Siyosiy sotsiologiya jamiyatning davlat, partiyalar, ijtimoiy-siyosiy tashkilot va individlarga ta’siri, ularning siyosiy xulq-atvorini o‘rganadi. “Siyosiy sotsiologiya keng ma’noda, – deb yozadi O.Berg-Shlosser, – barcha ijtimoiy nodir hodisalar bilan shug‘ullanadi va bu hodisalar siyosiy jihatdan muhim hisoblanadi. Obyektiv sohada bu, avvalambor, turli shakldagi jamiyat strukturalari va bu strukturalarga ta’sir qiluvchi omillardir. Obyektiv sohada u siyosiy muhim bo‘layotgan ijtimoiy nazariya va xulq-atvor namunalarini tadqiq qiladi, tor ma’noda, siyosiy sotsiologiya obyekti – aniq siyosiy jihatdan muhim guruh va jarayonlarni tadqiq qilishdir”. Demak, siyosat haqidagi fan davlat boshqaruvi bilan bog‘liq bo‘lsa va uning jamiyatga ta’sirini o‘rgansa, u vaqtida **siyosiy sotsiologiya** jamiyatdan kelib chiqadi hamda uning davlatga qanday ta’sir ko‘rsatishini, ya’ni hokimiyatni taqsimlashga va uni amalga oshirishga xizmat qiluvchi rasmiy institutlarga ta’sirini o‘rganadi. Shunday qilib, siyosiy sotsiologyaning predmeti ijtimoiy strukturalar va jarayonlarning siyosiy soha bilan o‘zaro ta’sir mexanizmi hisoblanadi.

Siyosiy sotsiologiya o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- siyosatning umumiyligi nazariyasi (siyosiy hokimiyat, uning boshqa ijtimoiy vogeliklardan farqi va vazifasi);
- siyosatning ijtimoiy aspektlari (manfaatlar, talablar, shaxslar va guruh, institutlar faoliyati).

Siyosiy hayot sotsiologiyasi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning 3 darsjasini o‘rganadi:

- ijtimoiy-siyosiy tizimlar faoliyat ko‘rsatishining umumiyligi qonunlari;
- ayrim olingan mamlakatlarda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari;
- siyosiy faoliyatning ayrim turlari.

**Hokimiyat va hukmronlik** tushunchalari siyosatdan boshqa sohalarda ham ishlataladi. Ular, avvalo siyosiy fenomenlarni tahlil qilishda qo‘llaniladi. “Avtoritet” tushunchasi aksariyat siyosiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatishda ishlataladi.

“Hokimiyat”, “hukmronlik” va “avtoritet” tushunchalari ko‘p o‘lchamli va teng bo‘lmajan ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismlarini anglatadi. Ular o‘zida 3 nuqtayi nazarni ifodalaydi:

– ijtimoiy munosabatlar vaziyat bilan bog‘liq bo‘ladi. Ayrim olingan vaziyatni belgilash vaziyatning uzluksiz izchilligidan iborat;

– siyosiy sotsiologiyaning asosiy o‘rganish predmeti hisoblanadi.

Nima uchun bir odam boshqasiga bo‘ysunadi. Chunki u yo kuchliroq yo aqlliyoq, tajribaliroq yoki boshliq bo‘lgani uchun buyruq berish imkoniga ega. Demak, bo‘ysunish asosida 2 xil tengsizlik yotadi:

- tabiiy tengsizlik (fiziologik, intellektual);

- ijtimoiy (maqomiy, iqtisodiy, ta’lim bo‘yicha va h.k.).

Tabiiy tengsizlik asosida vujudga kelgan hokimiyat shaxslararo o‘zaro ta’sir xarakteriga ega. Bunda shu vaziyatda aniq odamga bo‘ysunamiz. Agar yangi vaziyatda u o‘z ustunligini namoyish etolmasa, uning buyruqlariga bo‘ysunmaymiz.

Ijtimoiy tengsizlik asosidagi hokimiyat shaxsiy xususiyatga ega emas. Masalan, xizmat paytida rahbar bizga yoqish yoki yoqmasligidan qa’tiy nazar, unga bo‘ysunamiz. Bunday hokimiyat barqaror xarakterga ega, buning sababi uning institutsionallashganidir.

Sotsiologiya fani ushbu tushunchalarning ijtimoiy munosabatlardagi barqarorligini o‘rganadi. Shuning uchun ham, biz “hokimiyat, hukmronlik va avtoritet” tushunchalarining munosabatlarini o‘rganishimiz kerak. Ikkinchidan, ushbu munosabatlar jamlovchi hisoblanadi. “Hokimiyat” munosabatlari boshqa komponentlarni, jumladan, “avtoritet” tushunchasini ham o‘z ichiga oladi. Hukmronlik munosabatlari, asosan, reglamentni belgilaydigan, “hukmronlar” bilan juda tor doirada aloqada bo‘lishga imkon beradigan ijtimoiy institutlar yordamida amalga oshiriladi. Uchinchidan, ushbu tushunchalardan birining boshqalariga ta’siri kuchliroq bo‘lishi mumkin.

Hokimiyat ko‘plab ijtimoiy munosabatlar tarkibi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda shaxs boshqalarning qarshiligiga qaramay, o‘z hukmronligini amalga oshirish imkoniga ega bo‘ladi. Bir odam ikkinchisiga bo‘ysunadi, u muayyan me’yor va sanksiyalarga asoslanadi. M.Veber bu haqda shunday degan: “hokimiyat ijtimoiy munosabatlarda o‘z irodasini qarshi-

liklarga qaramay amalga oshirish imkoniyatini anglatadi”. (“Xo‘jalik va jamiyat”).

Bunda faqat ijtimoiy hokimiyat, ya’ni kishilar ustidan hukmronlik nazarda tutiladi. Bu yerda tabiat yoki narsalar ustidan hokimiyat haqida gap bormaydi, chunki narsalar ustidan hukmronlik ayni paytda kishilar ustidan hokimiyatning ham o‘rnatalishini bildiradi.

Maks Veber hokimiyat tushunchasining “amorf” xarakterga ega ekanligini ta’kidlaydi. Gap iqtisodiy hukmronlik haqida ham bo‘lishi mumkin (masalan, bozordagi hokimlik va h.k.).

Hokimlik, shuningdek, jismoniy kuch ishlatishdagi ustunlikdan ham kelib chiqishi mumkin (masalan, quronga ega bo‘lish). Zo‘ravonlik bilan qo‘rqtish zo‘ravonlikka qaraganda katta ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Hokimlik, shuningdek, boshqalarga ham kerak bo‘lgan axborotga ega bo‘lishda ham ko‘rinadi. Muayyan bilim yoki informatsiyaga ega bo‘lish har doim ham hokimiyat manbayi bo‘la olmaydi. Informatsiya egalariga uning sheriklari bo‘ysunganda yoki moddiy rag‘batlantirilganda, ularning hokimiyati mustahkamlanadi, u iqtisodiy hukmronlikni amalga oshirishga yordam beradi.

Shu munosabat bilan ommaviy axborot vositalari ustidan hukmronlik o‘rnatish haqida gapirish mumkin. Ushbu guruhning hukmronligi omma-lashtirishi kerak bo‘lgan axborot sir tutilgandagina, amalga oshiriladi.

Demak, hokimlik turli shakllarda ifodalanishi mumkin. U nisbatan mustahkam yoki obro‘siz, qisman yoki total, rasmiy yoki norasmiy bo‘ladi. Ayrim hollarda u kuchayib, mustahkamlanadi, hukmronlikda namoyon bo‘ladi. Hukmronlik hokimiyatning o‘ziga xos ko‘rinishidir.

Ko‘cha harakatini tartibga soluvchi hukmronlik qilmaydi. Korxona rahbari hukmronlik qiladimi, yo‘qmi degan savolga ayrim hollarda javob berish qiyin. Korxona rahbari o‘zi hukmronlik qilishi shart emas, u hukmronlikni amalga oshirishga yordam beradi.

Hukmronlik muayyan barqarorlikka ega. U bo‘ysunish orqali amalga oshiriladi, bunda shaxs o‘z irodasiga qarama-qarshi o‘laroq bo‘ysunadi. Odadta, hukmronlik qiluvchilar bo‘ysunuvchilar tomonidan o‘z ustunliklari ijobjiy baholanishini xohlaydilar. Ular shu tariqa avtoritet (obro‘, nufuz)ga ega bo‘lishga ham intiladilar. O‘zidan kuchli bo‘lganga vaqtivaqt bilan bo‘ysunish hukmronlikning emas, balki hokimiyatning ko‘rinishidir.

Hukmronlik qiluvchilar o‘z hukmronliklarining qonuniy tan olinishiga intiladilar. Legitimlik (tan olish) va avtoritet bir narsa emas (aytib o‘tish

kerakki, legitimlik avtoritet tufayli amalga oshadi). Majburlash vositalidan foydalanishni qonunlashtirmaydigan avtoritet ham mavjud bo‘lib, u hukmronlikning har qanday munosabatlariga xosdir. Sotsiologiyada legitim hukmronlik haqida gap boradi, bunda tobe kishilar hukmronlik, bo‘ysunishni va hukmron shaxslarning majburlashni jamiyatda mavjud bo‘lgan me’yorlarning ifodalanishi deb hisoblaydi.

M.Veber hukmronlik nolegitim ham bo‘lishi mumkin, deb hisoblaydi. Har qanday hukmronlik o‘zining legitimligini tan olishlariga harakat qiladi. Har qanday hukmronlik siyosiy hukmronlik bo‘lavermaydi. Siyosiy hukmronlik yuqori darajada tartibga solinadigan jamiyatning geterogen institusionallashgan sistemachalari majmuyida bo‘ysunishning amalga oshirilishidir. U ijtimoiy sohada ko‘plab sistemachalar va institutlarning tashkil etilgan tizimi zarurligini taqozo etadi. Ular quyidagi institutlar bo‘lishi mumkin:

1) kommunikativ institutlar aloqa uchun xizmat qiladi. Hukmron guruhlar har doim bo‘ysundirish yo‘llari, vositalari, imkoniyatlariga ega. Ular mavjud vaziyat haqida axborot olishga intiladilar va undan bo‘ysundirishda foydalanadilar;

2) bo‘ysunishga majburlash institutlari (masalan, jismoniy kuch ishlata oladigan, shuningdek, siyosiy hokimiyat xavfsizligiga tahdid soladigan ta’sirdan muhofaza qiluvchi tashkilotlar).

Avtoritet muayyan shaxs, guruh, institutlarning ustunligini ko‘pchilik tomonidan tan olinishi tufayli vujudga keladigan ijtimoiy ta’sirdir. Bunday ustunlikni tan olish o‘z-o‘zini belgilash huquqidан voz kechishni ham bildiradi. Bunda individning mustaqil qarorlar qabul qila olishdagi saviyasi yoki muayyan masalalar yuzasidan o‘z fikriga ega bo‘lish yoki muayyan xatti-harakatni amalga oshira olish xususiyati gumon ostiga olinadi. Avtoritet egasining ustunligini tan olish atrofdagilarning faoliyatini belgilash imkonini beradi. Bunday ta’sir avtoritet egasining qat’iy harakatisiz amalga oshadi.

Avtoritetni shu avtoritet egasi bo‘lgan shaxsning xususiyati deb bilish to‘g‘ri emas, bu uning boshqa shaxslarga bo‘lgan munosabatini anglatadi. Shaxs avtoritetni shakllantiruvchi ko‘plab xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin (aql, jismonmiy kuch, va h.k). Bunday xususiyatlar avtoritetning namoyon bo‘lishiga birgalikda yoki ayrimlikda sabab bo‘ladi. Boshqa shaxslar xuzurida ustunlik tan olinganda muayyan xulq-atvorning o‘rnatalishi avtoritetning namoyon bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Ongli xatti-harakat yordamida avtoritetga erishish qiyin. Avtoritetni

“avtoritar xatti-harakat” bilan adashtirmaslik kerak. Avtoritet yetishmagan joyda avtoritar xatti-harakat o‘rin oladi. Avtoritet egasining irodasi, xohish-istagidan qat’iy nazar, avtoritet yuzaga keladi.

“Avtoritet” tushunchasi “hokimiyat” tushunchasidan farq qiladi, ijtimoiy voqelikda ular uzviy bog‘liq. Agar hokimiyat uchun kishilar qarshiligini yengish xos bo‘lsa, avtoritetga hurmat bilan qarashni kutish shart emas. Agar avtoritet yana qarshilikni yengishni talab qilsa, bunda avtoritet bilan hokimiyat bir qatorda turganini ko‘ramiz.

Zamonaviy buyruqbozlik (byurokratiya) asosida tashkil etilgan davlat qisqa muddat ichida hukmronlikni amalga oshirishga imkon beradi. Baracha jarayonlarning hujjatlashtirilganligi hukmron doiralarga ularning irodasi quyida qanday bajarilayotganligini nazorat qilish imkonini beradi. Agar zamonaviy davlat mavjud hukmronlik mexanizmi samarasiz ekanligini ko‘rsa, bu hokimiyat vositalari yetarli emasligidan emas, balki ular kengayib, foydalanish uchun noqulay holga kelganidan dalolat beradi.

## **5.2. Siyosiy faoliyat va siyosiy xatti-harakatlar. Siyosiy hukmronlik**

Siyosat davlatning mohiyatini ifodalaydi yoki u bilan bog‘liq faoliyat degan fikr keng tarqalgan. Siyosiy xatti-harakat davlat organlari faoliyati yoki davlat tashkilotlari faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishdir, degan fikrlar ham mavjud. Siyosat haqidagi bunday fikr ancha tor. Chunki, birinchidan, davlat hozirgi ma’noda har doim ham mavjud bo‘lgan emas. Davlat tarixan shakllanib keldi va hozirgi ko‘rinishga ega bo‘ldi. Ikkinchi tomondan, davlatning har qanday xatti-harakati siyosiy bo‘la olmaydi. Davlat boshqaruvi siyosat va siyosiy ta’sirga yo‘naltirilgan bo‘lsa ham u siyosatning o‘zi emas. Jamiyatda bo‘ladigan har qanday jarayonni siyosat deb bilish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Siyosiy shart-sharoit yoki siyosiy qarorlar bilan bog‘liq bo‘lman hayot sohasini topish mumkin emas. Qayd etilayotgan ijtimoiy xatti-harakat tipik siyosiy bo‘lsa, sohalarni siyosiy yoki siyosiylashtirilgan, deb qarash kerak. Bunda gap siyosiy relevantlik (siyosiy ahamiyatga molliklik) haqida ketadi. Masalan, ko‘p oilalarning hayoti siyosiy emas, lekin oilalarda bo‘ladigan ko‘p jarayonlar siyosiy ahamiyatga ega. Siyosiy qarorlardan kelib chiqadigan maktab islohotlari oilaviy bitimga to‘g‘ri kelmasligi mumkin,

Siyosiy faoliyat ayrim individ va kishilar guruhining o‘z manfaat va ideallariga moslashtirish maqsadida ijtimoiy-siyosiy munosabatlар tizimiga ongli ravishda ta’sir ko‘rsatishidir. U o‘zida konkret siyosiy xatti-harakatlar majmuyini ifodalaydi. Siyosiy xatti-harakat esa individ yoki kishilar

guruhi tomonidan u yoki bu natijaga erishish maqsadida amalga oshiriladigan aksiyalar, qadamlardir. Siyosiy faoliyat va siyosiy xatti-harakat motivi (sababi) deganda, kishilarni bu ishga nima undayotganiga e'tiborimizni qaratishimiz kerak. Kishilar ijtimoiy faolligining asosiy sababi, ularning hayotiy talab hamda manfaatlari dadir. Har qanday siyosiy faoliyat va xatti-harakatda ijtimoiy guruh va individlarning aniq va yashirin shakldaga real talab hamda manfaatlari ifodalanadi.

Qanday xatti-harakatni siyosiy xatti-harakat deb hisoblash kerakligini aniqlab olish lozim. Bunda, ijtimoiy sohaning siyosiy faoliyat yuritishga imkon beradigan muayyan o'ziga xosligiga e'tibor beriladi. Lekin qanday sohalar haqida gap ketayotganini qat'iy belgilash mumkin emas. Chunki ijtimoiy hayotning ayrim sohalari vaqt o'tishi bilan siyosiy lashadi, ya'ni o'zining avvalgi nosiyosiy xarakterini yo'qotadi, aksincha bo'lishi ham mumkin.

Siyosiy xatti-harakat siyosiy xulq-atvorning maxsus shakli hisoblanadi. Siyosiy xatti-harakat unda ishtirok etayotgan sistemachalarning bir-biriga munosabati dinamik bo'lishini taqozo etadi. Siyosiy xatti-harakat konservativ bo'lishi yoki biron-bir narsani o'zgartirishga intilishi mumkin. To'la ravishda yo'naltirish, tartibga solish mumkin bo'lman makon bor yerda siyosat vujudga keladi. To'la institutsionallashgan byurokratik apparatda siyosiy qarorlarni bajarish siyosiy xatti-harakat emas, lekin siyosiy ahamiyatga ega.

Siyosiy xatti-harakat o'z mohiyatiga ko'ra, guruhning faoliyati, ya'ni turli darajadagi institutsionallashgan guruhlar va sistemachalar orasidagi xatti-harakatdir. Demak, u konkret guruh manfaatlari, qadriyatları me'yordi orqali ifodalanmaydi. Siyosiy xatti-harakat ayrim guruh va sistemachalarni faoliyatdagagi subyekt deb bilmasa ham, ko'plab manfaatlar, qadriyatlar, me'yordi tayanishi lozim. Chunki siyosiy xatti-harakat turli maqsad va qadriyatlarga ega ko'plab kishilar mavjud bo'lgan ijtimoiy sohada amalga oshadi, sistemachalarning bir-biriga bo'lgan munosabatiga ta'sir hokimiyatdan tashqarida vujudga kelmaydi.

Siyosiy xatti-harakatda maqsadlar, odatda, bir marotabalik harakat orqali amalga oshmaydi, u uzlusiz xarakterga ega bo'lishi kerak. Maqsadga yaqinlashtiruvchi ayrim qadamlar maqsadga muvofiq tarzda rejalashtirilishi lozim. Ushbu sohada doimo turli maqsadga ega boshqa kishilar va guruhlarning xatti-harakati bilan hisoblashish talab qilinadi.

Siyosiy xatti-harakat amaliy bo'lib, o'z mohiyati bilan amalgalashish mumkin bo'lgan narsalarga tayanadi. "Siyosat – bu imko-

niyatlar san'ati”, – degan edi O.Bismark.

Siyosiy xatti-harakat ko‘pincha noxush, gumanizm chegarasidan o‘tadigan mavhumlik sohasida yuz beradi. Professional siyosatchi be-nihoya ko‘p kishilarni shaxsan bilishi, ularning ismini esda saqlashi lozim. Shunga qaramay, u “anonim”lar, davlatlar, partiyalar, tashkilotlar, harakatlar, qonunlar, ijtimoiy fikr, aloqalar bilan to‘qnash keladi. Yuqoridagilar haqidagi tasavvur shaxslar, ayrim kishilar taqdirining o‘ziga xosligini doiradan tashqariga chiqishga majbur qiladi. Bu ham individual erkinlik va ko‘plab kishilarning shaxsiy imkoniyatlarini amalga oshirishga xalaqit beradi.

“Siyosat” tushunchasining “siyosiy xatti-harakat” tushunchasi bilan bog‘liqligidan kelib chiqib, “siyosat” so‘zining uchta ma’nosini ko‘rsatamiz:

1. Siyosat siyosiy xatti-harakatni o‘z ichiga oluvchi vaziyat hisoblanadi. Bu aloqa, ko‘pincha interaksiya xarakteriga ega. U aksariyat hollarda bir-biriga dahldor, lekin bir-biriga o‘zaro ta’siri bo‘lmagan strategik oriyentatsiya natijasi bo‘lib qoladi. Uni “kimdir siyosat bilan shug‘ullana boshlayapti”, degan ibora bilan ifodalash mumkin.

2. Siyosat individ yoki guruqlar siyosiy xatti-harakatining ayrim vaziyatlariga tarqaladi. Bu haqda “kimdir siyosat bilan shug‘ullanayapti” deyish mumkin.

3. Siyosat muayyan maqsadga yo‘naltirilgan, muvofiqlashtirilgan siyosiy xatti-harakatning izchilligidir. Bunday vaziyat “kimdir siyosatni amalga oshiryapti”, deb ifodalanadi.

Siyosatning bunday uch ta’rifi siyosiy xatti-harakatga borib taqaladi.

### **5.3. Iqtisodiy hayot sotsiologiyasi**

Iqtisodiy hayot sotsiologiyasi XX asrning 50-yillarida AQSHda fan sifatida shakllandi. G‘arb davlatlarida iqtisodiyot fanining ijtimoiylashuvi tendensiyasi kuchayishi natijasida iqtisodiy sotsiologiyaning imkoniyatlari ortib bordi. *Iqtisodiy soha* deganda insonlar turmushi uchun zarur hisoblangan ishlab chiqarish, taqsimot, ayrboshlash va istemol uchun mas’uliyatli bo‘lgan jamiyatning yaxlit sistemasi tushuniladi.

Iqtisodiy hayot sotsiologiyasi inson faoliyati tufayli iqtisodiyotda yuz beradigan iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarning o‘zgarishlarini o‘rganishdir. Iqtisodiy hayot sotsiologiyasi munosabatlar sistemasiga taalluqli va bir-birlari bilan o‘zaro harakat qiluvchi guruhlarni o‘rganadi. Uning obyekti bo‘lib ijtimoiy jarayonlar sifatida maxsus nuqtayi nazardan qaraluvchi iqtisodiy hayot sotsiologiyasi.

sodiyot namoyon bo‘ladi.

Hozirgi davrdagi iqtisodiy hayotning ma’lum konsepsiyalarsiz, mafkuraviy maqsadlarga asoslanmasdan, tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, I.Karimovning O‘zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o‘tishining 5 tamoyilidan biri bo‘lgan iqtisodiyotning siyosatdan ustun bo‘lish tamoyili iqtisodiy hayotning ma’muriy buyruqbozlik mafkurasidan holi bo‘lishi va uning, erkinlashtirishni ko‘zda tutadi. Bizda bozor iqtisodiyotiga o‘tish tamoyillari ma’lum konsepsiyalarga, g‘oyaviy yo‘nalishlarga asoslangan holda mavjud bo‘ladi, rivojlanadi. Iqtisodiy hayot inson ma’naviy hayoti bilan uzviy bog‘liqdir. Zero O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek: “O‘zbekistonda qabul qilin-gan o‘ziga xos islohot va modernizatsiya modeli orqali biz o‘z oldimizga uzoq va davomli milliy manfaatlarimizni amalga oshirish vazifasini qo‘yar ekanmiz, eng avvalo, “shok terapiyasi” deb atalgan usullarni bizga chetdan turib joriy etishga qaratilgan urinishlardan, bozor iqtisodiyoti o‘zini o‘zi tartibga soladi, degan o‘ta jo‘n va aldamchi tasavvurlardan voz kechdik.

Ma’muriy-buyruqbozlik tizimidan boshqaruvning bozor tizimiga o‘tish jarayonida tadrijiy yondoshuvni, **“Yangi uy qurmasdan turib, eskisini buzmang” degan hayotiy tamoyiliga tayangan holda, islohotlarni iz-chil va bosqichma-bosqich amalga oshirish yo‘lini tanladik.**

Eng muhammi, parokandalik va boshbodoqlik ta’siriga tushib qolmaslik uchun o‘tish davrida aynan **davlat bosh islohotchi sifatida mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi zarurligini biz o‘zimizga aniq belgilab oldik**<sup>1</sup>.

Iqtisodiy hayotni ijtimoiy talqin etishga birinchi bor F.Teylor e’tibor berdi. U ishchilarning mehnatga bo‘lgan qiziqishini o‘rgandi va 1894-yili mehnatga haq to‘lash tizimiga asoslangan nazariyasini ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etdi. Bu g‘oya asosida “iqtisodiy odam” konsepsiyasi va uninig xususiyatlari paydo bo‘ldi. Bu g‘oyaning asosini quyidagilar tashkil etadi:

1. Eng qisqa vaqtda ishchi qancha ko‘p hajmda ish bajarsa, unga shuncha haq to‘lash.

2. Ishning hajmini emas, balki samaradorligini va yaxshilagini rag‘-batlantirish.

3. Ishchilarga kam ish haqi berish va ko‘p berish baravar zararlidir.

Teylor konsepsiyasi Amerika sanoatida Ford tomonidan ishlab chiqarishga tatbiq etildi, konveyer ishlab chiqarish sharoitida mehnatning sama-

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralar. –T.: “O‘zbekiston”, 2009. 7-8-betlar.

radorligi rag‘batlantirildi.

Hozirgi davrda iqtisodiy sotsiologiyani tahlil qilishda asrimizning 70-yillarida vujudga kelgan iqtisodiy reallikni hisobga olish zarur. Bu o‘zgarishlar iqtisodiy sohada keng ko‘lamda burilsh hosil qilishi bilan belgilanadi. Hozirgi ko‘plab sotsiologlar va iqtisodchilar jamiyatning yana bir tasnifini ham bermoqdalar:

- 1) an’anaviy jamiyat;
- 2) industrial jamiyat;
- 3) postindustrial jamiyat.

Agar an’anaviy jamiyatda yerga bo‘lgan mulkchilik asosiy o‘rinni egallasa, industrial jamiyatda mulkning barcha ko‘rinishlariga bo‘lgan munosabat shakllanadi. Postindustrial jamiyatda esa intellektual mulk, insonning aql-zakovati, bilimi asosiy o‘ringa chiqadi.

Industrial jamiyatni yirik mashina ishlab chiqarishi, qo‘l mehnati o‘rniga yuksak mehnat unumdorligiga asoslangan ishlab chiqarish izohlaydi. Bir me’yorda ishlaydigan avtomatik ishlab chiqarish vujudga keladi. Ommaviy ishlab chiqarish eng muhim belgilovchi xususiyatga aylanadi. Ishlab chiqarishda yuksak malakali ishchilarning roli ortib boradi, ixtisoslashuv chuqurlashadi. Natijada mashina yordamida standartlashgan operatsiyalar bajariladi. Xo‘jalik sohasida sanoat va moliyaviy kapital ustunlik qiladi. Ishlab chiqariladigan mahsulotlari ommaviy, standartlashgan xarakteriga ega bo‘ladi, ishlab chiqarilgan mahsulotlar, asosan, tovar xarakteriga ega bo‘lib, bozor uchun mo‘ljallanadi. Tovar munosabatlari milliy iqtisodiyotning dunyo iqtisodiyoti bilan uzviy rivojlanishini taqozo qiladi. Natijada dunyo xo‘jalik tizimining shakllanishiga imkon yaratiladi.

Industrial jamiyatni iqtisodiy jamiyat, deb ham atash mumkin. Chunki, real borliq iqtisodiyotga qaratilgan bo‘ladi, iqtisodiyotga mo‘ljallangan ishlar ustun ravishda rivojlanadi.

Milliy davlatlarning shakllanishi demokratik, fuqarolik jamiyatini barpo etish, milliy manfaatlarni himoya qilish asosida, erkin xalqaro ijtimoiy, siyosiy iqtisodiy hamkorlik ko‘lamlariga chiqish imkoniyatlariga ega bo‘ldilar.

XX asr o‘rtalaridan qator G‘arb mamlakatlari jamiyatning uchinchi bosqichi – postindustrial jamiyatga o‘tmoqda. Bugungi sotsiologiyada uning nomi har xil, jumladan “informatsion” jamiyat, “postindustrial jamiyat”, kabi atamalar bilan ifodalanmoqda. Bular ommaviy axborotlarni vujudga keltiradi, saqlaydi va qayta ishlab chiqaradi. Kommunikatsiya tizimida shunday o‘zgarish yuz beradiki, xo‘jalik tizimi tubdan o‘zgaradi.

Tabiat manbalaridan foydalanish, ishlab chiqarish, ayniqlas, metallurgiya, qishloq xo‘jaligi qisqara boshlaydi. O‘z navbatida, maishiy xizmat ko‘lami kengayadi, aholining deyarli 50% shu sohada band bo‘ladi. Shuning uchun ba’zida postindustrial jamiyat – maishiy xizmat qilish jamiyati deb ham yuritiladi. Ishlab chiqarish (moliyaviy, bank, sug‘urta, savdo, ilmiy maslahat, dastur) va noishlab chiqarish sohalarida xizmatlar (fan, ta’lim va b.) o‘sib boradi. Bunda urbanizatsiya jarayoni industrial jamiyatga nisbatan teskari ravishda yuz beradi, qishloqqa sanoat kirib boradi.

F.Teylording mehnatni tashkil qilish usuli boshqa qulay usullar bilan almashadi Sanoatda yollanma mehnatning hajmi kamayadi, ma’lumotli, bilimdon odamlar ishlab chiqarishda ko‘plab ishtirok etadi. Moddiy omillaridan ko‘ra intellektual omil birinchi o‘ringa chiqadi. Inson yuksak kapital emas, balki o‘z mohiyatini, bilimi, iqtidorini, qadriyatlarini namoyon qiluvchi ijtimoiy kuchga aylanadi. Jamiyat taraqqiyoti bilan bilimlarning strukturasi, maqsadlari ham o‘zgaradi. Bunda axborotni o‘rganish, qayta ishslash, ilmiy taxminlar berish, dasturlarni ishlab chiqarish va takomillashtirish borgan sari ortib boradi.

Demak, an’anaviy jamiyatda boylik tashqi manbalar asosida qurilgan bo‘lib, tabiat manbalarini egallash va uni o‘zlashtirishga qaratilgan.

Industrial jamiyatda ishlab chiqarishning ichki manbalari ishga tushadi. Ishlab chiqarishda bo‘lgan imkoniyatlar ro‘yobga chiqadi. Tadbirkorlik ishlab chiqarishning to‘xtovsiz rivojlanishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan shunday xulosa kelib chiqadi: an’anaviy jamiyatda iqtisodiy masalalar insonning tabiatga bevosita munosabati orqali hal qilingan bo‘lsa, industrial jamiyatda inson tomonidan yaratilgan sun‘iy ishlab chiqarish vositalari iqtisodiyotning asosini tashkil etadi. Shuning uchun bunday jamiyat iqtisodiy jamiyat deb ataladi.

Iqtisodiy jamiyatda iqtisodiy munosabatlar jamiyatdagi ma’lum guruhning mavqeyi hal qiluvchi omil sifatida iqtisodiy munosabatlar tizimlari orqali belgilanadi. Iqtisodiy munosabatlar tizimi va bir-birlari bilan o‘zaro harakat qiluvchi guruhlarni itsitisodiy sotsiologiya o‘rganadi.

#### **5.4. Ijtimoiy tashkilotlar sotsiologiyasi. Tashkilotlarning turlari va vazifalari**

Tashkilot o‘zaro bog‘langan va o‘ziga xos madsadlarga erishishga yo‘-naltirilgan ijtimoiy guruhdir. Har qanday tashkilot a’zolarining xatti-harakatini ma’lum ma’noda umumiyl natijaga erishish uchun uyg‘unlashtira olsa, bunday tashkilot maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Rus sotsiologi A.I.Prigojin tashkilot atamasiga 3 xil ma’no beradi:

1. *Tashkilot* – muayyan guruh doirasida yangi me’yorlarni ishlab chiqish, barqaror aloqalar o’rnatish, ijtimoiy guruh a’zolarining sa’y-harakatlarini muvofiqlashtirishga qaratilgan uyushma.

2. *Tashkilot* deganda biror-bir obyektning belgisi, uning tartibga solingan strukturaga ega bo‘lish xususiyati nazarda tutiladi.

3. *Tashkilot* deganda ma’lum ijtimoiy vazifani bajaradigan ijtimoiy guruh tushuniladi.

*Tashkilotlarning qator xususiyatlari mavjud:*

1. Har qanday tashkilot o’z maqsadiga ega.

2. Tashkilot a’zolari o‘ziga xos rol va maqomlar bo‘yicha taqsimlanadi.

3. Tashkilot mehnat taqsimoti va uni ixtisoslashtirish asosida vujudga keladi.

4. Boshqaruv tizimi tashkilot faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish uchun o‘ziga xos vositalarga ega.

Tashkilot tushunchasi turli fan va faoliyat sohalarida qo‘llaniladi. Ijtimoiy guruhlar mavjudligining realligi ijtimoiy tashkilotlar (ishlab chiqarish, diniy, milliy, ilmiy birlashmalar, siyosiy partiyalar va h.k shaklida) doirasida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy tashkilot ijtimoiy guruhlarni jamoa (kollektiv) sifatida shakllantiradi. Guruhning har bir a’zosi ijtimoiy mehnat taqsimotidagi ahvolni ifodalovchi o’z mavqeyiga ega bo‘ladi. Masalan, korxona tashkiloti turli kasb va yoshdagi ishchi va injener-texnik xodimlarni o‘zida birlashtiradi. U ijtimoiy tizum tomonidan integrativ funksiya bajaradi.

Tashkilot ijtimoiy tizim rivojlanishining oliy darajasidir. Ijtimoiy obyektlarga nisbatan “tashkilot” yoki birlashma atamasi quyidagi ma’noda qo‘llanadi: jamiyatda muayyan o‘rin egallagan, ma’lum bir funksiya bajarishga qaratilgan, institusional xarakterdagi sun’iy birlashma tashkilot deyiladi. Bunga korxona, hokimiyat organi, ixtiyoriy uyushma kabilar misol bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56-moddasida shunday deyiladi: “O‘zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olim-larning jamiyatları, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlар tashkilotlari, ijodiy uyushmalari, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari ja-moat birlashmalari sifatida e’tirof etiladi”<sup>1</sup>.

Ijtimoiy tashkilotlar xususiyatlarini tushunish uchun A.I Prigojin quyidagi omillarni keltiradi:

- tashkilot muayyan maqsadni amalga oshirish uchun tashkil etiladi,

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: «O‘zbekiston», 1992.

ular kishilar birlashmasi funksiyasini amalga oshirish vositasidir;

- ijtimoiy tashkilotda rol va maqomlar iyerarxik pog‘onaga ko‘ra taqsimlanadi, ya’ni tashkilot a’zolarining ijtimoiy vazifalari va egallagan o‘rni o‘zaro bog‘liq bo‘lib, u murakkab tizimni ifodalaydi. Bunda individ konkret ijtimoiy tashkilotda qabul qilingan me’yorlar va odamning ijtimoiy maqomi belgilaydigan talab, manfaatlarni amalga oshiradi;
- tashkilot vertikal va gorizontal tuzilishga ega. Vertikal strukturada boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimlar mavjud. Boshqaruvchi tizim gorizontal strukturaning faoliyatini muvofiqlashtiradi. Tashkilotning vertikal tizimining maqsadga erishishiga imkon beradi, faoliyat ko‘rsatishda barqarorlik va samaradorlikni ta’minlaydi;
- tashkilotning boshqaruv tizimlari tashkilot elementlarining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish mexanizmi hamda vositalarini shakllantiradi.

Tashkilotlar yuqorida keltirilgan xarakterli xususiyatlarga ega bo‘lish bilan quyidagi tipologiyaga ham ega, ya’ni rasmiy va norasmiy tashkilotlar mavjud.

Rasmiy tashkilot asosida zarur ixtisoslashish natijasi sifatida vujudga kelgan mehnat taqsimoti yotadi. Rasmiy tashkilot ishchan, kerakli ma’lumotning borishini ta’minlaydi. U xizmat xulq-atvoridagi me’yorlarni, faoliyat dasturini, taqdirlanish prinsiplarini o‘z ichiga oladi. Rasmiy tashkilot ratsionaldir, ya’ni uning asosida maqsadga muvofiqlik yotadi

Ijtimoiy tashkilotlar o‘ziga xos shaklga ham ega. Quyida ulardan namunalar keltiramiz:

1. Ishchan tashkilotlar – tijorat maqsadida yoki nisbatan kengroq tashkiliy tizimlar tomonidan ayrim vazifalarni hal qilish uchun vujudga keltirilgan firma va idoralar.

2. Ijtimoiy uyushmalar, ommaviy tashkilotlarning maqsadi “ichkarida” ishlab chiqiladi va ishtirokchilar individual maqsadining munosabatini ifodalaydi. Boshqarish, tartibga solish birgalikda qabul qilingan nizom orqali amalga oshiriladi.

3. Tashkilotlarning oraliq shakllari, masalan kooperativlar (qishloq xo‘jaligi, baliqchilik jamoalari, artellar) tadbirkorlik vazifasini bajaradi.

4. Assotsiativ tashkilotlar oila, ilmiy maktab, norasmiy guruhlardan iborat. Ularning tarkibiy qismi, iyerarxiyasi, rollar taqsimoti, umumiylar qaror qabul qilish nisbatan barqaror.

Ijtimoiy tashkilot faoliyatining o‘zagini boshqarish tashkil etadi. Boshqarishni sotsiologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilish uning uch elementini ajratib ko‘rsatishni taqozo etadi:

- a) maqsadga yo‘naltirilgan boshqaruv;
- b) ijtimoiy o‘z-o‘zini tashkil qilish;
- v) tashkil qilish tartibi.

Ushbu elementlarning munosabati mavjud imkoniyatlardan foydalanish, ularning amal qilish doirasini va ziddiyatlarni bartaraf etish asosida integratsiyalashadi.

Boshqarish jarayoni o‘ziga muvofiq usullardan foydalanishni taqozo etadi.

Tashkilotning ayrim olingan xodimiga nisbatan ijtimoiy boshqarishning turli usullarini qo‘llash mumkin:

- to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir (buyruq berish);
- talablar orqali (rag‘batlantirish);
- qadriyatlar tizimi orqali (tarbiya, ta’lim);
- ijtimoiy muhit ordali.

Ijtimoiy guruhga nisbatan quyidagi usullar qo‘llaniladi:

- guruh tarkibini maqsadga muvofiq holda shaklantirish (malakasi, demografik xususiyatlari, psixologik belgisi, ishchi o‘rnlarni joylashtirish kabilar);
- jipslashtiruvchi guruhlar (musobaqalar, rahbarlik usulini takomillashtirish, ijtimoiy-psixologik omillardan foydalanish kabilar).

Ijtimoiy o‘z-o‘zini tashkil qilishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- rasmiy va norasmiy strukturaning muvofiqligi (rejalashtirilgan aloqa va me’yorlar orasidagi ziddiyatni bartaraf etish);
- boshqarishni demokratlashtirish (ijtimoiy tashkilotlar rolini oshirish, qarorlar qabul qilishga xodimlarni jalb etish, mehnat faoliyatini oshirish kabilar);
- ijtimoiy rejallashtirishni (xodimlar malakasini oshirish, jamoa ijtimoiy strukturasini takomillashtirish, farovonlikni oshirish).

Boshqarish jarayoni faqat boshqaruvchi va boshqariluvchi munosa-batni bildirmaydi. Tashkilotlarda o‘z-o‘zini tashkil qilish ham mavjud bo‘ladi. Bunda tashkilotning barcha a’zolari umumiylar qarorlar qabul qilishda ishtirok etadi. O‘z-o‘zini tashkil qilish bu – ommaviy, jamoa va guruh miqyosida ijtimoiy o‘zaro ta’sirning mahsuli hisoblanadi.

1991-yil 15-fevralda Oliy Kengash “O‘zbekiston Respublikasida ja-moat birlashmalari to‘g‘risida”gi qonunni qabul qildi. Mazkur qonun respublika hayotidagi jamoat birlashmalari faoliyatini tubdan isloh qilishga, jamoat birlashmalari tuzilmalarini davlat va hukumat tizimidan ajratishga huquqiy shart-sharoit yaratib berdi. Respublika ijtimoiy-siyosiy ha-

yotida birinchi marta mazkur qonunda jamoat birlashmalarining maqsadlari xalqaro va demokratik mezonlar asosida ta’riflab berildi:

“Jamoat birlashmalari fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar hamda erkinliklarni ro‘yobga chiqarish va himoya qilish, fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamoat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish...”<sup>1</sup> maqsadida tuziladi.

1992-yil 3-iyunda «O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida»gi qonunga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilishi munosabati bilan 1993-yilning mart oyida qonunga amal qilish va uning bajarilishini ta’minalashga kirishildi.

Jamoat birlashmalari endilikda xalqimizning milliy manfaatlari va ehtiyojlari, ma’naviyatga doir qarashlarini ifoda etuvchi tashkilotga aylanib bormoqda. Ularning deyarli beshdan bir qismi tarixiy, madaniy, ma’naviy, ma’rifiy, ijodiy va vatanparvarlik sohalariga doir manfaatlar guruhlari sifatida faoliyat ko‘rsatayotganligi fikrimizning dalilidir.

### **Tayavch so‘z va iboralar**

**Siyosiy sotsiologiya** – sotsiologiyaning jamiyatning davlat, partiyalar, ijtimoiy-siyosiy tashkilot va odamlarga ta’siri, ularning xulq-atvorini o‘rganuvchi sohasi;

**hokimiyat** – ijtimoiy munosabatlarda o‘z irodasini, qarshiliklarga qaramay, amalga oshirish imkoniyati;

**avtoritet** – muayyan sifatlari, xizmatlariga ko‘ra biron shaxs foydalanadigan va hamma e’tirof qiladigan obro‘-e’tibor;

**iqtisodiy hayot sotsiologiyasi** – iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarning o‘zgarishlarini, unda shaxslar va ijtimoiy guruhlarning xulq-atvorini o‘rganish;

**legitimlik** – qonuniylikning, ijtimoiy tartibning jamiyat a’zolari tomonidan tan olinishi;

**mentalitet** – (lot. mens-aql, tafakkur) – individ yoki ijtimoiy guruh, millatning o‘ziga xos tafakkur tarzi, birgalikda harakat qilishga tayyorligi.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari. 4-soni.–T.: Adolat, 1993. 155-bet.

## **Savollar va topshiriqlar**

- 1.Siyosiy sotsiologiyaning mohiyati nimada?
- 2.Siyosiy hayot sotsiologiyasining siyosatshunoslikdan farqi nimada?
- 3.Hokimiyat va hukmronlikning nisbatini tushuntiring.
- 4.Hokimlikning ifodalovchi shakllari qaysilar?
- 5.Siyosiy xatti-harakatning mohiyati nimada?
- 6.Iqtisodiy soha sotsiologiyasi haqida nimalarni bilasiz?
- 7.Ijtimoiy tashkilotlar tarkibiga qaysi birlashmalar kiradi?
- 8.Tashkilotning vertikal va gorizontal tuzilishini ayting.
- 9.Ijtimoiy tashkilot shakllari haqida gapirib bering.
- 10.Ijtimoiy tashkilot qanday funksiyalarni bajaradi?

## **6-bob. SOHALAR SOTSIOLOGIYASI. TA'LIM-TARBIYA VA OILA SOTSIOLOGIYASI. JAMOATCHILIK FIKRI SOTSIOLOGIYASI**

### **6.1. Ta'lim-tarbiya sotsiologiyasi**

Ta'lim-tarbiya sotsiologiyasining mustaqil tarmoq sifatida rivojlanishi E.Dyurkgeym asarlari bilan bog'liq. U G'arb sotsiologlari (Amerikada K.Jenis, J.Koulmen, Fransiyada P.Burde, Angliyada J.Flaud va boshqalar)ning ilmiy ishlarini boyitdi.

Ta'lim – shaxsning yashash faoliyati va ijtimoiylashtirishning turli tabaqalar rivojlanishi va shakllanishida boshlang'ich omil bo'lgani uchun zarur ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy institut sifatida olingan ta'lim tizimi, butun bir jamiyatda va shu jamiyat hayotidagi sohalar va ularning boshqa ijtimoiy institutlar bilan o'zaro harakati va o'zaro aloqasi ta'lim sotsiologiyasining obyekti hisoblanadi. Ta'lim sotsiologiyasi sotsiologiyaning shunday sohasiki, u ta'limni ijtimoiy institut (uning jamiyatdagi funksiyalari, boshqa institutlar bilan o'zaro aloqasi) sifatida, uning idoralari (maktab, oliy o'quv yurti va hokazo)ni ijtimoiy tashkilotlar sifatida, shuningdek, ta'lim sohasidagi ijtimoiy siyosatni o'rganadi.

Ta'lim institutining alohida ajralishi industriallashtirilgan jamiyatga-cha mehnat ijtimoiy taqsimotining chuqurlashuvi va kengayishi asosida, tabaqaviy tengsizlik rivojlanishi va davlat tizimi jamiyatning imtiyozli qatlamlari vakillarini maxsus tayyorgarlik bilan ta'minlash maqsadida boshlanadi.

Hozirgi zamon ilg'or industrial davlatlarning ta'lim tizimi – shaxsning ijtimoiylashuvi, uning u yoki bu ijtimoiy maqomni olishga tayyorgarlikda va ijtimoiy tizimlarni takomillashtirishda, integratsiyasi va barqarorlashuvida muhim rolni bajaruvchi jamiyat a'zolari bilimlari va mahoratlarini uzluksiz rivojlantiruvchi keng va yuqori darajada differensiylashgan ijtimoiy tizimdir.

Ta'lim sotsiologiyasi – ta'lim tizimini, yanada kengroq ijtimoiy tizimlarni kichik tizim sifatida va uning boshqa kichik tizimlar va butun bir jamiyat bilan o'zaro nisbati va harakatini o'rganuvchi sotsiologiya sohasidir. U ijtimoiy tamoyillarini, ta'lim tizimlarining o'zaro harakati qonuniyatlarini ijtimoiy institut va jamiyat, ijtimoiy guruhlar va shaxslar bo'lgan ijtimoiy tashkilotlar sifatida o'rganuvchi fandir.

Ta’lim sotsiologiyasi, dastavval, ta’lim tizimi va jamiyatning o‘zaro harakati va o‘zaro munosabatlari umumiy masalalari, uning o‘rni hamda ijtimoiy tizimidagi rolini o‘rganadi. Ta’lim sotsiologiyasi ta’lim va sotsi-umming chuqur va mustaqil o‘zaro bog‘liqligini tan olishdan kelib chiqadi. Bir tomonidan, aynan ijtimoiy sharoitlar va omillar bevosita ta’lim tizimi ning xususiyati, turini aniqlaydilar va shu sababli ta’limning optimal tizi-miga erishish uchun mos ijtimoiy dastlabki shart-sharoitlar va fikrlar zarur-dir; boshqa tomonidan, bularning kerakli o‘zgarishisiz, ta’lim tizimini tako-millashtirmsandan erishib bo‘lmaydi.

Ta’limning ijtimoiy roli va ijtimoiy funksiyalarini o‘rganish ushbu sohaning quyidagi muhim funksiyalarini ajratib ko‘rsatishga imkon beradi:

- a) madaniyatni tarqatish va avloddan avlodga o‘tkazish funksiyasi;
- b) jamiyat madaniyatini saqlash va generatorlik funksiyasi;
- v) shaxsning ijtimoiylashuvi funksiyasi;
- g) ijtimoiy tanlov hamda jamiyat a’zolarini differensiyalash funk-siyasi;
- d) ijtimoiy madaniyat o‘zgarishlari funksiyasi, ayni paytda, ta’lim tizimida yangi texnologiyalarni tatbiq qilishga qaratilgan nazariyalar;
- e) ijtimoiy nazorat funksiyasi va hokazo.

Ta’lim o‘ziga xos strukturaga ega. Uning asosiy elementlariga quyi-dagilarni kiritish mumkin:

1. Ta’lim-tarbiya muassasalari, ijtimoiy tashkilotlar, ijtimoiy umumiyliliklar (pedagoglar, o‘quvchilar );

2. O‘quv jarayoni ijtimoiy madaniy faoliyat sifatida.

Ta’lim tizimi, shuningdek, o‘z ichiga qator tizimlarni oladi.

- maktabgacha tarbiya tizimi;
- umumta’lim maktabi;
- kasb-texnik ta’limi;
- o‘rta maxsus ta’lim;
- oliy ta’lim,
- oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim;
- malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash tizimi;
- qiziqishlarga ko‘ra ta’lim.

Mustaqil O‘zbekistonda ta’lim sohasida bo‘layotgan o‘zgarishlar ta’-limning ijtimoiy strukturasiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Mamlakatimizda ta’-lim-tarbiya tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlashni zamon talablari dara-jasiga ko‘tarish sohasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston hukumati ta’limga islohotlarning barcha bosqichlari uchun ham

ustuvor soha deb qarab kelmoqda. 1992-yil 2-iyulda O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonun ijrosini ta’minlash maqsadida Respublika Prezidenti va Vazirlar Mahkamasing 30 dan ziyod farmon va qarorlari e’lon qilindi. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek, “O‘z-o‘zidan ayonki, yangi davlat barpo etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo‘lidagi murakkab va keng ko‘lamli vazifalarni hal etishga qodir bo‘lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash masalasi muhim prinsipial va hal qiluvchi ahamiyatga ega”<sup>1</sup>.

1997-yil 27-avgust kuni Oliy Majlisning IX sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘grisida”gi qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilindi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida mamlakatimizda ta’lim islohoti o‘tkazishdan ko‘zda tutilgan maqsad, ta’limning vazifalari, dasturni ro‘yobga chiqarish bosqichlari, kadrlar tayyorlashning milliy modeli asoslab berildi. Milliy dasturda ta’lim islohotlarini uch bosqichda amalga oshirish nazarda tutildi.

Birinchi bosqich (1997-2001-yillar). Bu davrda mavjud kadrlar tayyorlash tiziminинг ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish ko‘zda tutilgan.

Ikkinci bosqich (2001-2005-yillar). Bu davrda Milliy dasturni to‘liq ro‘yobga chiqarish, shuningdek, majburiy umumiy o‘rtta va o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limiga, o‘quvchilarning qobiliyatları va imkoniyatlariga qarab, tabaqlashtirilgan ta’limga o‘tishni to‘liq amalga oshirish maqsad qilingan

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) da quyidagi masalalar rejallashtirilgan. To‘plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish; ta’lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash, o‘quv-tarbiya jarayonini yangi o‘quv-uslubiy majmular, ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlash; ta’lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta’lim tizimi jahon axborot tarmog‘iga ulanadigan komp’yuter tarmog‘i bilan to‘la qamrab olish kabilar.

Oliy mutaxassislik ta’limi ikki bosichdan iborat: bakalavrlik – bazaviy oliy ta’lim berish bo‘lib, o‘qish kamida 4 yil, u oliy ma’lumot va tayanch

<sup>1</sup> Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo‘lida. T. 16. –T.: “O‘zbekiston”, 2008.

mutaxassislik diplomini beradi; magistratura – aniq mutaxassislik bo‘yicha oliy kasbiy ta’lim bo‘lib, bakalavrlik negizida kamida 2 yil davom etadi. Undagi tahlil yakuniy kvalifikatsiyaviy davlat attestatsiyasi va magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish bilan nihoyasiga etkaziladi.

Uzluksiz ta’lim tizimining yakunlovchi bosqichi aspirantura va doktorantura (oliy kvalifikatsiyali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarni shakllantirish) ni o‘z ichiga oladi.

## **6.2. Oila sotsiologiyasi. Oilaning vazifalari, tarixiy rivojlanishi, turlari**

Oila sotsiologiyasi – umumiy sotsiologiyaning asosiy yo‘nalishlaridan bo‘lib, u oilani nikoh asosida tashkil topgan, jamiyat taraqqiyotida muhim ijtimoiy vazifalarni bajaruvchi sotsial institut sifatida o‘rganadi. Oila sotsiologiyasining alohida vazifalari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardir:

- jamiyat taraqqiyoti davomida oilaning paydo bo‘lishi va rivojlanishi hamda mavjudlik qonuniyatlarini o‘rganish;
- oilaning mohiyati va faoliyati o‘zgarib borishini aniqlash;
- nikoh va oila turlari evolutsiyasini o‘rganish;
- oila tashkil topishi va taraqqiyotida avlodlarning o‘zaro ta’sirini aniqlash;
- oila tarbiyasi;
- oilaning rekreativ faoliyatini va oila huquqining ijtimoiy mohiyatini ochib berish;
- mehnat taqsimotida oilaning o‘rnini o‘rganish.

Oila sotsiologiyasi oilaning jamiyat bilan o‘zaro bog‘liqligiga ham e’tibor qaratadi. Chunki jamiyat tashkil topishida, uning davomiyligini ta’minlashda oila asosiy ijtimoiy, demografik manba hisoblanadi.

Oilanning asosini erkak bilan ayol o‘rtasidagi nikoh birligi va nasl tashkil etadi.

Oila taraqqiyoti to‘g‘risida qator nazariyalar mavjud. Quyida biz AQSHlik etnografi L.Morganning oila taraqqiyoti bosqichlari to‘g‘risidagi fikrini keltiramiz:

- Promiskuitet – yovvoyilikning quyi bosqichiga xos bo‘lib, bunda ayrim oilalar bo‘lmasligi, oilaviy hayot ijtimoiy hayotga teng bo‘lgan.
- Qon-qarindoshlikka asoslangan oilada nikoh qabila va urug‘ a’zolari orasida bo‘ladi. Bunday oila endogam birlikni tashkil qiladi (guruhiy nikoh).
- Punalual oila va ona avlodi bo‘yicha yaqin qarindoshlar bilan nikoh man qilinadi.

- Monogam oila bir erkak va bir ayol orasida bo‘lib, u otalikni tan olish va oila mulkiga egalik qilishga asoslanadi. Monogam oila eski urug‘chilik tuzumining yemirilib, yangi kishilik hamjamiyatlarining vujudga kelishi bilan bog‘liq.

Oilaning vazifasi uning strukturasi bilan uzviy bog‘langan. Oila funksiyasi sotsiolog M.S.Matskovskiy tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ularga quyidagilar kiritilgan:

- 1) reproduktiv (nasl qoldirish) funksiya;
- 2) tarbiya funksiyasi;
- 3) xo‘jalik-maishiy funksiya;
- 4) iqtisodiy funksiya;
- 5) birlamchi ijtimoiy nazorat funksiyasi;
- 6) ma’naviy munosabat va aloqalar funksiyasi;
- 7) ijtimoiy maqomiy funksiya;
- 8) hordiq chiqarish funksiyasi;
- 9) emotsiyal funksiya.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi oilaning jamiyat taraqqiyotidaga, ma’naviy barkamol va jismonan sog‘lom avlodni tarbiyalashdagi katta ahamiyatini hisobga olib, oilaga daxldor boy hamda chuqur mazmunli milliy an’analarni asrash maqsadida 1998-yil 2-fevralda «Oila» Respublika ilmiy-amaliy markazini tuzish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Markaz O‘zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo‘mitasi huzurida Toshkent Davlat universiteti va Toshkent Davlat pedagogika universitetining oila muammolarini o‘rganish bo‘yicha laboratoriyalari negizida tuzilgan.

«Oila» markazining faoliyati quyidagi asosiy yo‘nalishlar bilan belgilangan:

- boy milliy an’analarni, milliy qadriyatlar asoslarini, ajdodlarimizning oila va jamiyat, oila va mahalla bilan bog‘liq merosini o‘rganish hamda tarqatish;
- umuminsoniy qadriyatlarning milliy oilaviy tarbiyadagi rolini oshirish va ularning oilada uyg‘unlashuvini ta’minlash;
- oilaning pedagogik, psixologik, ijtimoiy-psixologik, etnopedagogik, etnopsixologik muammolarini o‘rganish, shuningdek, ularni rivojlantirish bo‘yicha takliflar va tavsiyalarni tayyorlash;
- oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holatini, uning demografik xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish;
- oila, ayollar va bolalarning ijtimoiy-iqtisodiy maqomini aks ettiruv-

chi statistika axborotini to‘plash va umumlashtirish;

– oilani rejalahtirishni, uning sog‘lig‘i tibbiy-biologik asoslarini ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etish, uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyatga joriy etish;

– yoshlarni oila hayotiga tayyorlashni yaxshilash uchun nikoh saroylari va salomatlik markazlari huzurida maxsus o‘quv-tarbiya kurslari tashkil etish;

– oilaning huquqiy bilimlarini tubdan oshirish va uni muhofaza qilish bo‘yicha ilmiy-amaliy faoliyat olib borish;

– bolaning oiladagi qonuniy huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilish, ota-onalarning bolalar sog‘lig‘ini mustahkamlash va ularni mакtabga tayyorlash mas’uliyatini oshirishdagi faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish;

– ma’naviyat, madaniyat va maorifni yanada rivojlantirish orqali oilada uyg‘un kamol topgan avlodni tarbiyalashning samarali, maqbul usullarini ishlab chiqish;

– oila va jamiyat muammolari hamda ularni hal etish bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, ilmiy-ommabop risolalar yaratish;

– oila va jamiyat muammolari bo‘yicha xalqaro aloqalarni o‘rnatish.

### **6.3. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi**

*Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi* – ijtimoiy guruhlarning mavjud ijtimoiy voqelikka nisbatan baholovchi munosabatining shakllanishi va amal qilish qonuniyathalarini o‘rganadi.

“Jamoatchilik fikri” atamasi inglizcha “public opinion” so‘z birikmalaridan olingan bo‘lib, u XVII asrda dastlab Angliyada qo‘llanilgan, keyinchalik bu atama boshqa mamlakatlarga ham o‘tib, XVIII asr oxirida keng tarqalgan.

*Jamoatchilik fikri* – xalq istaydigan narsani bilishning noorganik uslubidir. Gegelning fikricha, jamoatchilik fikrida hamisha haquqiy va haqiqiy bo‘lmagan narsalar chatishib ketsa-da, u har bir davrda katta kuchga ega bo‘ladi.

Jamoatchilik fikri ijtimoiy ong shakllari, masalan, fan yoki mafkuradan noaniqligi bilan farq qiladi. Chunki fikrning o‘zida u yoki bu holatga nisbatan taxminiy, ehtimoliy og‘ish bo‘lgani uchun ham ko‘pincha insonlar ongida vujudga keladigan o‘tkinchi, o‘zgaruvchan fikr-mulohaza, histuyg‘ular mavjud bo‘ladi. Lekin bu jamoatchilik fikri bilan hisoblashmaslik kerak, degan emas.

Jamoatchilik fikrini sotsiologik tadqiq etishning predmeti – bu jamoat-

chilik fikrining ijtimoiy mohiyati, uning jamiyat hayotining turli tomonlariiga ta'siri, shakllanishi, ifodalanishi va amal qilishi mexanizmlari masalasidir.

Jamoatchilik fikri – kishilar ongi va xatti – harakatining o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib, u ijtimoiy ongning barcha shakllari bilan bog‘liq bo‘lgan kundalik va nazariy ong birikmasi hisoblanadi. Jamoatchilik fikri doimo kishilar tomonidan u yoki bu hodisa jarayonini baholash bilan bog‘liq.

Jamoatchilik fikrining obyektini aniqlashda ikki muammo e’tiborga molik:

1. Jamoatchilik fikrini unda aks ettirilayotgan voqelikning o‘ziga xosligi nuqtayiy nazaridan tahlil qilish.

2. U yoki bu hodisa jamoatchilik fikrining obyektiga aylanishining mezonlarini aniqlash.

Jamoatchilik fikrining obyekti ham obyektiv voqelik, ham subyektiv reallik faktlari bo‘lishi mumkin. Bu bilan birga jamoatchilik fikri ma’lum darajada chegaralangandir, muayyan bir holatlarga jamoatchilik mulohazalarining obyekti bo‘la oladi.

Bular: a) voqeа va hodisalarining haqqoniy mavjudligi; b) voqeа va hodisalar o‘rtasidagi munosabatlar; v) voqeа va hodisalarining kishilar ongida aks etishi.

Ushbu holatlar jamoatchilik fikri sotsiologiyasida “aniqlik chegarasi” deyiladi. Bu «chevara» tashqarisida bo‘lgan narsalar to‘g‘risida jamoatchilik fikri mulohazaga ega bo‘la olmaydi. Dush kelgan har bir narsa, hodisa, voqeа, jarayon yoki fakt jamoatchilik fikri obyekti bo‘lavermaydi.

Jamoatchilik fikrini uyg‘otishning birinchi omili ijtimoiy manfaat bo‘lib, bevosita manfaat tug‘diradigan hodisa va narsalarga mulohazaga sabab bo‘ladi.

Jamoatchilik fikri 3 turda ifodalanishi mumkin:

1) jamoatchilik fikrining stixiyali ifodalanishi;

2) siyosiy institutlar tashabbusiga ko‘ra biror-bir qonunni muhokama qilish jarayonida jamoatchilik fikrining bildirilishi;

3) maxsus sotsiologik tadqiqotlar yordamida jamoatchilik fikrining aniqlanishi.

Jamoatchilik fikriga ta’sir qilish 2 yo‘l bilan amalga oshiriladi:

1) manipulyatsiya qilish;

2) ilmiy shakllantirish.

Jamoatchilik fikri o‘z tabiatiga ko‘ra dinamik xususiyatga ega ijtimoiy hodisadir. U jamiyatda uzoq yillab statik holatda yashab keluvchi passiv ijtimoiy fikrlardan, eng avvalo, maqsadning konkretligi, ijtimoiy fikr real-

moddiy kuchga aylanib borishiga, qatnashchilarning potensial va real soni nisbati, masalani hal etish quvvati-hosilasiga ko‘ra farqlanib turadi. Ayni chog‘da u jamiyatda muayyan maqsadlarga erishish yo‘lida intiluvchi turli xil amorf yig‘inlardan ham farq qiladi.

Mustaqil davlatchilik sharoitida jamoatchilik fikrining ijtimoiي ahamiyati yanada muhim e’tibor kasb eta boshladi. Uning amaliy ahamiyati faoliyat sarhadlari kengayib, jamiyat hayotida ko‘rsatadigan ta’sir ko‘lamlari keskin ortdi.

Mazkur ijtimoiy hodisaning mustaqillik sharoitidagi yangi vazifa va yo‘nalishlari Prezidentimiz I.Karimovning qator asarlarida ilgari surilgan katta nazariy masalalar mazmunidan yanada oydinlashadi. Shu asosda jamoatchilik fikrining bugungi dolzarb yo‘nalishlari qatorida quyidagilarni ko‘rsatish joiz:

- o‘zbek xalqining bir yarim asr davomida mahrum etilgan o‘z haquqlarini o‘zi belgilash orzusini amalgam oshirish bilan bog‘liq;
- ijtimoiy harakat yo‘nalishi;
- har tomonlama mustahkam demokratik, huquqiy davlat va erkin fu-qarolik jamiyatining barpo etilishi, barqaror bozor iqtisodiyoti oshkora tashqi siyosatni amalga oshirish bilan bog‘liq ijtimoiy – siyosiy harakat yo‘nalishi.

Mazkur bosh yo‘nalishlar mamlakat ichki va tashqi siyosati bobida quyidagi masalalarni o‘z ichiga oladi;

- o‘zbek xalqining milliy, hududiy, hissiy-emotsional va an’anaviy o‘ziga xosliklaridan kelib chiquvchi xalq demokratiyasini tamoyillarining ijtimoiy siyosiy hayot mazmunidan keng o‘rin olishi;
- ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida qonun ustuvorligini ta’minalash, kishilar o‘rtasida qonun-qoidalar va an’analarga hurmat tuyg‘ularini shakllantirish, qonun oldida hammaning teng huquqliliginini ta’minalash, aholi turli qatlamlari xavfsizligi va osoyishtaligini ta’minalash, qonun-qoidalari, an’analarga nisbatan mustahkam ichki intizom fazilatlarini qaror toptirish;
- Vatanga muhabbat va insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish;
- O‘zbekiston hududida tug‘ilib o‘sgan va bu zaminga mehr qo‘ygan har bir fuqaroda milliy o‘ziga xosligidan qat’iy nazar, yuksak vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish;
- mamlakatimizda o‘zbekistonliklar uchun yagona davlatchilik barpo etilganligini nazarda tutib, O‘zbekistondan tashqarida yashovchi har bir o‘zbek uchun bu davlat uning uchun ham ona Vatan ekanligini keng targ‘ib-tashviq qilish, Vatandan o‘zga davlatlarda yashovchi har bir o‘zbek

O‘zbekiston obro‘sini yuksaltirishga mas’ul ekanligini tushuntirish;

– mamlakatimizda yashovchi boshqa millat vakillariga hurmatda bo‘lish, o‘zbek tili to‘g‘risidagi qonunni va o‘zbek tilini o‘zlashtirishlariga ko‘maklashish, milliy va huquqiy cheklanishlardan yuqori bo‘lish;

– umuminsoniy qadriyatlar asosidagi axloqiy-estetik qarashlar ustuvorligini ta’minalash, hech qanday mafkura, siyosiy qarashlar va nuqtayi nazarlarning ustun ijtimoiy mavqe egallashiga yo‘l qo‘ymaslik;

– haqiqiy demokratiya ko‘zgusi hisoblanuvchi ko‘p partiyaviylik tartibotini joriy etishni qo‘llab-quvvatlash, ayni chog‘da davlat tuzumini, mavjud hokimiyatni zo‘rlik va kuch bilan o‘zgartirishni mo‘ljallovchi, O‘zbekiston davlat suvereniteti, mamlakat yaxlitligi va daxlsizligiga rahna soluvchi, milliy, diniy, irqiy yohud hududiy ayirmachilikka undovchi, mamlakat konstitutsiyasiga xi洛f ish yurituvchi barcha partiyalar, uyushma va ijtimoiy harakatlar faoliyatlarini qat’iyan cheklashni yoqlash.

Ijtimoiy-madaniy sohalarda:

– gumanizm g‘oyalariga sadoqat, inson shaxsi va turmush tarzi bilan bog‘liq masalalarda ijtimoiy himoya vositalarini keng qo‘llash, shaxsning haq-huquqlari, insoniy g‘ururi, or-nomusini hurmatlash, inson haq-huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro Deklaratsiya talablariga rioya qilish;

– xalq ma’naviyati va an’anaviy axloqiy qarashlarini tiklash, milliy merosni asrash, ehtiyyot qilib avlodlarga etkazish choralarini ko‘rish, qadimiy tarixiy yodgorliklarni ta’mirlash, O‘zbekistonda asrlar davomida yaratilgan beqiyos san’at asarlarini izlab topish va qaytarish chora-tadbirlarini ko‘rish;

– o‘zbek tilining O‘zbekiston xalqlarini o‘zaro hamjihatlikka undovchi va uyuştiruvchilik rolini keng targ‘ib etish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun talablarini to‘la bajarish, O‘zbekiston xalqlari, madaniyatiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga da’vat etish;

– so‘z, din va fikr erkinligini ta’minalash, islom va boshqa dinlar insonning ma’naviy shakllanish manbalari ekanligi, diniy e’tiqod davlat tomonidan hurmat qilinishi, mo‘min-musulmonlarning muqaddas haj safarlariga keng imkoniyatlar yaratilishi;

– har bir fuqaroga umumiyligi ta’lim, maxsus bilimlar va oliy ma’lumot olishi uchun teng shart-sharoitlarning yaratilishi, mafkura va milliy fetishizmdan holi bo‘lgan yangi demokratik maorif konsepsiyasining ishlab chiqilishi;

– ilmiy, ijtimoiy, badiiy va boshqa ijodiyot turlarining takomili uchun yetarli shart-sharoitlarning yuzaga keltirilishi, iqtidorli yoshlarga keng yo‘l ochilishi, intellektual mulk himoyasi xususida qarorlar qabul qilinishi.

Mazkur masalalar yuzasidan davlat muassasalari, ishlab chiqarish va jamoat tashkilotlarida obro‘-e’tiborli shaxslar ko‘magida quyidagi yo‘nalishlarda yalpi jamoatchilik fikrini shakllantirish maqsadga muvofiqdir:

– ezgulik yo‘lida xizmat qiluvchi shaxslar, mehnat ilg‘orlari, pir-u davlat insonlar obro‘-e’tiborini oshirishga qaratilgan ijobjiy jamoatchilik fikrini shakllantirish;

– ijtimoiy munosabatlarda totalitar tuzum sharoitida shakllangan ijtimoiy zararli odatlar, salbiy xususiyatlarni jamoatchilik fikri orqali tartibga solish;

– O‘zbekiston Respublikasining insonparvar ichki va tashqi siyosatini yalpi qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha jamoatchilik fikrini shakllantirish.

Shunday qilib, jamoatchilik fikri ijtimoiy ongning muayyan holati sifatida keng xalq ommasining alohida shaxslar, guruqlar va real borliq voqeahodisalarga nisbatan bildiruvchi nuqtayi nazaridir.

### Tayanch so‘z va iboralar

**Ta’lim sotsiologiyasi** – sotsiologiyaning ta’limni ijtimoiy institut, uning idoralarini ijtimoiy tashkilot sifatida hamda ta’lim sohasidagi ijtimoiy siyosatni o‘rganuvchi sohasi;

**oila sotsiologiyasi** – oilani nikoh asosida tashkil topgan va muayyan vazifani bajaruvchi ijtimoiy institut sifatida o‘rganuvchi soha;

**promiskuitet** – oilaviy hayotni ijtimoiy hayotga teng deb bilish;

**punalual oila** – qon-qarindoshlar orasida nikohni man qilish;

**jamoatchilik fikri** – xalq fikrini bilish usuli.

### Savollar va topshiriqlar

1. Ta’lim sotsiologiyasining o‘rganish obyekti nima?
2. Ta’limning ijtimoiy roli va obyekti nimadan iborat?
3. Ta’lim strukturasi haqida nimalar bilasiz?
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim” to‘g‘risidagi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qachon qabul qilindi?
5. Ta’lim to‘grisidagi islohotlarning bosqichlarini aytib bering.
6. Oila sotsiologiyasi va uning vazifalari nimalardan iborat?
7. Oilaning funksiyalari nimalardan iborat?
8. Jamoatchilik fikrining obyekti nima?
9. Jamoatchilik fikrining qay tarzda ifodalanishini aytib bering.

## **7-bob. DEVIANT VA DELINKVENT XULQ-ATVOR**

### **7.1. Ijtimoiy me'yor tushunchasi**

Ijtimoiy me'yorlar boshqa qadriyatlar kabi shaxs va jamiyatni baholash funksiyasini bajaradi. Me'yorlar xulq-avtorni tartibga soladi va ijtimoiy nazoratni amalga oshiradi. Bunda faqatgina fikr emas, iroda ham ifodalanadi. Irodaning individual ifodalanishidan farq qilib, me'yor tipik ijtimoiy aloqalarni ifodalaydi. Me'yor g'oyalar va ideallar kabi baholab, yo'naltiribgina qolmaydi, balki buyruq, farmoyish ham beradi. Uning xarakterli xususiyati qat'iylik va keskinlikdir.

Ijtimoiy me'yorlar – jamiyat boshqaruvingajralmas qismi bo'lib, shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan ijtimoiy muhitga moslashtiruvchi qoidalar majmuyidir. Me'yorlar xulq-avtorning chegarasi, shart-sharoiti, shaklini munosabatlar xarakteri va unga erishish maqsad hamda usullarini belgilaydi. Me'yorlar xulq-atvorning umumiy tamoyillari va uning konkret parametrlarini belgilagani uchun ham boshqa qadriyatarga qaraganda keraklilik, darkorlikning to'la modeli, o'lchovini berishi mumkin.

Deviant xulq-atvor sotsiologiyasi muammolari bo'yicha O'zbekistonda ko'plab ishlar qilingan. Deviant xulq-atvorning turli ko'rinishlarini respublikamiz olimlari o'z tadqiqot obyekti doirasida o'rganganlar. Respublikamiz faylasuflaridan X.Shayxova, Q.Nazarov, M.Xolmatova, N.Komilov (shaxs tarbiyasida ma'naviy-axloqiy tarbiyag ta'siri masalalari), sotsiolog M.B. Bekmurodov (ijtimoiy me'yorlarga jamoatchilik fikrining ta'siri jarayonlari), huquqshunoslardan A.Qulahmetov, Y.Karaketov, M.Usmonaliyev (jinoyatchilikning umumiy jihatlari va o'smirlar jinoyatchiliqi masalalari), psixolog olimlar G'.V.Shoumarov, N.A.Soshnov, S.A.Axunjonova, Z.R.Qodirova, E.Sh.Usmonov, B.M.Umarov (o'z joniga qasd qilish va jinoyatchilik muammolarining ruhiy-psixologik asoslari), pedagog-olimlardan O.Musurmonova, D.J.Sharipovlarning (oilada barkamol shaxsni tarbiyalash hamda giyohvandlik, ichkilikbozlik, chekish kabi illatlarning oldini olish muammolari) olib borgan ilmiy ishlarini shunday ishlar jumlasiga kiritish mumkin.

Me'yorning buzilishi ijtimoiy guruh, jamiyat tomonidan aniq salbiy munosabatni vujudga keltiradi. Shuning uchun ham, me'yorlar deviatsiyaga qarshi kurash vositasi, tartib o'rnatish hamda ijtimoiy barqarorlik vositasi bo'ladi.

Me'yorlar muayyan xulq-atvorga bo'lgan talab oqibatida vujudga keladi. Ijtimoiy reallik va talablarning turli-tumanligi me'yorlar turli-tumanligini keltirib chiqaradi. Me'yorlarni turli asoslarga tayanib tasnif qilish mumkin. Sotsiologiya uchun me'yorlarni subyektga, shu me'yorni tashuv-chilarga ko'ra ajratish katta ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqib, umuminsoniy me'yorlar, jamiyat, guruh va jamoa me'yorlarini ajratib ko'rsatishi mumkin. Zamonaviy jamiyatda ushbu me'yorlar uzbek bog'liq va birbiriga ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy sotsiologiya ijtimoiy me'yorlarni quyidagicha tasniflaydi:

*Obyektga yoki faoliyat sohasiga* ko'ra munosabatlarning muayyan turida amal qiluvchi me'yorlarni ajratish mumkin. Bular – siyosiy, iqtisodiy, estetik, diniy va boshqalardir.

*Mazmuniga* ko'ra mulkiylik munosabatlarini tartibga soluvchi, shaxsnинг huquq va erkinliklarini ta'minlovchi, muassasalar faoliyati hamda davlatlararo o'zaro munosabatlarni muayyan tartib-qoidalarga bo'ysun-diruvchi me'yorlar bo'lishi mumkin.

*Me'yoriy – qadriyatlar* iyerarxiyasidagi o'rniga ko'ra asosiy va ikkinchi darajali, umumiylar konkret me'yorlar.

*Tashkil bo'lish* va *qayd etish shakliga* ko'ra qat'iy belgilangan, qat'iy qayd etilgan va o'zgaruvchan, egiluvchan me'yorlar.

*Qo'llanish* ko'lamiga ko'ra me'yorlar umumiylar mahalliy me'yorlarga bo'linadi.

*Ta'minlanish* usuliga ko'ra ichki ishonch, jamoatchilik fikri yoki maj-burlash, davlat apparati kuchiga tayanuvchi me'yorlar.

*Funksiyasiga* ko'ra baholovchi, yo'naltiruvchi, nazorat qiluvchi, jazo-lovchi, rag'batlantiruvchi me'yorlar.

*Barqarorlik* darajasiga ko'ra ijtimoiy ko'nikmalar, urf-odatlar, an'analarga tayanuvchi va aksincha, shunday asosga ega bo'limgan me'yorlar.

Aksariyat hollarda ijtimoiy me'yordan chetga chiquvchi xulq-atvor ijtimoiy sanksiyalar yordamida tartibga solinadi. Me'yordan chetga chiqishning epizodik shakllari kishilar orasidagi o'zaro ta'sir tartibining buzilishi bilan bog'liq va jamoatchilik fikri tomonidan qayd etiladi va o'zaro ta'sir ishtirokchilari tomonidan tahrir qilinadi. Ijtimoiy me'yordan chetga chiqishga qarshi kurash usuli va vositalari ijtimoiy ong va hukmron elita tomonidan chetga og'ish qay darajada xavfli ekanligiga qarab, belgilanadi.

Ko'pincha, ijtimoiy me'yordan kuchli chetga og'ish tizimning rivojlanish vositasi bo'ladi va u konservativ va reaksion xulq-atvor standartlaridan voz kechishga yordam beradi, ya'ni pozitiv o'rin tutadi.

## **7.2. Deviant va delinkvent xulq-atvor, ularning shakllari va mohiyati**

Jamiyatning me'yoriy tizimi o'zgaruvchan xarakterga ega. Jamiyat rivojlanishi bilan me'yorlarning o'zi ham, ularga bo'lgan munosabat ham o'zgarib boradi. Me'yordan chetga chiqish, me'yorning buzilishi tabiiy hol hisoblanadi. Me'yorlarni to'la qabul qilish konformizm deyilsa, me'yordan chetga chiqish deviatsiya, deviant xulq-atvorning turli ko'rinishlarida ifodalanadi. Jamiyat har doim inson xulq-atvorining noma'qul ko'rinishlariga qarshi chiqqan. O'rtacha me'yordan chetga chiqish, u xoh, ijobiy tomonga, xoh salbiy tomonga bo'lmasin jamiyatning barqarorligiga xavf solgan.

Deviant xulq-atvor muammosini sotsiologiya fani doirasida dastlab E.Dyurkgeym maxsus o'rgangan bo'lsa-da, jamiyatning eng qadimiy muammolaridan biri sifatida deviant holatlarga munosabatlar uzoq davrlardan shakllanib kelgan. Qadimgi xalqlarning diniy-mifologik tasavvurlari, xusan, Misr, Hindiston va Xitoy diniy qonun-qoidalaridagi axloqiy meyorlar bu sohadagi dastlabki qarashlar edi. Qadimgi Yunon va Rim faylasuflari ham o'z asarlarida mazkur muammolarni tahlil qilib bergenlar.

O'rta asrlarda axloq me'yorlari diniy qarashlar ta'siri ostiga rivojlandi va ulardan chekinish diniy nuqtayi nazardan baholangan. Yevropada xristian dini barcha sohada hukmronlik qilgan bo'lsa, sharq dunyosida axloqiy-huquqiy me'yorlar va ular haqidagi ta'limotlar islom falsafasi ta'sirida rivojlandi.

XVIII-XIX asrlarga kelib, Yevropada jamiyat rivojining kuchayishi axloq me'yorlarining xristiancha talablari doirasiga sig'may qoldi. XVIII asr mutafakkirlari ijtimoiy meyor va undan chekinish muammosini yanada chuqurroq tahlil qildilar. Sh.L.Monteske, J.J.Russo, Ch.Bekkaria, B.S.Gelvetsiy, D.Didro, P.Golbax, Morelli va Sh.Furiyelar o'z ilmiy izlanishlarida ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlarni topishga intildilar.

XIX asr oxirlarida tabiiy fanlarda erishilgan ilmiy yutuqlar ijtimoiy fanlar taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xusan, sotsiologiyada ijtimoiy me'yordan og'ish holatlarini tushuntiruvchi dastlabki ta'limot – E.Dyurkgeymning «anomiya» g'oyasi yaratildi. *Anomiya* – (fransuzcha so'z bo'lib, individual va ijtimoiy ongning shunday holatiki, bunda butun jamiyat, uning ijtimoiy institatlari inqirozga uchrab, ijtimoiy maqsadlar va ularni amalga oshirish o'rtasida ziddiyatlar vujudga kelganda qadriyatlar tizimi parchalanib ketadi).

Ma'lumki, sotsiologyaning fan bo'lib shakllanishida ijtimoiy patologiya omiliga e'tibor qaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada

E.Dyurkgeymning to‘rtta asari chop etilgan bo‘lib, shulardan biri «O‘z joninga qasd qilish» (1897) kitobi deviantlik muammosiga bag‘ishlangan edi.

Amerika sotsiologiyasida muhim o‘rin tutuvchi ta’limotlardan biri E.Saterlendning differensial aloqalar ta’limotidir. Bunga ko‘ra, har qanday xulq-atvor, shu jumladan, deviant xulq-atvor ham o‘rganiladi, ya’ni mavjud jamiyat a’zolari tomonidan mazkur xulq-atvor boshqalarga ko‘rsatiladi.

Deviant xulq-atvor muammolarini tahlil qilishda R.Merton ishlab chiq-qan ta’limot sotsiologiyada yetakchi o‘rin tutadi. E.Dyurkgeymning anomiya g‘oyasini rivojlantirib, Merton deviant xulq-atvorga quyidagicha ta’rif beradi: “Deviant xulq-atvor jamiyatda e’lon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq-atvor standartlari bilan aholi xulq-atvor motivlari hamda mavjud imkoniyatlarining bir-biriga mos kelmay qolishi natijasidir”.

*Deviant* xulq-atvor yozilgan va yozilmagan me’yorlarga mos kelmaydigan har qanday xatti-harakat va faoliyatni nazarda tutadi. Ayrim jamiyatlarda an’analardan chetga chiqish jiddiy xato, nojo‘ya ish kabi keskin qoralangan. Masalan, ayrim jamiyatlarda inson sochining uzunligi ham, ko‘rinishi ham, xulq-atvori ham nazorat ostida bo‘ladi.

Deviatsiyaga qarshi kurash aksariyat holda his-tuyg‘ular, fikr va xatti-harakatlar turli-tumanligiga qarshi kurashga aylangan. Odatda, bu narsa hech qanday natija bermagan, ya’ni deviatsiya yanada yorqinroq ifodalanishi mumkin. Masalan, 80-yillarda yoshlар G‘arb modellariga taqlid qilgan, jamiyat bunga qarshi hech narsa qila olmagan.

Ko‘p jamiyatlarda deviant xulq-atvor nosimmetrik bo‘ladi: yomon tomonga og‘ish qoralanadi, yaxshi tomonga og‘ish qo‘llab-quvvatlanadi. Jamiyatda odamlarning aksariyat qismi deviant bo‘lishi mumkin (bunga o‘g‘rilar ham, aldanganlar ham, ishga kechikkan, avtobusda bilet olmagan, mumkin bo‘lmagan yerda sigaret chekkanlar ham kiradi). Bunday sharoitda me’yordan chetga chiqish miqdori yoki shakliga e’tibor berish kerak. Deviant xulq-atvor turlari ko‘p bo‘lib, ularga oddiy, elementar tartib buzishdan tortib katta jinoyatlargacha kiradi.

Tor ma’noda deviant xulq-atvor deganda qonunga qarshi bo‘lmagan me’yordan chetga chiqishlar tushuniladi.

Quyidagilar deviant xulq-atvorning nisbatan kengroq tarqalgan ko‘rnishlaridan hisoblanadi:

a) jinoyatchilik. Muayyan davlatda o‘rnatilgan qonun va me’yorlarga nisbatan ayrim shaxslarning salbiy munosabati tufayli jinoiy faoliyat kelib chiqadi, mazkur shaxs esa jinoyatchi hisoblanadi;

b) ichkilikbozlik. Bu borada ilmiy adabiyotlarda bir necha tasniflar

mavjud: 1) Alkogolni ba’zida iste’mol qilish. 2) Alkogolni ko‘p iste’mol qilish – spirtli ichimliklarni muntazam, ya’ni haftada bir martadan bir necha martagacha yoki birvarakayiga o‘rtada tanaffus bilan ko‘p miqtorda (200 ml.dan oshiq) ichish. Bu ko‘pincha alkogolizmga olib keladi. 3) Alkogolizm – spirtli ichimliklarga patologik (muttasil) o‘rganib qolish bilan tavsiflanuvchi kasallik;

v) giyohvandlik. Giyohvandlik moddalari yoki unga tenglashtirilgan vositalarga muntazam ruju qo‘yish va iste’mol qilish.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni qonunda zid ravishda ishlab chiqarish hamda ular bilan savdo qilish qonun bilan taqiqlanadi.

g) byurokratiya. “Byurokratiya” iborasi “hokimiyatga ega bo‘lgan xodim” ma’nosini anglatadi. Biroq davrlar o‘tishi bilan “byurokratiya” mahalliychilik, qog‘ozbozlik, to‘rachilik, mansabni suiiste’mol qilish kabi salbiy ma’nolarda qo‘llanila boshlandi. Hozirgi kunda ko‘plab davlatlarda bu ibora asl ma’nosini yo‘qotib, boshqaruvdagi o‘ziga xos idoraviy salbiy uslub tarzida tushuniladi.

Deviatsiyaning sabablari nimada? Zamonaviy sotsiologiyada jamiyatning maqsadlari va shu maqsadlarni amalga oshirishning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlaydigan vositalari o‘rtasidagi uзilish deviatsiyaga olib keladi, deb hisoblanadi. Amerikalik sotsiolog R.Merton bunga muvofiq; ravishda jamiyatga moslashish deb hisoblangan xatti-harakat turini ajratib ko‘rsatadi. Merton buni amerikaliklarning boylikka ega bo‘lishi maqsadlari muammosini tahlil qilish orqali tushuntiradi. Uning fikricha, xatti-harakatning quyidagi turlari mavjud:

1) konformlik – madaniy maqsadlar va vositalarga muvofiqlik, ya’ni boylikka ega bo‘lish uchun ishslash, o‘qish, biznes qilish yoki me’ros olish kerak;

2) innovatsiya – maqsadlarni tan oladi, lekin shu maqsadga erishishning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanadigan vositalarini inkor etadi (reket, nar-kotik sotish, o‘g‘rilik kabilalar);

3) ritualizm – maqsadni inkor etib, shu maqsadga erishishning jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan vositalarini ma’qullaydi (byurokratizm, rasmiylikni mutlaqlashtirish);

4) retretizm – ham maqsad, ham vositani inkor etadi. (daydilik, narkomaniya). Retretizm jamiyatdan tashqarida qolgan kishilarga xos.

5) isyon – hukmron maqsad va vositalardan begonalashuv hamda yangi maqsad va vositalarning shakllanishini nazarda tutadi.

Ijtimoiy me’yorlarning buzilishi jiddiy, nojiddiy, ongli yoki anglan-

magan holda bo‘lishi mumkin. Qonunga to‘g‘ri kelmaydigan xatti-harakat toifasiga kiruvchi ongli yoki anglab etilmagan barcha jiddiy xatti-harakatlar *delinkvent* deyiladi.

Deviant va delinkvent xatti-harakat quyidagicha farqlanadi: deviant xatti-harakat nisbiy, delinkvent xatti-harakat mutlaq bo‘ladi. Jinoyatlarga o‘g‘rilik, firibgarlik, vandalizm, sanoat josusligi, qimor o‘ynash, o‘t qo‘yish, qalbaki hujjatlar tayyorlash, poraxo‘rlik kabilar kiradi. Delinkvent xatti-harakat mamlakatdagi qonunlarga nisbatan mutlaq bo‘ladi.

### **7.3. Shaxs xususiyatlarining shakllanishi**

Shaxslarda yuz beruvchi deviant holatlarning paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanishiga ko‘plab vositalar ta’sir ko‘rsatadi, bunda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan uchta omilni ko‘rsatish mumkin. Bular shaxs xususiyatlari, muammoli holat va ijtimoiy nazorat institutlari. Aynan mana shu omillar shaxsning qanday faoliyat yuritishini belgilab beradi. Shaxs xususiyatlarining shakllanishida asosan 3 ta omil muhim ahamiyat kasb etadi, bular:

- 1) irsiy;
- 2) psiko-fiziologik;
- 3) shaxsnинг bilim darajasi.

Shuningdek, ijtimoiy me’yordan og‘ishlarning yuz berishiga shaxsning qat’iylik yoki qat’iyatlik, prinsipialligi yoki prinsipsizligi, qoidalarga bo‘ysunish yoki bo‘ysunmaslik odatlari, biron-bir qarorga kela olish imkoniyati, tashqi ta’sirga qanchalik berilishi, irodasi va boshqa shu kabi psixofiziologik holatlari, mijozи ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

Deviant xulq-atvorni o‘rganishda muammoli vaziyat muhim ahamiyat kasb etadi. Muammoli vaziyat shunday holatki, u subyektdan yechimini talab qiladi, uning yechimi ijtimoiy me’yorlarda ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, u yoki bu sabablarga ko‘ra, ushbu me’yorlarni qo‘llash qiyinroq bo‘ladi.

Eng katta muammoli vaziyat ziddiyatli holatlarda, ya’ni turli shaxslar yoki guruhlarning manfaatlari bir-birlariga to‘qnash kelganda yuz beradi.

Ziddiyatli holatlarning yuzaga kelishiga ba’zan shaxs xususiyatlari sabab bo‘lsa, ba’zan kichik ijtimoiy guruhlari, oila, mahalla, ishlab chiqarish brigadasi a’zolari, sinfdoshlar orasidagi salbiy munosabatlar sabab bo‘ladi.

Jamiyatda shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi muammoning va uni hal qilish imkoniyatlarining murakkabligi darajasiga ko‘ra muammoli vaziyatning to‘rtta asosiy holati mavjud:

- 1) hech qanaqa muammo yo‘q holat, bunda holat hech qanday qaror qabul qilishni talab qilmaydi;
- 2) muammo bor, biroq qiyinroq yoki osonroq bo‘lsa-da, uning yechimi ham ijtimoiy me’yorlarda ko‘rsatilgan holat;
- 6) mavjud muammoni subyekt ijtimoiy me’yorlar doirasida hal qila olmaydigan holat;
- 7) muammoni hech qanaqasiga hal qilib bo‘lmaydigan holat. Ushbu turlicha holatlar keng ko‘lamda biridan ikkinchisiga o‘tib turadi.

Muammoli vaziyatning mazmuni subyektning individual maqsadlari bilan jamiyat manfaatlari orasidagi maqsadlar va unga erishishning mumkin bo‘lgan vositalari orasidagi, faoliyatning kutilayotgan oqibatlari va uning qo‘srimcha natijasi (ijobiy yoki salbiy) orasidagi, shuningdek ijtimoiy me’yor talablari va shaxs xususiyatlari orasidagi ziddiyatlarning (ko‘pincha o‘ylab chiqarilgan) paydo bo‘lishidan iboratdir.

Jamiyat a’zolari shaxsiy nuqtayi nazarlarining shakllanishida, ularning deviant xulq-atvorga nisbatan ijtimoiy faol munosabatlarining tar-kib topishiga tarbiyaviy jarayonlar uchun bevosita mutasaddi shaxslar, tashkilotlar rahbarlariiing o‘rni va roli kattadir. Ba’zi odamlarga ortiq-cha imtiyozlarning berilishi juda xavflidir. Shu boisdan, har qanday holatlarda ham mansabdor shaxslar, turli jamoat tashkilotlari va mehnat jamoalarining rahbarlari, pedagog va tarbiyachilar, qonunni himoya qiluvchi tashkilotlar vakillarining xulq-atvor me’yorlarini buzishi qat’iy qoralanadi.

Deviant xulq-atvor turlariga kiruvchi ichkilikbozlik, giyohvandlik, o‘z-o‘zini o‘ldirishlar bilan bog‘liq ijtimoiy illatlarning har biri yuzaga kelishi va sotsial oqibatlariga ko‘ra mohiyatan farqli jihatlarga ega.

Birinchi farq, ijtimoiy zararli odatlarning uzoq davom etishidan deviant xulqi turmush tarzining uzviy bo‘lagiga aylanib ketishidan iborat bo‘ladi. Doimiy oilaviy kelishmovchiliklar, oila va atrof-muhitdan norozilik, ishdagi tushunmovchiliklar va hokazolar – bularning barchasi subyekt ruhiyatini jarohatlaydi hamda u mavjud vaziyatni o‘zgartirishga urinadi. Bu o‘rinda ijtimoiy institatlardagi kamchiliklar, shu jumladan, ziddiyatlar rivojlanishining oldini oluvchi va ularga qarshi kurashuvchi ijtimoiy nazorat tizimlari ham salbiy rol o‘ynaydi.

Bularning ikkinchi farqli jihat, yuqoridagi holatlarni hal qilishning ma’lum qiyinchiliklarga egaligidir. Ma’lumki, har qanday holatda ham, ko‘p “qurban” berib bo‘lsa-da, to‘g‘ri yechimga erishish mumkin. Lekin hamma gap shundaki, subyekt “qurban” bera oladimi: xotini (yoki eri)

bilan ajralib keta oladimi, yangi kasbga ega bo‘la oladimi yoki yo‘qmi? Qat’iy qarorga kela olmay, ko‘pincha subyekt “o‘rribosar” vositalarga, ichkilik va giyohvand moddalarga murojaat etadi.

Bunday holatlarning farqi shundaki, ko‘pincha subyekt ularni hal qilishning noto‘g‘ri yo‘llarini tanlaydi. Oilaviy va ishdagi janjallar odatga aylanib qolganda, bundan “qutulishning” noto‘g‘ri xayoliy yo‘llari, ichkilikbozlik, giyohvand vositalar va boshqalarga murojaat etiladi. Biroq bu yo‘l ziddiyatning chuqurlashuviga va turmush tarzini zararlantirishga olib keladi.

### **Tayanch so‘z va iboralar**

**Ijtimoiy me’yor** – ijtimoiy tartib va qoidalar majmuyi;

**deviant xulq-atvor** – ijtimoiy-axloqiy me’yorlardan chetga og‘ish;

**konformlik** – madaniy maqsad va vositalarga muvofiqlik;

**delinkvent** xudq-atvor – ijtimoiy-axloqiy me’yorlardan chetga chiqishning jinoiy darajasi;

**anomiya** – qonunlar, tartiblarning yo‘qligi;

**degradatsiya** – individ ijobiy xususiyatlarining tobora yomonlashuvi, kamayishi yoki ularning yuq bo‘lib ketishi.

### **Savollar va topshiriqlar**

- 1) Ijtimoiy xatti-harakat deganda nimani tushunasiz?
- 2) Ijtimoiy me’yor nima?
- 3) Ijtimoiy me’yordan chetga og‘ish deganda nimalar tushuniladi?
- 4) Shaxs xususiyatlarini vujudga keltiruvchi omillar nimalardan iborat?
- 5) Muammoli vaziyatning vujudga kelishi nimaga bog‘liq?
- 6) Deviant xulq-atvor haqida gapirib berdi.
- 7) Delinkvent xulq-atvor va uning ko‘rinishlari haqida nimalarni bilasiz?
- 8) Deviatsiyaning sabablari nimada?
- 9) Shaxs xususiyatlarining shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillarni ayting.

## **8-bob. AMALIY SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARNI TASHKIL ETISH VA UMUMLASHTIRISH**

### **8.1. Sotsiologik tadqiqotlar dasturi**

Sotsiologik tadqiqotlar bo‘lajak izlanishlarning ilmiy asoslangan reja va dasturini tayyorlashdan boshlanadi. Dastur haqiqatan kelib chiqqan va ilmiy-nazariy jihatdan puxta ishlangan bo‘lishi lozim. Zero, tadqiqot natijalari qanday bo‘lishi ana shu omillarga bevosita bog‘liqidir.

Dastur bo‘lajak tadqiqot materiallarini to‘plash, qayta ishlash va ma’lumotlarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Dastur tadqiq etiluvchi ijtimoiy muammo mohiyatini aniqlash, tadqiqot obyekti va predmetini belgilash, maqsad va vazifalarini xarakterlab berish, ish farazi (ilmiy taxmin)ni belgilash, usullarni aniqlash, ma’lumotlarni to‘plash va tahlil etish rejasini tuzib olish kabi qismlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Shunday qilib, dastur, asosan ikki katta bo‘lim, ya’ni nazariy-metodologik va amaliy uslubiy bo‘limlardan iboratdir.

**Nazariy-metodologik** bo‘lim mavzu tanlash, tadqiqot obyektini xarakterlash, maqsad va vazifalar, faraz hamda predmetni aniqlash kabi qismlarni o‘z ichiga olsa, **amaliy-uslubiy** bo‘lim ma’lumotlarni to‘plash usullarini bayon etish, yig‘ilgan materiallarni qayta ishlash, tahlil qilish va taviyalar singari amaliy faoliyatlarni mujassamlashtiradi.

Dasturni ishlab chiqish jarayonida ikki asosiy talabga rioya qilish muhimdir. Birinchidan, ishlab chiqilgan nazariy umumlashmalardan real tadqiqot jarayonlariga o‘ta bilish va ikkinchidan, olingan natijalar, faktlar, yig‘ilgan empirik materiallardan nazariy umumlashmalarga, ilmga qayta bilish, ko‘nikmalarga ega bo‘lish ana shu talablar mazmunidir. Bu ikki talabga rioya qilish, bir jihatdan, sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishni tizimli yo‘liga qo‘yish, jamiyat ijtimoiy muammolarini tadqiq etish ishlarini uzlusiz amalga oshira borishni ta’minlasa, ikkinchi jihatdan, ilm-fanning turli sohalarini uzviy rivojiana borishi uchun keng imkoniyatlar ochadi.

Sotsiologik tadqiqotlarda ilmiy maqsad muhim ahamiyat kasb etib, tadqiqotlarning nazariy yoki amaliy yo‘nalishlarda borishini ko‘rsatadi. Maqsadning amalga oshirilish jarayonida tadqiqotchi uch an’anaviy vazifani o‘z oldiga qo‘yadi. Avvalo, mavzuni ilmiy-nazariy jihatdan atroflicha tadqiq etish, ikkinchidan, bu ilmiy-amaliy mavzuning boshqa ilm va hayot jabhalari bilan nechog‘lik bog‘liqligi, ularga ta’siri masalalarini o‘rganish va nihoyat, uchinchidan, ijtimoiy ziddiyatli holatlardan chiqishning mantiqli asoslangan yo‘llarini belgilab berishdan iborat.

Sotsiologik tadqiqotlar ilmiy atamalari va tushunchalari qatorida obyekt va predmet tushunchalariga alohida to‘xtalib o‘tish lozim. Tadqiqotchi ijtimoiy muammo vaziyatini samarali hal etishi uchun obyekt va predmetni to‘g‘ri belgilashi muhim ahamiyatga ega. Obyekt, odatda mustaqil tushuncha sifatida tadqiqotchi ilmiy-amaliy faoliyatlarining umumiylarini ifodalaydi. Predmet esa tadqiqotchi tomonidan muayyan shaklga solinadi va maxsus tadqiqot ko‘lami sifatida o‘rganiladi. Obyekt predmetdan ma’no jihatidan ancha keng, predmet obyektning hosilasidir. Obyekt bu subyekt o‘rganishi kerak bo‘lgan narsa yoki voqelikni anglatsa, predmet esa obyektning qay jihatlarini o‘rganish kerakligini bildiradi. Zero, birgina obyekt zamirida bir necha alohida tadqiqot predmetlarini ajratib olib, o‘rganish mumkin.

Ilmiy muammo obyektini tizimli tahlil etish tadqiqotchi uchun uch faoliyat yo‘nalishini ochib beradi. Ular quyidagilar: tadqiqot predmetini aniqlab olish, asosiy tushunchalarni ajratib olish va ularga izoh berish hamda tadqiqot uchun ish gepotezasini yaratishdir. Ko‘pincha ana shu talabning uchalasi bir paytda yuzaga keladi, shu boisdan ham yuqoridagi uch talabning dastur bosqichlari deb emas, balki dasturning uzviy qismlari deb qarash maqsadga muvofiqdir.

Izlanishga qaratilgan tadqiqot rejasi uch bosqichdagi tadqiqot turini (hujjatlarni o‘rganish, ekspertlar bilan maslahatlashuv, kuzatish o‘tkazish) o‘z ichiga oladi. Bu bosqichlarning birinchisida ilmiy muammo xususidagi ma’lum bo‘lgan barcha ilmiy, publisistik va arxiv hujjatlarini chuqur o‘rganib chiqish nazarda tutilsa, ikkinchi bosqichda shu soha bo‘yicha taniqli olimlar, tajribali kishilardan iborat ekspertlar guruhi fikrini o‘rganishga e’tibor qaratiladi. So‘nggi bosqichda esa tadqiqotchi muayyan ilmlar tasavvurlariga ega bo‘lgan holda obyekt xususida kuzatish ishlarini olib borishni ko‘zda tutadi. Izlanish rejasi ilmiy muammoni aniq nomlab olish va asoslaydigan gipotezani ilgari surish bilan yakunlanadi.

Bayon etish rejasi bir qator sotsiologik tadqiqot rejalarini qo‘llash, olingan ma’lumotlarni tahlil etish orqali qabul etilgan farazning hayotiyligini tekshirib ko‘rish va o‘rganilayotgan obyekt xususida aniq miqdoriy va sifat xarakteristikasiga ega bo‘lishni taqozo etadi. Bayon etish rejasi asosida ish ko‘rilganda ilgari ma’lum bo‘lgan ko‘pgina faktlarni tartibga tushirish va ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar qanday ekanligi xususida ko‘pgina ma’lumotlar qo‘lga kiritiladi. Bunday tadqiqotlar obyekt tuzilishiha aloqador barcha empirik ma’lumotlarni klassifikatsiya qilish bilan yakunlanadi. Sotsiologik tadqiqotlarning eksperimental rejasi obyekt haq-

da ma'lumotlar asosida izohlovchi farazni ilgari surish imkonini beradi. Mazkur tadqiqot rejasidan maqsad, obyekt zamiridagi sabab-oqibat aloqlarini aniqlash, obyektning ayni holati va rivojlanishi xususidagi shart-sharoitlarni aniq bilib olishdan iboratdir. Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishning real tajribasida muayyan ilmiy tadqiqot jarayonida yuqorida tilga olin-gan har uch reja ham o'zaro uyg'un holatda ketma-ket qo'llanilib boriladi.

## 8.2. Sotsiologik tadqiqot usullari

Sotsiologik tadqiqot usullari ichida hozirgi kunda eng ko'p tarqalgani so'rov usulidir. So'rov usulining qulayligi shunda namoyon bo'ladiki, tadqiqotning kuzatish va eksperiment usullarini faqat mutaxassis sotsiologlar qo'llashi mumkin bo'lsa, so'rov usulida tadqiqot o'tkazishga qisqa muddatli tayyorgarlikdan o'tgan yordamchilarni ham jalb qilish va ular yordamida respondentlarning katta miqdorini qamrab olish mumkin. So'rov usuli boshqarish uchun qulay usuldir. Bundan tashqari, tadqiqot ko'lамини kengaytirishda so'rov usulining imkoniyatlari juda katta. Bu usul qo'llanilganda katta korxona va muassasalar, sohalar, mintaqalar va hatto, mamlakat miqyosida ham tadqiqot o'tkazish mumkin. Kuzatish usuli faqat hozirgi davrda yuz berayotgan hodisalar haqida ma'lumot bersa, so'rov usuli respondentga bevosita murojaat qilib, uning xulq-atvori, harakatidan ko'zlagan niyatları, o'tgan davrda qilgan va hozir qilayottan ishlari, kelajakka mo'ljallagan rejalar to'g'risida batafsil ma'lumot olish imkonini beradi. Ayniqsa, kishining his-tuyg'ulari, kechinmalari, harakat motivlari to'grisida ma'lumot to'plash kerak bo'lganda, bu usul qo'l keladi, chunki bu hodisalar kuzatuvchi nigohidan yashirin bo'lib, ularni kuzatish usuli bilan aniqlab bo'lmaydi.

So'rov usulining mohiyati shundan iboratki, tadqiqot olib boruvchi savol beradi va respondent o'zining dunyoqarashi, ma'lumoti, bilimi va xohishidan kelib chiqib, savollarga javob beradi. Tadqiqotchi respondentga savol berishdan avval o'zi bir necha savollarga javob topishi kerak. Va savollar quyidagilar:

1. Savolni kimga yoki kimlarga bermoqchi?
2. Respondent savollarga javob berishni xohlaydimi yoki yo'qmi?
3. Respondent qo'yilgan savollarga javob bera oladimi, yo'qmi?
4. Respondent haqqoniy javob berishi uchun savollarni qanday tarzda, shaklda berish kerak?

Mana shu savollarga javob topa olgan sotsiolog tadqiqotning muvafaqiyatli chiqishini ko'p jihatdan ta'minlagan bo'ladi.

To‘plamning kerak bo‘lgan ma’lumot xarakteri va uni to‘plash usuliga qarab so‘rovlар иккি турга bo‘linadi:

1. Anketa so‘rovi.

2. Intervyu.

Savol berilishi mumkin bo‘lgan odamlar yoki potensial respondentlarni qay darajada qamrab olishiga qarab so‘rovlар иккি турга bo‘linadi:

1. Yalpi so‘rovlар.

2. Tanlab o‘tkaziladigan so‘rovlар.

Bulardan tashqari, ochiq va yopiq so‘rovlар, yuzma-yuz va sirtdan so‘rov singari turlari ham mavjud.

Sotsiologiyada keng qo‘llaniladigan usullardan biri **intervyu** bo‘lib, u anketa bilan ko‘p umumiylikka ega. Anketada savollar yozma tarzda berilsa, intervyyuda og‘zaki savollar beriladi. Intervyu respondent bilan bevosita muloqotni taqozo qiladi. Intervyuning oddiy suhbatdan farqi yana shundaki, suhbatdoshlar bir-birini qiziqtirgan masalalalar to‘g‘risida gap yuritsa, intervyu jarayonida faqat bir tomon — tadqiqotchi savol va respondent javob beradi. Intervyu bilan oddiy suhbat o‘rtasida tafovut yana shunda ko‘rinadiki, suhbatdoshlar, odatda, tanish odamlar bo‘ladi, intervyu esa deyarli иккি notanish odamning suhbatidir.

**Kuzatish usuli** faqat sotsiologiya yoki ijtimoiy fanlardagina emas, balki barcha fan sohalarida ham keng qo‘llaiiladi. Kuzatish turli maqsadlarda, shaklda, qamrovda, vositalar yordamida olib boriladi. Barcha odamlar o‘z hayotlarida kuzatish usulidan u yoki bu darajada foydalanadilar. Lekin ular foydalanadigan usul ilmiy kuzatish usuli emas, balki oddiy kuzatish usulidir. Oddiy turmushdagi kuzatish ham aksariyat holda muayyan maqsadga yo‘naltirilgan va muayyan darajada tashkil etilgan bo‘ladi. Lekin bu kuzatishlar ilmiy maqsadni ko‘zlamagani va ilmiy muammoni hal etishga qaratilmagani uchun ilmiy kuzatish bo‘la olmaydi.

*Ilmiy kuzatishlar* muayyan nazariya yoki farazni tasdiqlash, to‘ldirishni yoki rad etishni maqsad qilgan holda olib boriladi. Ilmiy kuzatishning maishiy turmushdagi kuzatishdan farqli qiladigan xususiyatlaridan biri uning nazariy, ilmiy asoslaridir. Kundalik turmushdagi kuzatish kishilarning hayot tajribasiga asoslanib olib borilsa, ilmiy kuzatish ilmiy bilimlar asosida olib boriladi.

Ijtimoiy fanlarda kuzatish usulining qo‘llanilishi uning tabiiy fanlarda qo‘llanilishidan ancha farq qiladi. Tabiatda tadqiqotchining kuchli histuyg‘ularini uygotadigan voqealar yuz bermaydi. Jamiyatda yuz berayotgan hodisalarni kuzatayotganda esa tadqiqotchi his-tuyg‘ularga berilib ke-

tishi, bo‘layotgan hodisalarga ijobiy yoki salbiy munosabatda bo‘lishi va bu hol tadqiqot natijalariga, xulosalarning ilmiy va obyektiv bo‘lishiga ta’sir o‘tkazishi mumkin. Shuning uchun ijtimoiy hodisalarni kuzatishga harakat qilayotgan tadqiqotchi o‘z his-tuyg‘ularini tizginlay olishi, xulosa chiqarish paytida shu his-tuyg‘ulardan yuqoriroqqa ko‘tarila olish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

Sotsiologik kuzatish olib borishning shart va talablari quyidagilar:

1. Kuzatish kerakli saviyada va darajada tashkil qilinishi kerak. Bu shart sotsiologik tadqiqotlar taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lib, natijalarning obyektivligini ta’minlashga qaratilgan. Kuzatish olib borilganda shunday holatlar vujudga keladiki, ularni texnika vositalarida tasvirga tushirilmasa yoki ovozlar yozib olinmasa, bu holatlarni tabiiy holda qaytarish mumkin emas. Shuning uchun kuzatishni texnik jihatdan ta’minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Kuzatishning muntazamliligi. Bu shart ham tadqiqot natijalarining obyektivligini ta’minlashga qaratilgan. Kuzatish muntazam olib borilmay, o‘lda-jo‘lda va ahyon-ahyonda olib borilsa, tadqiqot obyekti uchun xarakterli holatlar kuzatilmay qolishi va oqibatda kuzatish natijalari obyektiv bo‘lmay qolishi mumkin.

3. Kuzatuvchining xolisligi. Bu shart ta’minlanmasa, tadqiqot jarayonida kuzatuvchi o‘zi o‘rganayotgan jarayonlarga ijobiy yoki salbiy munosabat bildirishi va buning oqibatida voqealarni subyektiv talqin qilishi mumkin.

4. Kuzatilayotgan obyekt to‘g‘risida mumkin qadar ko‘proq, ma’lumot to‘plash. Obyekt qanchalik batafsil kuzatilsa, chiqarilgan xulosalar ning haqiqatda shunchalik yaqin bo‘lishi uchun imkoniyat yaratiladi. Xulosalar yetarli bo‘limgan ma’lumot asosida chiqarilsa, obyektning ma’lum xususiyatlari kuzatuvchi e’tiboriga tushmay qolgan bo‘lishi mumkin. Bu esa xulosalarning noto‘g‘ri bo‘lishiga olib keladi.

5. Kuzatishning borishini va natijalarini batafsil qayd qilib borish. Agar shunday qilinmasa, xulosa chiqarish paytida kuzatishning muayyan natijalari e’tibordan chetda qolishi mumkin. Bu esa xulosaning chala yoki noto‘g‘ri bo‘lishiga olib keladi. Yuqorida aytilganidek, kuzatish jarayonini qayd qilib borishda texnika vositalari katta yordam berishi mumkin.

Sotsiologik kuzatishlarni shartli ravishda ikki turga bo‘lish mumkin:

1. Chetdan kuzatish.

2. Ichkaridan kuzatish.

Obyekt chetdan kuzatilganda undagi jarayonlarning ishtirokchilari o‘zlarini kuzatuv obyekti ekanliklaridan mutlaqo bexabar bo‘ladilar. Masalan,

xaridorlar xulqini o‘rganmoqchi bo‘lgan tadqiqotchi sotish zalida yoki peshtaxta ortida turib, xaridorlarni ko‘proq qaysi buyum qiziqtirayotgani, ularning belgilangan narxlarga munosabati va boshqalarni kuzatishi mumkin. Bunda xaridorlar o‘zlarining kuzatish obyekti bo‘lganliklarini bilmaydilar. Agar ular o‘zлari sotsiologik kuzatish obyekti bo‘lganliklarini bilib qolsalar, ularning xulqida ma’lum o‘zgarishlar yuz berishi, demak, bu xulq tabiiy bo‘lmay qolishi mumkin.

Chetdan turib kuzatayotgan tadqiqotchi o‘rganilayotgan obyektga hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydi va uni tabiiy holda o‘rganadi. Ichkaridan kuzatilganda tadqiqotchi ikki xil usuldan foydalanishi mumkin:

1.Ochiq kuzatish.

2.Yashirin yoki xufya kuzatish.

Ilmiy bilishning boshqa usullari singari kuzatish usulining ham afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Bu usulning eng asosiy afzalliklaridan biri shuki, u tadqiq qilinayotgan obyektdagi jarayonlarning kechishiga ta’sir o‘tkazmay yoki juda kam ta’sir o‘tkazgan holda o‘rganish imkonini beradi. Sotsiologik kuzatish ilmiy empirik bilish usuli sifatida va mohiyat e’tibori bilan murakkab jarayon bo‘lgani uchun reja asosida olib boriladi. Kuzatish rejasi usulning xususiyatlari va asosiy bosqichlarini nazarda tutgan holda tuziladi.

### **8.3. Sotsiologik ma’lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish**

Ma’lumotlarning tahlil bosqichi o‘rganilayotgan obyekt haqida olingan axborotni shu obyekt haqida oldindan mavjud bo‘lgan axborot bilan solish-tirishdan iboratdir. Sotsiologik ma’lumotlarni tahlil etish bosqichining ma’nosи va maqsadi natijalarning ma’nosini tushuntirib berish, fikrlarni umumlashtirish va yagona nazariy tizimga keltirishdir. Shuning uchun tahlil natijasida hosil bo‘ladigan hisobot, birinchidan, o‘rganilayotgan ijtimoiy obyektning miqdoriy parametrlarini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi, ikkinchidan, uning rivojlanish sur’atlarini va yo‘nalishlarini (o‘sish yoki pasayish) ko‘rsatishi, uchinchidan, ijtimoiy hodisalar orasidagi o‘zaro aloqadorlik qonuniyatlarini ishonchli ko‘rsatkichlar yordamida ochib berishi kerak. Yana shuni ta’kidlash zarurki, ishlov berish va matematik tahlil qilish bosqichidan keyin ma’lumotlarii o‘rtacha qiymatlari hosil bo‘ladi, ular umumiylashtirish etilib, tadqiq etilayotgan obyektning xilma-xil elementlarini yaxlit tizimda ifodalaydi. To‘plangan empirik axborotlarni to‘g‘ri izohlash va ma’lumotlar mantig‘iga mos xulosa va tavsiyalarni shakllantirish tadqiqotchidan katta aql hamda ilmiy-nazariy qobiliyatni talab etadi.

Sotsiologik tadqiqotning natijalarini to‘g‘ri izohlab beruvchi qator ilmiy-uslubiy echimlar tizimi mavjuddir, ammo har bir konkret holatda bu narsa bir butun kishilar jamoasi (sotsiologlar, tashkilotlar ma’muriyati, ma’muriy va ma’rifiy sohalarda ishlovchi shaxslar, so‘raluvchilarning o‘z-lari) ishtirokida amalga oshiriladi. Sotsiologik tadqiqot natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish jarayonidagi ayrim bosqichlarni ajratib tavsiflashga harakat qilamiz.

Birinchisi – tadqiqot gipotezalariga mos va muvofiq hosil qilingan empirik ma’lumotlarni tartibga solish, guruhlarga ajratish, tasniflashdir. Bu bosqichda tadqiq etiluvchi hodisalarning miqdoriy tasniflari tadqiqot tomonidan qamrab olinadigan, obyektlar tez-tez takrorlanishi empirik ma’lumotlarni statistik guruhlarga ajratish imkonini beradi.

Ijtimoiy axborotlardagi ma’lumotlar hamda sotsiologik tadqiqotlarning vazifalari va maqsadlari xilma-xilligini inobatga olib, har xil guruhlarga ajratish usullarini qo‘llash mumkin. Guruhlarga ajratishning eng sodda ko‘rinishlaridan biri – tipologik qurilmalar, ya’ni kuzatiluvchi birliklarni biron bir alomat bo‘yicha maxsus sinchiklab o‘rganishdir (masalan, yoshi, jinsi va h.k.). Hozirgi paytda EHMdan foydalanish natijasida bu usulning imkoniyatlari ancha kengaydi. O‘zgaruvchilarning tipologiyasini amalga oshirish va barqaror guruhlarni ajratib olish uchun faktorli, dispersion tahlil usullari qo‘llanilayapti.

Interpretatsiya va tahlilning ikkinchi bosqichi – sonli tasniflarning ishonchlilagini va o‘rtacha qiymat xolisligini tekshirish, ma’lumotlarni umumlashtirishdir. Bu bosqichda turli tasodifiy tasnifga ega bo‘lgan axborotlar bir-biridan ajratib olinadi.

Uchinchi bosqichda hosil qilingan sonli tavsif orqali mavjud bo‘lgan tadqiqotning gipotezalari tekshiriladi. Taxmin (gipoteza) deganda biror-bir dalil, hodisa va jarayonni tushuntirib (yoki rad etiladi, yoki qabul qilinadi) beradigan ilmiy mulohazani tushuniladi.

Sotsiologik tadqiqotni tashkil qilishga va o‘tkazilishiga katta sarf-xarajatlar ketishi tufayli o‘rganilayotgan muaammoni iloji boricha to‘laroq qamrab oladigan bir nechta gipoteza ilgari suriladi. Tadqiqot natijalarining ishonchliliqi va gipotezalarning hayotiyligi eng samarador vosita sifatida kishilarning ijtimoiy faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu sababli gipotezani sinash jarayonida tadqiqotchi ko‘proq real hodisalarga tayaniishi, xilma-xil ma’lumotlarni birlashtirishi, empirik materiallardan o‘rganilayotgan obyektning zaruriy, muhim jihat va xossalarni ajratib berishga intilishi kerak.

Gipotezalarni empirik sinashning eng yaxshi usullaridan biri *sotsiologik eksperiment*dir. U gipotezalarni sinash usullaridan eng ishonchlisi

bo'lsa-da, o'rganilayotgan subyektlar orasidagi bog'lanishlar murakkab va ko'p qirrali bo'lganligi sababli hozirgi paytda kam ishlatiladi.

Hozirgi zamon sotsiologiyasida eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri statistik usuldir. Gipotezalarning ishonchliligini aniqlashning tipik usuli sifatida miqdorlarning o'rtacha qiymatlarini hisoblash, o'zaro bog'liq koefitsiyentlarni aniqlash va h.k. ni ko'rsatib o'tish mumkin.

*Ilmiy hisobotni tuzish.* Sotsiologik tahlilning natijalari tizimlashgan va guruhlarga ajratilgan ko'rinishda ilmiy hisobotda namoyon bo'ladi. Hisobotni tayyorlashda shuni esda tutish kerakki, u keyinchalik nazariy ishlarni davom ettirishga asos bo'lishi va ijtimoiy boshqaruv amaliyotida sotsiologik tadqiqotlar natijalarini aks ettiruvchi mohiyat va shaklga ega bo'lishi kerak. Hisobotga izohlovchi xat kiritilishi ilmiy taomilga kirgan bo'lib, unda qisqacha asosiy xulosalar va natijalar keltiriladi.

Hisobotning ilovasi sifatida jadvallar, grafiklar, so'rovnomalar, blanklar, test va boshqalar keltiriladi.

*Hisobotning bo'limlari.* Hisobotning tarkibi tadqiqotning turiga, nazariy yoki amaliy ekanligiga bog'liqdir.

Dastavval hisobot tuzilayotganda muammoning qo'yilishi, tadqiq etiluvchi masalalarning ta'rifi, asosiy tushunchalarning nazariy interpretasiyi, muammoning qay darajada o'rganilganligi va uning yechimiga e'tibor beriladi. Alovida e'tiborni tadqiqotning uslublar tasnifiga, tanloving tuzilshni, axborotlarni yig'ish tartiblariga ajratish kerak. Oxirida alovida bo'lim orqali o'tkazilgan tadqiqot natijalarining har tomonlama tahlili va qo'yilgan masalalarning yechim darajasi tasniflanadi. Bu bo'limning oxirida tadqiqotning mavjud bo'lgan amaliy natijalari ko'rsatiladi va aniq xulosalar shakllanadi, yangi axborotni olish zarurligi aniqlanadi va uni hosil qilish uchun texnikaviy uslubiy tavsiyalar beriladi.

Ikkinchidan, hisobotning har bir bo'limida tadrijiy bir-birini to'ldiruvchi ikki qismning o'zaro mutanosibligini ta'minlash zarur. Birinchi qismda muammolar va natijalarni, ikkinchi qismda esa xulosalarni chuqur ilmiy asoslab berishi shart. Bu esa, tadqiqotchini hozirgi ahvolni sharhlash va umumlashtirishdan tashqari, uni tahlil va prognoz qilishga undaydi.

Uchinchidan, hisobot so'rovnoma dagi savollar ketma-ketligidan mustasno, respondentlarning sotsial-ruhiy portreti, intellektual imkoniyatlari, voqelikka munosabati umumiylar manzarasining ifodasidan iborat bo'lishi kerak. Hisobotda so'rovnomaning barcha savollari va ularga mos natijalari ilmiy mantiq talablariga binoan tahlil etib beriladi.

To'rtinchidan, hisobotning texnik jihatdan yuqori saviyada rasmiy lashtirishi va to'g'ri tuzilishi katta ahamiyatga ega. Ko'pi bilan hisobot (ilovasiz) 50-60 betdan iborat bo'lganligi ma'qul. Hisobotga doir tushun-

tirish xati 10 betgacha bo‘lishi mumkin. Hisobotda tadqiqot ishlariga jalg etilgan barcha tashkilotlar, o‘tkazilish muddati va joylari, tadqiqot uslubiyoti bo‘yicha ko‘rsatma beruvchilarni tayyorlashning tartibi va tarkibi, ma’lumotlar yig‘ishning takomillashtirilishi, axborotlarni kodlashtirish uchun ishlatilgan tizim va matematik ishlov berishda qo‘llanilgan usullar ko‘rsatilishi lozim. Jadvallar keragidan ortiqcha raqamlarga ega bo‘lmasi ligi kerak.

Bundan tashqari, hisobot yozish jarayonida buyurtmachiga tadqiqotning eng muhim natijalari bo‘yicha tezkor axborotlarni ekspress-revyu ko‘rinishida topshirish maqsadga muvofiqdir.

### **Tayanch so‘z va iboralar**

**Anketa** – tartibga solingan savol va mulohazalar bayon qilingan so‘rov varaqasi;

**anketa so‘rovi** – sotsiologik tadqiqotlarda qo‘llaniladigan so‘rovlarning asosiy xillaridan biri;

**gipoteza** – ilmiy taxmin,faraz;

**intervyu** – sotsiologik tadqiqotda maqsadli suhbat;

**kontent – tahlil** – sotsiologik axborot mazmunini hujjatlar asosida mivdoriy va sifat jihatdan o‘rganish;

**korrespondent** – sotsiologik tadqiqot olib boruvchi;

**respondent** – sotsiolog so‘roq qilinadigan, surishtiriladigan kishi;

**axborotni kodlash** – empirik ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishga tayyorlash bo‘yicha chora-tadbirlar yig‘indisi.

### **Savollar va topshiriqlar**

1. Sotsiologik tadqiqotlarni rejalashtirilipsh qanday amalgam oshiriladi?
2. Sotsiologik tadqiqot dasturi deganda nimani tushunasiz?
3. Respondentlarni tanlash usullarini gapirib bering.
4. Ijtimoiy buyurtma nima?
5. So‘rov usuli nima?
6. Kuzatish va uning shakllari haqida gapirib bering.
7. Sotsiologik kuzatishning zarur shartlari nimalardan iborat?
8. Intervyu nima?
9. Analitik tahlilning o‘ziga xosligi nimada ko‘rinadi?

## **9-bob. IJTIMOIY TEXNOLOGIYALAR**

### **9.1. Ijtimoiy texnologiyalar, ularning mohiyati va tasnifi**

“Kishilarni boshqarish” o‘zining texnologik prinsiplari va strategik maqsadlariga ko‘ra “resurslarni boshqarishdan farq qiladi. Ijtimoiy texnologiyalar boshqarish nazariyasi va ijtimoiy muhandislik doirasida XX asr boshlaridan rivojlandi. Ijtimoiy muhandislikning vujudga kelishi sotsiologik fanlar xulosalarining amaliyotda qo‘llanishi, ijtimoiy texnologiyalarning tashkil etilishi bilan bog‘liq.

AQSh, Fransiya, Angliyada 20-yillarda o‘zaro munosabatlarning turli texnologiyalari, tashkiliy texnologiyalar va o‘z-o‘zini boshqarish texnologiyalari ishlab chiqildi. Ular 1929-1930-yillarda E.Meyoning insoniy munosabatlar g‘oyalalarida aks etgan. Ijtimoiy muhandislik A.Gostev, P.Kerjensev, M.Birshteyn, O.Ermanskiy nomlari bilan ham bog‘liq.

“Ijtimoiy texnologiya” atamasiga doir ta’riflar ko‘p bo‘lsa ham, ular aniq emas. Texnologiya atamasini ishlab chiqarish sohasiga tatbiq qilganda, u materiallarni foydali narsaga aylantirish usullari, vositalari, bu bora-dagi xizmatlar va axborotlar majmuyini anglatadi.

Kishilar turmush darajasini ko‘tarish bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy o‘zgarishlar yangi ijtimoiy strukturalar, institutlar, ijtimoiy o‘zaro ta’sir shakllarini tashkil qilish chora-tadbirlari ta’sirida bo‘ladigan investitsiyalar jarayonini o‘zida ifodalaydi. AQShlik menejment P.Drukerning fikricha, “Ijtimoiy yangiliklar bug‘ lokomotivi yoki telegrafni joriy qilishga qara-ganda ko‘proq ahamiyatga ega». Ijtimoiy texnologiyalar esa innovatsiyalarni amalga oshirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Ijtimoiy texnologiyalar hozirgi paytda ma’muriy buyruqbozlik tizimidan siyosiy va iqtisodiy erkinlikka asoslangan jamiyat qurayotgan O‘zbekiston uchun katta ahamiyat kasb etadi. Barcha sohalarda ijtimoiy hayotni tashkil etishning yangi shakl va usullarini izlab topish turli ijtimoiy texnologiyalarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Jamiyatimizdagi barcha fuqarolar yangi iqtisodiy munosabatlarga etarli darajada tayyor emas. Shuning uchun ham, ijtimoiy texnologiyalar hozirgi paytda quyidagilarni taqozo etadi:

- a) aholining ayrim obyektiv sabablarga ko‘ra yangi sharoitga moslasha olmayotgan qismini ijtimoiy muhofaza qilish;
- b) iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarni o‘z-o‘zini boshqarish texnologiyalarini yaratish;
- v) minimal vaqt va minimal kuch sarf qilib, kishilarni yangi faoliyat

sohalari uchun tayyorlashga imkon beradigan ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish.

Sotsiologiya fanlarida to‘plangan bilim va tajriba ijtimoiy texnologiyalarni rivojlantirish uchun asos bo‘ladi.

Yaqin paytlargacha sotsiologiyada keng qo‘llaniladigan usullar, asosan, bilim olish usullari sifatida rivojlantirilgan, hodisaning mohiyati haqidagi yetarli xulosalarga ega bo‘la turib, muammolarni hal qilish yo‘lini ko‘rsatib bera olmaganlar.

Sotsiologiyada ijtimoiy texnologiya tushunchasi quyidagi ma’nolarni anglatadi:

1. Ijtimoiy texnologiya inson faoliyatining ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan maqsadga erishishdagi muayyan usul.

2. Usulning mohiyati, faoliyatni ish tartibi va marosimlar hamda operatsiyalarga oqilona ravishda bo‘lish, ularning o‘zaro muvofiq va mutanosibligini ta’minlashdir.

3. Bunday taqsimot avvaldan, ongli va rejali tarzda ilmiy bilimlar, ilg‘or tajribaga asoslangan holda amalga oshiriladi.

4. Ijtimoiy texnologiya ikki shaklda: dastur – ish tartibi va operatsiyalar hamda shu dasturga asoslangan faoliyat shaklida bo‘ladi.

5. Dastur texnologiyalashtirilayotgan faoliyat yo‘nalishini belgilaydi.

6. Ijtimoiy texnologiya inson madaniyati elementi bo‘lib, ijtimoiy-madaniy muhitda evolutsion yo‘l bilan “o‘sib chiqadi” yoki uning qonuniyatlari asosida quriladi.

Ijtimoiy texnologiya atamasiga V.G.Afanasev, E.Markaryan, S.Brusov, E.Kapitonov kabi qator olimlar ta’rif berganlar. Ilmiy adabiyotlarda “ijtimoiy texnologiya” atamasi quyidagi to‘rt ma’noda ishlatiladi:

1. Ijtimoiy texnologiya, ijtimoiy jarayon va tizimlarga ta’sir ko‘rsatish bo‘yicha inson faoliyatini tashkil qilish usullari, vositalarining majmuyidir. U ijtimoiy subyektlar o‘zaro ta’siri uyg‘unligini tashkil qiladi.

2. Yuqorida ko‘rsatilgan usul va vositalarning bayon etilishi. Ijtimoiy texnologiyalarni qo‘llashni o‘rganish 1-3 oydan 2 yilgacha vaqt oladi.

3. Ijtimoiy texnologiya deganda, shuningdek, qayta tashkil etilgan faoliyatning usul va ish tartibi, marosimlarini tashkil etish, undan foydalanish va tarqatishni o‘zida ifodalovchi bilim sohasi tushuniladi.

4. Ijtimoiy texnoloshyja ijtimoiy subyektlarni qayta qurish faoliyati xarakteristikasini anglatadi.

Har qanday jarayonni texnologiyalashtirish uchun bir necha shartni bajarish zarur. Birinchidan, jarayonning o‘zi shunday murakkablikka ega

bo‘lishi kerakki, uni ayrim bo‘laklarga ajratish mumkin bo‘lsin. Ikkinchidan, minimum darajadagi sa'y-harakat bilan maksimal natijaga erishish uchun subyekt faoliyatini bir tizimga solishga imkon beruvchi vositalarni qidirib topish.

Har qanday texnologiyaning birinchi belgisi ushbu jarayonni o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bosqichlar, operatsiyalarga ajratishdan iborat. Ikkinchi belgisi maqsadga erishishga yo‘naltirilgan faoliyatning o‘zaro muvofiqligi va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi. Uchinchi belgisi shundan iboratki, har bir texnologiya undagi marosim va operatsiyalarni bajarishda bir xillik bo‘lishini taqozo etadi.

Ijtimoiy texnologiyalarda ma’naviy va moddiy ishlab chiqarish orasida inson qobiliyati va talablarining almashuvi vositasi nazarda tutiladi

Inson, odamlarning o‘zaro ta’siri, katta va kichik ijtimoiy guruhlar, shuningdek, turli institut va tashkilotlar ijtimoiy texnologiyaning obyekti bo‘lib hisoblanadi.

Ijtimoiy-texnologik yondashuv ma’muriy buyruqbozlik munosabating muqobili hisoblanadi. U ijtimoiy hodisalar ichki va tashqi aloqalari turli-tumanligini, o‘zgartirishlarning ko‘p variantliligi va tabiiyligini, insonning shaxs sifatida rivojlanishini ta’minlashni, har bir insonning o‘z imkoniyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratishni taqozo etadi.

O‘zbekistonda hozirgi paytda chuqur ishlab chiqilgan texnologiyaga, jamiyatning rivojlantirishga, shaxslar va ijtimoiy guruhlarning huquqlarini muhofaza qilishga talab katta va barcha sharoit mavjud. Ushbu davlat ahamiyatidagi muammoni hal qilish uchun o‘rta va mikrodarajadagi ijtimoiy texnologiyalarni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish kerak.

Bozor iqtisodiyoti har bir odam mehnatining samarali bo‘lishiga imkon beruvchi boshqarish va tashkil qilishning zamonaviy texnologiyalarini, turli faol ijtimoiy guruhlar orasida ishchan aloqalarni tashkil etishni talab qiladi.

Real hayotda turli texnologiyalardan foydalaniladi. Inson faoliyati va ijtimoiy jarayonning har bir turi uchun turlicha texnologiyalar ishlab chiqarilgan. Ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bugungi kunda boshqarish va axborot texnologiyalari, shuningdek, ta’lim va kasbiy tay-yorgarlik, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda faol insonni rivojlantirish texnologiyalari, nizolarni hal qilish kabi texnologiyalar ishlab chiqilyapti. Inson va uning faoliyatini o‘rganuvchi har bir tarmoq ijtimoiy jarayonlarni takomillashtirishga yordam beruvchi o‘z ijtimoiy texnologiyasini yaratmoqda.

Ijtimoiy texnologiyalarning qanday ijtimoiy munosabatlar darajasida ishlab chiqilishi va joriy etilishiga qarab, ularni uch guruhga bo‘lish mumkin:

- makrotexnologiyalar, ya’ni makrotizimlar (jamiyatning hududiy tizimlari, sinflar, partiyalar, katta ijtimoiy guruhlar va b.) texnologiyasi;
- mezotexnologiyalar, ya’ni o‘rta darajada – shahar, boshqa aholi punktlari, yirik mehnat kollektivlari va boshqalarda qo‘llaniladigan texnologiyalar;
- mikrotexnologiyalar, ya’ni kishilarning katta bo‘lmagan birlashmalari, mikrodarajadagi ijtimoiy jarayonlar, shuningdek, shaxs imkoniyatlarini rivojlantirish va undan oqilona foydalanishga mo‘ljallangan texnologiyalar.

Ijtimoiy texnologiyalarni jamiyat hayotining asosiy sohalari va inson faoliyati turlariga ko‘ra yana quyidagicha tasnif qilish mumkin: ishlab chiqarish va mehnat, siyosiy, ta’lim faoliyati, sport sohasi, oilaviy turmush sohasi bo‘yicha.

Faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha ijtimoiy texnologiyalarni 4 turga ajratib ko‘rsatiladi:

1. Ijtimoiy tizimlarni shakllantirish texnologiyalari (masalan, ijtimoiy loyihalash);
2. Ijtimoiy tizim va jarayonlar barqarorligini ta’minlashga yo‘naltilgan funksional texnologiyalar (masalan, ijtimoiy boshqarish);
3. Ijtimoiy tizimlarni o‘zgartirish va rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalar (ochiq turdag‘i o‘yin usullari);
4. Ijtimoiy kurash texnologiyalari ijtimoiy tizimni muhofaza qilish va keraksiz hodisalarini bostirish texnologiyalari (jamiyatdag‘i xavfsizlik va tartibni muhofaza qilish)<sup>1</sup>.

Shunday qilib, ijtimoiy texnologiya mavjud tajribani tanqidiy tahlil qilish asosida ijtimoiy jarayonlar va kishilar faoliyati samaradorligini oshirishga yordam beruvchi innovatsiyadir.

## **9.2. Ijtimoiy texnologiyalardan hududiy darajada foydalanish**

Ijtimoiy texnologiyalardan hududiy darajada foydalanish katta ahamiyatga ega bo‘lib, u quyidagi sabablar bilan bog‘liq.

Hududiy iqtisodiyotda murakkab hududiy strukturalar uchun maqsadni shakllantirish asosiy konseptual – uslubiy muammolar qatoriga kiradi.

<sup>1</sup> Дудченко В.С., Макаревич В.Н. Социоинженерная деятельность, социальное проектирование, социальная технология. // Социология – М.: 1989, с.166-167.

Global darajada hududiy fanning maqsadli parametrlari inson mavjudligi va jamiyat faoliyatining me'yoriy maqsadlari hamda ontologik kategoriyalari bilan birlashadi. Qo'yilgan maqsadlar uni amalga oshirish uchun muvofiq bo'lgan tizimda namoyon bo'ladi va moddiylashadi.

Shuning uchun ham, bu maqsadlarni o'z vaqtida va bexato qidirib topish va konkretlashtirish muhimdir. Chunki hududiy rivojlanish maqsadlari bozor iqtisodiyoti maqsadlari bilan to'g'ri kelmaydi. Hududiy maqsadlarda insoniyatning ko'p asrlik global intilishlari aks etgan.<sup>1</sup>

Zamonaviy hududiy dasturlash va tartibga solishga muvofiq maqsadli dasturlarda uch asosiy turdag'i pirovard maqsadlar qo'yilgan bo'lishi kerak.

Birinchi tur ishlab chiqarishni oqilona joylashtirishga qaratilgan U resurslarning yangi turlarini xo'jalik aylanmasiga jalb qilish va ulardan samarali foydalanish, hududiy xo'jaliklarni ixtisoslashtirish, turli majmualarni shakllantirish, shahar va qishloqlarni to'g'ri joylashtirishni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi tur mamlakatning turli hududlarida bir xil ijtimoiy-iqtisodiy yashash tarzini ta'minlashga yo'naltirilgan. Bu esa turli hududlarda daromad va bandlik darjasasi hamda ishsizlikning salbiy oqibatlarini kamaytirish, mehnat resurslarini kerakli yo'nalishga ko'chirishni rag'batlantirish, kam rivojlangan hududlar degradatsiyasining oldini olish bilan bog'liq.

Uchinchi tur resurs – iqtisodiy maqsadlari hisoblanadi. U tabiiy resurslardan ishlab chiqarishda foydalanishning oqilona ko'lamini o'rnatish, tabiatga salbiy antropogen ta'sirni bartaraf qilish yoki kamaytirish, turizm va aholining hordiq chiqarishi uchun shart-sharoit yaratishga yo'naltirilgan.

Ishlab chiqarish kuchlari va jamiyat hayot faoliyati rivojlanishining obyektiv talablaridan kelib chiqadigan ushbu maqsadlar hududiy dasturlarning ko'p maqsadli va kompleks xarakterini belgilaydi.

Ko'p tadqiqotchilar hududiy rivojlanishni hudud iqtisodiy imkoniyatlari o'sishiga tenglashtirishni rad etganlar. Hududiy rivojlanish hudud tu'man faoliyati tartibi sifatida talqin qilinadi. U aholi yuqori turmush darjasasi parametrlarining ijobiy rivojlanishiga hamda hududning ijtimoiy, xo'jalik, resurs, ekologik imkoniyatlarini muvozanatli qayta ishlab chiqarishga yo'naltirilgan.

Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, boshqarish hududiy darajasining asosiy vazifasi – ijtimoiy masalalar ustuvorligi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uyg'unligi, birliga hisoblanadi. Demak, har bir qabul qilinayotgan qaror o'zining kishilar yashash sharoitiga ta'sir ko'rsatishi

<sup>1</sup> Матрусов Н.Д. Региональное прогнозирование и региональное развитие. России.– М.: 1995, с.17.

nuqtayi nazaridan baholanishi kerak. Yana shuni qayd etish kerakki, ijtimoiy masalalarni oldinma-ketin hal qilish ularning hududning iqtisodiy rivojlanish samaradorligiga ta'sir etish darajasiga ko'ra ham baholanishi lozim.

Hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishda iqtisodiy tashxis (diagnostika) katta ahamiyat kasb etadi, u hududning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini atroflicha tahlil qiladi va unga baho beradi.

Hududiy xo'jalikni tartibga solish va boshqarish iqtisodiy mexanizmning maqsadli modeli hududiy iqtisodiyot rivojlanishining faqatgina qayta ishlab chiqarish emas, balki muammoli aspektini ham o'z ichiga oladi.

Birinchi marotaba hudud muammosini hal qilishga dasturiy-maqsadli munosabat AQSHda Tennessi daryosi vodiysidagi "falokat rayonlari"ning iqtisodiyotini ko'tarish bo'yicha keng miqyosdagi davlat tadbirini amalga oshirishda qo'llanildi. Ushbu hudud va mamlakat ilg'or shtatlari orasidagi iqtisodiy tafovutni bartaraf etish "Tennessi dasturi"ning bosh maqsadi bo'lgan. Tennessi daryosi vodiysini boshqarish federal agentligining asosiy vazifasi – Tennessi daryosi havzasini tartibga solishning yagona tizimini tashkil etish, daryoda kemalar qatnovi sharoitini yaxshilash, o'rmonlar yaratish va hududda yerning ahvolini yaxshilash, elektr energiyasi ishlab chiqarishni rivojlantirishdan iborat.

Ko'plab zamonaviy ijtimoiy-madaniyat institatlarning faoliyati zamonaviy progressiv ijtimoiy texnologiyalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Odadta ular sharoitga qarab, qator omillar hududdagi maorif, madaniyat, san'at, sport markazlarining mavjudligi, aholining ijtimoiy hordiq chiqarishi xarakteri hamda ularni amalga oshirish sharoitlari, hududdagi ijtimoiy-demografik, iqtisodiy, etnik va boshqa vaziyat bilan bog'liq ravishda shakllanadi.

Hududiy rivojlanish maqsadlari bozor iqtisodiyoti maqsadlari bilan bir xil emas, chunki ularda insonning ontologik, ko'p asrlik intilishlari mujassamlanadi. Hududiy rivojlanishning umumjahon an'analari jamiyatning qadriyatga oid ko'rsatmalari va strategik vazifalariga yo'naltirilgandir.

### **9.3. Federal va hududiy itstisodiy siyosatda ijtimoiy texnologiyalarning roli**

Federal markaz va hududlar o'rtasida ayrim iqtisodiy va boshqa das-turlarni amalga oshirishdagi o'zaro munosabatda markaz yuqorida o'rin olgan bo'lib, qator ustuvorlik va imtiyozlarga ega, hududlar esa boshqarishning quyi darajasida joylashgan.

Maqsadga erishish va dasturni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun markaz quyidagi harakat prinsiplarini amalga oshiradi:

- 1) muvozanat va tartibga solinadigan muvozanat;
- 2) Pareto bo‘yicha optimallik;
- 3) kafolatlangan natija prinsipi;
- 4) ogohlantirish ssenariysi;
- 5) quiy darajadagi parametrlarni markazning aniq bilmasligi bo‘yicha boshqarish;
- 6) kooperativ tarzda birgalikda qaror qabul qilish.

**Muvozanat va tartibga solinadigan muvozanat.** Har bir subyekt o‘z maqsadiga erishish uchun muayyan resurs va imkoniyatlarga ega bo‘ladi; mavjud variantlardan ma’lum bittasini tanlash uning strategiya (boshqarish) sini belgilaydi. Barcha subyektlar o‘z strategiyasini tanlagach, hamma maqsadli funksiyalarning ahamiyati ma’lum bo‘lgan vaziyat vujudga keladi. Subyektlarning o‘zaro ta’siri va aloqasi shu bilan belgilanadiki, hamma ishtirokchilar faqat o‘z strategiyasiga ega bo‘ladi, maqsadli funksiyalarning ahamiyati esa qolgan subyektlariga tegishli strategiyani tanlashiga bog‘liq. Muvozanatli konsepsiyaning mohiyati jamoa bo‘lib qaror qabul qilishda, ishtirokchilarning birortasi uchun muvozanatli strategiyadan yakka holda chetga chiqish ijobiy rol o‘ynamaydi. Muvozanatli konsepsiya ko‘p subyektlar faoliyat ko‘rsatgan vaziyatda qaror qabul qilish uchun eng keng tarqalgan vosita hisoblanadi. Masalan, mamlakatdagi biror bir shahar hokimiyatida bir tomonlama tartibda qaror qabul qilish maqsadga muvofiq emas.

Tartibga solinadigan muvozanatdagi boshqarishning iyerarxik strukturasi va uning yuqori darajasidagi markaz katta ahamiyatga ega.

Markaz va hududlardan iborat boshqarish strukturasi bo‘shliqda emas, balki muayyan tashqi muhitda faoliyat ko‘rsatadi. Aksariyat hol-larda, markaz chetdagi hududlarga qaraganda tashqi muhit parametrlari haqida ko‘proq ma’lumotga ega. Markaz hududlarni mavjud axborot bilan tanishtirishi mumkin, lekin barcha narsa haqida gapirishi shart emas. Masalan, xomashyonni eksport qilishda davlat hududlardan uni arzonga olish uchun tashqi bozordagi narx-navoni kamaytirib ko‘rsatishi mumkin. Shunday qilib, hududlarga axborotni uzatish markazning strategik boshqaruvi bo‘ladi, bunday strategiya axborotni tartibga solish deyiladi.

Axborotni tartibga solish natijasida muvozanatli vaziyat vujudga kelsa, u tartibga solinadigan muvozanat vazifasi hisoblanadi. Axborotni

o‘zgartirib ko‘rsatish markaz uchun ham, hududlar uchun ham foydali bo‘ladi, chunki muvozanatdagi “qalbaki” vaziyatda maqsadli funksiyining ahamiyati oshadi. Bunday boshqarish g‘oyasi (yaxshilik uchun yolg‘on so‘zlash)ni xomashyoni eksport qilish masalasiga ham tatbiq etish mumkin: agar hududlar tashqi talabdagisi baholardan xabardor bo‘lmasa, ularning har biri ko‘proq xom ashyo topishga harakat qiladi, natijada xom ashyoning narxi pasayadi. Tashqi talabning markaz tomonidan kamaytirib ko‘rsatilishi narxni yuqori darajada ushlab turishga imkon beradi, bu esa barcha ishtirokchilar uchun foydadan holi emas.

Pareto bo‘yicha optimallik g‘oyasi ko‘plab subyektlar bilan bo‘lgan vaziyatda qarorlarni baholashda qo‘llaniladi. Ishtirokchilardan biri boshqa ishtirokchilar hisobiga ko‘proq narsaga ega bo‘lsa, bunday vaziyat Pareto vaziyati deyiladi Federal dotatsiyalarni hududlar orasida taqsimlash Pareto shartiga ko‘ra quyidagicha bo‘ladi: biron-bir hududning dotatsiyalarni oshirish haqidagi talabning markaz tomonidan bajarilishi boshqa bir hudud hisobiga amalga oshiriladi. Agar taqsimlanish Pareto optimalligiga ko‘ra bo‘lmasa, masalan, markaz tomonidan rejlashtirishdagi xatolik o‘tgani tufayli hududlar qo‘srimcha ravishda o‘z talabini qo‘yishi mumkin.

Aniq iqtisodiy dasturni tahlil qilishda mablag‘ va vositalarni hududlar orasida taqsimlashning bir qancha pareto-optimalligi bo‘lib, markaz bunda qo‘srimcha dalillarga, aniqrog‘i, ijtimoiy-siyosiy vaziyatga alohida e’tibor berishi mumkin. Masalan, tabiiy ofat yoki talofot ko‘rgan hududlarga alohida yordam ko‘rsatiladi.

**Kafolatlangan** natija **prinsipi** maxsus iyerarxik strukturali vaziyatda qaror qabul qilishga qaratilgan. U quyidagi xususiyatlarga ega. Tahlil markaz nuqtayi nazaridan o‘zi uchun eng salbiy va noqulay hisoblangan hududi tanlash orqali amalga oshiriladi Bunday noqulay vaziyatda markaz o‘zining maqsadli funksiyasini maksimallashtirishga harakat qiladi. Markaz, tabiiy ravishda, boshqarish strategiyasiga ega. Bu imtiyoz markazga qo‘srimcha imkoniyatlar beradi.

Avvalo, markazning funksiyalanishi hududlarga ma’lum bo‘lgach, ular o‘z maqsadlarini aniq bir vaziyatda amalga oshiradilar. Shuning uchun ham, markaz strategiyani tanlashda noaniqlikni kamaytiradi, natijada hududlar maqsadli funksiyasini maksimallashtiradigan boshqarish strategiyasini tanlaydi.

Ikkinchidan, hududlar o‘zining boshqarish strategiyasidan manipulyatsiya uchun foydalanishlari mumkin. Masalan, noto‘g‘ri axborot uzatish, boshqa manipulyativ texnologiya refleksiv strategiyani qo’llagan bo‘lib,

bunda markazning boshqarish strategiyasini tanlashi hududlar tanloviga bog'liq. Aytaylik, vazifani bajarganlik uchun mukofot, shartni buzganlik uchun jarima solish, ishlab chiqarish dasturiga qarab resurslarni ajratish va hokazo.

Bunday manipulativ texnologiyadan markaz hududlariga ta'sir ko'r-satish vositalariga ega bo'lgandagina foydalaniladi.

Kafolatlangan natija prinsipi boshqarishning iyerarxik strukturasida qaror qabul qilishdagi eng umumiy yondashuvdir.

**Ogohlantirish ssenariysi.** Optimallikning ushbu prinsipi o'zaro tahdid solish orqali vaziyat barqarorligini ta'minlashga imkon beradi. Ayrim ishtirokchiga tahdid solish shuni bildiradiki, agar u barcha ishtirokchilar tomonidan barqarorlashtiriladigan vaziyatga olib keluvchi strategiyadan chetga chiqmoqchi bo'lsa, unga shu vaziyatda olishi mumkin bo'lgan mablagni olishga yo'l bermaydilar. Barcha subyektlar tahdid solishdan foydalansalar, unda ogohlantirish ssenariysi vujudga keladi, ya'ni barcha ishtirokchilar bir-birini barqarorlashtirilayotgan vaziyatdan chetga chiqishdan ogohlantirib turadilar.

Aytib o'tish kerakki, tahdid solish har doim ham samarali bo'lavermaydi, bunda "chetga chiquvchi"ni jazolash uchun ishtirokchilar o'zlarining shaxsiy manfaatlaridan voz kechishga majbur bo'ladilar. Shuning uchun ham, ogohlantirish, ya'ni «chetga chiquvchi»ning maqsadli funksiyalarini minimallashtirish emas, balki boshqa ishtirokchilarning maqsadli funksiyalarini maksimallashtirish ham katta ahamiyat kasb etadi.

**Quyi darajadagi parametrlarni** markazning aniq bilmasligida boshqarish. Ushbu vaziyat tartibga solinadigan muvozanatda tahlil qilingan vaziyatga qarama-qarshi turadi, ya'ni markaz hududlar, ularning muammlari va imkoniyatlari haqida aniq ma'lumotga ega emas.

Bunday sharoitda noma'lum parametrlar to'g'risida axborot almashuv imkoniyatlari katta ahamiyatga ega, chunki u markazning ham, hududlarning ham faoliyatini oshiradi. Ko'pincha, muvofiqlashtirilgan boshqaruv katta amaliy natija beradi, bunda markaz turli hududlardagi shart-sharoit haqidagi ma'lumotlarni aniqlashtirib boradi. O'zbekistonda sust axborot infrastrukturasi sharoitida ushbu vaziyatni konseptual o'rganish va mos keluvchi qaror qabul qilish mexanizmini ishlab chiqish juda ham muhimdir.

*Kooperativ tarzda (birgalikda) qaror qabul qilish* avvalgi barcha qarashlardan farq qiladi. Ularda subyektlar bir-biriga bog'liq bo'lмаган holda, mustaqil ravishda o'zlarining individual faoliyatini maksimallashtirish.

tirish uchun maqsad strategiyasini tanlagan bo‘lsa, ushbu oxirgi qarashda ishtirokchilar birdamligi birinchi o‘ringa chiqadi. Ishtirokchilar o‘zaro moddiy va axborot resurslarini almashib, olingan daromadni o‘rtada bo‘ladilar. Yangi koalitsiyaning daromadi ikki subyektlar daromadinining oddiy yig‘indisi bo‘lib qolmaydi, balki yangi birlashmaning xususiyatlari hisobiga yanada katta bo‘ladi. Bu esa *emerjent samarasi* deyiladi.

Mazkur optimallik prinsipida daromadni taqsimlashda bir qator shartlarga rioya qilish talab qilinadi:

- har bir ishtirokchi daromad taqsimotida mustaqil faoliyat yuritganda oladigan daromadidan kam ulush olmasligi kerak;
- birlashma daromadlari ishtirokchilar orasida qoldiqsiz taqsimlanadi (Paretoga ko‘ra optimallik).

Bu talablarning mohiyati shundaki, biron-bir subyekt uchun individual ratsionallik prinsipi bajarilmasa, uning bunday taqsimotda ishtirok etishiga hojat qolmaydi. Agar Paretoga ko‘ra optimallik bajarilmasa, u qandaydir yashirin imkoniyatlar borligidan dalolat beradi.

Shuni aytib o‘tish kerakki, amalda, ko‘pincha, taqsimotga keng ma’noda qarash kerak, ya’ni taqsimotning konkret variantini tanlash uchun qo‘srimcha tahlillarga e’tibor qaratish lozim.

Birgalikda qaror qabul qilish bundan avvalgi prinsiplarga qaraganda ancha yuqori darajadadir. Markaz hududlar bilan axborot, moliyaviy va boshqa resurslarni hamda hamkorlikda qaror qabul qilishni muvofiqlashtiolsa, emerjent samarasini olish imkoniyatlari paydo bo‘ladi. Afsuski, ko‘pincha xudbinlik va separatistik tendensiyalar oqilona fikr yuritishdan ustun turadi, bunda hududiy boshqarishning ijtimoiy texnologiyalari muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, ko‘rib chiqilgan muammo aspektida ijtimoiy texnologiya deganda, barcha hududlar manfaatlarini hisobga olgan holda federal dasturni amalga oshirishga qaratilgan usullar va marosimlar majmuyi tushuniladi.

Iqtisodiy munosabatlar sohasida ijtimoiy texnologiyaga federal, hududiy va mahalliy budget tomonidan yig‘ilgan soliqlarni taqsimlashni misol qilishimiz mumkin. Ma’lumki, hududiy va mahalliy budget hisobiga katta foizda mablag‘ ajratilishi soliq yig‘ishni rag‘batlantiradi, aksincha, markazning tushumni o‘zlashtirishi hududlarning daromadni yashirishiga, oqibatda, federal budgetdagi kamomadga sabab bo‘ladi.

## Tayanch so‘z va iboralar

**Ijtimoiy texnologiya** – materialni foydali narsaga aylantirish usuli, vositalari, bu boradagi xizmatlar majmuyi;

**innovatika** – yakkalikni joriy etish;

**Parsto vaziyati** – ishtirokchilardan birining boshqa ishtirokchilar hisobiga ko‘proq narsaga ega bo‘lishi;

**Paretoga ko‘ra optimallik** – birlashma daromadlarining ishtirokchilar orasida qoldiqsiz taqsimlanishi;

**makrotexnologiya** – makrotizimlar, ya’ni, jamiyatning hududiy tizimlari, sinflar, partiylar, katta ijtimoiy guruqlar texnologiyasi;

**mezotexnologiyalar** – o‘rta darajada – shahar, boshqa aholi punktlari, yirik mehnat kollektivlarida qo‘llaniladigan texnologiyalar;

**mikrotexnologiyalar** – kishilarning katta bo‘lmagan birlashmalari, shaxs imkoniyatlarini rivojlantirishga mo‘ljallangan texnologiyalar.

## Savollar va topshiriqlar

1. Ijtimoiy texnologiya atamasining ta’rifini ayting.
2. Ijtimoiy boshqarish tushunchasi nima?
3. Ijtimoiy texnologiyaning belgilari nimalardan iborat?
4. Makro, mezo, mikrotizimlar texnologiyasi haqida nimalarni bilasiz?
5. Ijtimoiy texnologiyalarning hududiy darajada tutgan o‘rni nimada?
6. Muvozanatlari vaziyatning mohiyatini ayting.
7. Pareto bo‘yicha optimallik deb nimaga aytildi?
8. Markaz va hududlar orasidagi munosabatlarda nima farq bor?
9. Kooperativ tarzda qaror qabul qilishning o‘ziga xosligi nimada?
10. Emerjent samarasi deganda nimalar tushuniladi?

## **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmang. –T.: “O‘zbekiston”, 1993/
2. Karimov I.A. O‘zbekiston: o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li, – T.: “O‘zbekiston”, 1995.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. –T.: “O‘zbekiston”, 2009. 7-8-betlar.
4. Aliqoriyev N.S., Ubaydullayeva R. va boshqalar. Umumiyl sotsiologiya. – Bishkek, 1999.
5. Каримов М.С. Введение в социологию. – М.: Наука, 1994.
6. Кравчепко А.И. Осново социологии. – М.: 1998.
7. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. – Т.: “O‘qituvchi”, 2001.
8. Nosirxo‘jayev S. va boshqalar. Sotsiologiya asoslari. Ma’ruzalar matni. – Т.: 2000.
9. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikr tarixidan. – Т.: Fan, 1995.
10. Sotsiologik tadqiqot metodi va texnikasi. – Т.: ToshDU, 1999.
11. Sotsiologiya tarixi. – Т.: ToshDU, 1999.
12. Sotsiologiya. Ma’ruzalar matni. (Karimova V. tahriri ostida). – Т., 2000.
13. Социология. Курс лекций. Ростов-на-Дону. Феникс, 1999.
14. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. – Т.: O‘zbekiston, 1997.
15. Umumiyl sotsiologiya. – Т.: ToshDU, 1999.
16. Хан С, Хан В. Социология. Курс лекций. – Т.: Адолат, 1999.
17. Хариева В. Основа социологии. Учебник. – М.: Логос. Высшая школа, 1999. – 302 с.
18. Xolbekov A., Idirov U. Sotsiologiya. Lug‘at. – Т.: Ibn Sino, 1999.
19. Xolbekov A. Sharq va G‘arb mutafakkirlarining sotsiologik qarashlari. – Т., 1999.
20. Шарифхўжаев М., Шодиев Н. и др. Сила – в справедливости. //Труд, 27 сентября 2001 г.
21. Sharifxo‘jayev M. O‘zbekiston: yangi g‘oyalar, yangi yutuqlar. – Т. “Sharq”, 2002
22. Шарифхўжаев М. Становление открытое гражданского общества в Узбекистане. – Т.: 2002.
23. Шарифхўжаев М. Императив времени.//Труд, 11 июня, 2002 г. Шодиев Н., Фофуров З., Сиддиқов Б. Миллий мафкура ва ғоя. –Т.: ТДТУ, 1999.
24. Shodiyev N. O‘zbekiston milliy tiklanish bosqichida. – М.: Vega, 1999.
25. Shodiyev N., G‘ofurov Z., Siddiqov B. Milliy mafkura va g‘oya. –Т.: TDTU, 1999.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	3
<b>1- Sotsiologiya fanining predmeti, obyekti, tarkibi, tadqiqot usullari va bob. uslubiyati. Sotsiologiya va ijtimoiy-gumanitar fanlar.....</b>	4
1.1. Sotsiologiya faninipg predmeti, obyekti, tarkibi, tuzishi.....	4
1.2. Sotsiologiyaning tadqiqot usullari va uslubiyati.....	7
1.3. Sotsiologiya va ijtimoiy-gumanitar fanlar.....	11
<b>2- Sotsiologyaning vujudga keligai va taraqqiyot bosqichlari.....</b>	14
<b>bob.</b>	
2.1. Sotsiologiya fanining vujudga kelishi va uning nazariy-amaliy manbalari.....	14
2.2. Qadim Turon va Movarounnahrdagi ijtimoiy-sotsiologik qarashlar....	16
2.3. XIX asr G‘arbiy Yevropadagi sotsiologik ta’limotlar tarixi.....	19
2.4. XX asrda AQSHda sotsiologik qarashlar ta’limoti va rivoji.....	23
<b>3- Jamiyat dinamik tizim sifatida. Ijtimoiy stratifikatsiya.....</b>	29
<b>bob.</b>	
3.1. Jamiyat va tizim tushunchasi. Jamiyat va taraqqiyot tog‘risidagi rivojlanish nazariyalari.....	29
3.2. Jamiyatning turlari.....	32
3.3. Ijtimoiy stratifikatsiya tushunchasi va uning turlari.....	35
<b>4- Individlar va guruhlararo ijtimoiy munosabatlar hamda aloqalar.....</b>	40
<b>bob.</b>	
4.1. Ijtimoiy aloqalar va munosabatlar.....	40
4.2. Shaxslararo o‘zaro ta’sir nazariyasi. Nizolar.....	44
4.3. Ijtimoiy guruhlardagi o‘zaro ta’sir turlari va ularning xususiyatlari.....	47
4.4. Ijtimoiy harakatlar.....	50
<b>5- Sohalar sotsiologiyasi. Siyosiy va iqtisodiy sohalar sotsiologiyasi.....</b>	53
<b>bob.</b>	
5.1. Siyosiy sotsiologiya. Hokimiyat, hukmronlik va avtoritet.....	53
5.2. Siyosiy faoliyat va siyosiy xatti-harakatlar. Siyosiy hukmronlik.....	57
5.3. Iqtisodiy hayot sotsiologiyasi.....	59
5.4. Ijtimoiy tashkilotlar sotsiologiyasi. Tashkilotlarning turlari va vazifalari.....	62
<b>6- Sohalar sotsiologiyasi. Ta’lim-tarbiya va oila sotsiologiyasi.</b>	
<b>bob. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi.....</b>	68
6.1. Ta’lim-tarbiya sotsiologiyasi.....	68
6.2. Oila sotsiologiyasi. Oilaning vazifalari, tarixiy rivojlanishi, turlari.....	71
6.3. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi.....	73
<b>7- Deviant va delinkvent xulq-atvor.....</b>	78
<b>bob.</b>	
7.1. Ijtimoiy me’yor tushunchasi.....	78

7.2. Deviant va delinkvent xulq-atvor, ularning shakllari va mohiyati.....	80
7.3. Shaxs xususiyatlarining shakllanishi.....	83
<b>8- Amaliy sotsiologik tadqiqotlarni tashkil etish va umumlashtirish.....</b>	<b>86</b>
<b>bob.</b>	
8.1. Sotsiologik tadqiqotlar dasturi.....	86
8.2. Sotsiologik tadqiqot usullari.....	88
8.3. Sotsiologik ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish.....	91
<b>9- Ijtimoiy texnologiyalar.....</b>	<b>95</b>
<b>bob.</b>	
9.1. Ijtimoiy texnologiyalar, ularning mohiyati va tasnifi.....	95
9.2. Ijtimoiy texnologiyalardan hududiy darajada foydalanimish.....	98
9.3. Federal va hududiy itstisodiy siyosatda ijtimoiy texnologiyalarning roli.....	100
<b>Adabiyotlar .....</b>	<b>106</b>

---

**R.UMAROVA**

**SOTSILOGIYA**

o'quv qo'llanma

**Muharrir                  H.Teshaboyev**  
**Sahifalovchi       N.Nizamutdinova**

Bosishga ruxsat etildi 18.08.2010. Qog'oz bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>.  
 Hisob-nashr tabog'i 6,75. Adadi 200.  
 Buyurtma № \_\_\_\_.

"IQTISOD-MOLIYA" nashriyotida tayyorlandi.  
 100084, Toshkent, Kichik halqa yo'li ko'chasi. 7-uy.

«HUMOYUNBEK - ISTIQLOL MO'JIZASI» bosmaxonasi  
 100000, Toshkent, Qori-Niyoziy ko'chasi, 39-uy.